



ILIM HÁM JÁMIYET

Ilmiy-metodikaliq jurnal

FAN VA JAMIYAT

Ilmiy-uslubiy jurnal

2026/4-3




ISSN 2010-720X

2004-jildin mart ayidan baslap shiga basladi

**ÓZBEKSTAN RESPUBLIKASI MEKTEPKE
SHEKEMGI HAM MEKTEP BILIMLENDIRIWI
MINISTRILIGI**



**ÁJINIYAZ ATÍNDAGÍ NÓKIS MÁMLEKETLIK
PEDAGOGIKALÍQ INSTITUTÍ**



ILIM hám JÁMIYET

Ilmiy-metodikaliq jurnal

Seriya: Pedagogika ilimleri. Psixologiya ilimleri

**Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat
pedagogika instituti**

FAN va JAMIYAT

Ilmiy-uslubiy jurnal

Seriya: Pedagogika fanlari. Psixologiya fanlari

**Нукусский государственный педагогический
институт имени Ажинияза**

НАУКА и ОБЩЕСТВО

Научно-методический журнал

Серия: Педагогические науки. Психологические науки

**Nukus State Pedagogical Institute
named after Ajiniyaz**

SCIENCE and SOCIETY

Scientific-methodical journal

Series: Pedagogical sciences. Psychological sciences

№ 4/3

**Shólkemlestiriwshi: Ájiniyaz atındaǵı Nókis
mámleketlik pedagogikalıq instituti hám jurnal redakciyası jámaáti
Shólkemlestiriw komiteti bashlıǵı, NMPI rektori – A.T.UBBIYEV
Bas redaktor – A.K.PAZÍLOV**

REDKOLLEGIYA AǴZALARI

ps.i.d.(DSc), prof. **Abdullaeva B.** (Tashkent);
p.i.d. (DSc), doc. **Allambergenova M.** (Nókis);
p.i.k., doc. **Ábdixalıqova A.** (Qazaqstan);
p.i.b.f.d., doc. **Babaniyazova N.** (Tashkent);
p.i.d. (DSc), doc. **Bekimbetova G.** (Nókis);
p.i.k., doc. **Darmenov J.** (Nókis);
p.i.d. (DSc) **Dauekeeva A.** (Nókis);
p.i.d., doc. **Dáwletbekova J.** (Qazaqstan);
ps.i.d. (DSc), prof. **Elmuratova A.** (Nókis);
p.i.d., prof. **Xodjaniyazov S.** (Urgench);
ps.i.d., doc. **Jumaniyozova N.** (Urgench);
p.i.d., (DSc), prof. **Jumasheva G.** (Nókis);
p.i.d. (DSc), doc. **Kadirov K.** (Nókis);
p.i.d.(DSc), prof. **Kurbaniyazova Z.** (Nókis);
p.i.k., doc. **Qudaybergenova Á.** (Qazaqstan);

p.i.d. (DSc), prof. **Qarlıbaeva G.** (Nókis);
p.i.k., doc. **Mamirbaeva D.** (Nókis);
p.i.d. (DSc), prof. **Matjanov N.** (Nókis);
p.i.d., (DSc), prof. **Nauruzbaeva A.** (Nókis);
ps.i.d. (DSc) **Nurimbetova E.** (Nókis);
p.i.d., prof. **Ostapenko A.A.** (Rossiya);
p.i.k., prof. **Pazilov A.** (Nókis);
p.i.d. (DSc), prof. **Pazilova M.** (Nókis);
p.i.k., prof. **Seytjanova U.** (Nókis);
p.i.d. (DSc), prof. **Seytkasimov D.** (Nókis);
p.i.k., doc. **Tajieva A.** (Nókis);
p.i.d., prof. **Tlegenov A.** (Nókis);
p.i.d., prof. **Utebaev T.** (Nókis);
p.i.k., doc. **Ermolich S.Y.** (Belorussiya);
ps.i.d. (DSc), doc. **Sherimbetova Z.** (Nókis).

**Q.Biysenbaev – juwaplı xatker
Z.Xodjekeeva – korrektor
N.Allamuratova – operator**

Juwaplı redaktorlar:
f.i.d. (DSc), doc. **S.Matyakupov – ózbek tili boyınsha**
f.i.d. (DSc), prof. **G.Kdirbaeva – rus hám inglis tilleri boyınsha**
p.i.d. (DSc), prof. **D.Seytkasimov – qaraqalpaq tili boyınsha**

*Jurnal 1992-jıldan «Qaraqalpaqstan muǵallimi» atamasında shıǵarıla baslaǵan. 2004-jilda «Ilim hám jámiyet» atamasına ózgerilip, 01-022-sanlı gúwalıq penen Qaraqalpaqstan Respublikası Baspasóz hám xabar agentligi tárepinen dizimge alınǵan.
2020-jılı 7-avgustta Ózbekstan Respublikası Prezidenti Administracyası janındaǵı xabar hám ǵalaba kommunikaciýalar agentligi tárepinen qayta dizimge alınıp, 1098-sanlı gúwalıq berilgen.*

«Ilim hám jámiyet» jurnalı Ózbekstan Respublikası Ilimler akademiyası janındaǵı Joqarı Attestaciya Komissiyası kollegiyasınıń qararı menen tórende kórsetilgen ilimler boyınsha ilim doktori dárejesin alıw ushın maqalalar járiyalanıwı tiyis bolǵan ilimiy basılımlar dizimine kirgizilgen:

- 01.00.00 – fizika-matematika ilimleri;
- 02.00.00 – ximiya ilimleri;
- 03.00.00 – biologiya ilimleri;
- 05.00.00 – texnika ilimleri;
- 07.00.00 – tariyx ilimleri;
- 10.00.00 – filologiya ilimleri;
- 11.00.00 – geografiya ilimleri;
- 13.00.00 – pedagogika ilimleri;
- 19.00.00 – psixologiya ilimleri.

PEDAGOGIKA ILIMLERI

Pedagogika teoriyası hám tariyxı

STUDENTLERDİŇ SÓYLEW SHEBERLIGIN RAWAJLANDIRIWDA INTERAKTIV SHİNİĞIWLAR HÁM NOVERBAL KOMMUNIKACIYANİŇ ROLI

Abatova Mexriban Kuralbay qızı – *tayanish doktorant*

mexriban632@gmail.com

Ajiniyaz atındaǵı Nókis mámleketlik pedagogikalıq institutu

РОЛЬ ИНТЕРАКТИВНЫХ ЗАНЯТИЙ И НЕВЕРБАЛЬНОЙ КОММУНИКАЦИИ В РАЗВИТИИ ОРАТОРСКИХ НАВЫКОВ СТУДЕНТОВ

Абатова Мехрибан Куралбаевна – *базовый докторант*

Нукусский государственный педагогический институт имени Ажинияза

THE ROLE OF INTERACTIVE LESSONS AND NON-VERBAL COMMUNICATION IN THE DEVELOPMENT OF STUDENTS' NOTORAL SKILLS

Abatova Mexriban Kuralbayevna – *doctoral student*

Nukus State Pedagogical Institute named after Ajiniyaz

Tayanch so'zlar: notiqlik kompetensiyasi, talabalar, o'quv metodikasi, omma oldida so'zlash, interaktiv mashg'ulotlar, psixologik tayyorgarlik, nonverbal muloqot, ta'lim.

Rezyume. Maqola talabalarning notiqlik ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotni taqdim etadi. Tadqiqotda interaktiv mashg'ulotlar, psixologik treninglar va nonverbal kommunikatsiya metodlarining ta'siri tahlil qilinadi. Maqolada metodik yondashuvlar orqali talabalarning omma oldida so'zlash qobiliyatini oshirishga oid amaliy tavsiyalar berilgan.

Ключевые слова: ораторская компетенция, студенты, методика обучения, публичные выступления, интерактивные занятия, психологическая подготовка, невербальное общение, образование.

Резюме. Статья представляет собой научное исследование, направленное на развитие ораторских навыков студентов. В исследовании анализируется влияние интерактивных занятий, психологических тренингов и методов невербальной коммуникации. В статье представлены практические рекомендации по повышению навыков публичного выступления студентов посредством методических подходов.

Key words: oratory competence, students, teaching methods, public speaking, interactive exercises, psychological preparation, nonverbal communication, education.

Summary. This article presents a scientific study aimed at developing students' oratory skills. The study analyzes the impact of interactive classes, psychological training, and non-verbal communication methods. The article provides practical recommendations for enhancing students' public speaking skills through methodological approaches.

Kirisiv. Respublikamızda sońǵı jılları joqarı bilimlendiriwdiń sapasın arttırıw, studentlerdiń kásiplik-pedagogikalıq tayarlıǵın, oqıw-tárbiya jumısın jetilistiriw, oqıtıwdıń nátiyjeliligini arttırıw usılların kúsheytiw, bilimlendiriwdiń hár bir basqıshındaǵı maqsetti anıq belgilew, bilimlerdi múmkin bolǵan dárejede tolıq iyelewdiń mexanizmlerin islep shıǵıwdıń tiykarları engizilmekte [1]. Tiykarınan, joqarı bilimlendiriw sistemasında shet tillerin, sonıń ishinde, studentlerdiń sóylew sheberligin rawajlandırıwǵa qaratılǵan texnologiyalar járdeminde oqıtıwdı xalıqaralıq ulıwma Evropa standartları sheńberinde shólkemlestiriw hám bahalawǵa ayrıqsha itibar qaratılmaqta.

Zamanagóy bilimlendiriw sistemasında studentlerdiń sóylew kompetensiyasını rawajlandırıw áhmiyetli wazıypa esaplanadı.

Sóylew sheberligi – bul pikirdi anıq, logikalıq hám tásirsheń bayan etiw, kópshilik aldında sóylew hám qarım-qatnasta ózine isenim menen múnásibette bolıw qábileti. Bul kónlikpeler studentlerge tek ǵana oqıw procesinde emes, al kásiplik jumista hám jeke ómirde de tabısqa erisiwge járdem beredi. Usı maqalada studentlerdiń sheshenlik kompetensiyasını rawajlandırıwǵa qaratılǵan metodika islep shıǵıldı.

Metodlar. Izertlewshi D.Seytkasimov filolog-studenttiń (Qaraqalpaq tili hám ádebiyatı) kásiplik kompetensiyasında áhmiyetli bolǵan kommunikativlik kompetensiyalardı klasslarǵa bólgen [2:72]. Bul izertlew qaraqalpaq tili hám ádebiyatı baǵdarında bilim alıp atırǵan

studentlerdiń kásiplik sóylesiw kónlikpelerin rawajlandırıwǵa qaratılǵan bolıp, kommunikativlik kompetensiyalardıń klassifikaciyası bilimlendiriw procesinde anıq hám sistemalı qatnastı támiyinleydi. Izertlewde keltirilgen klassifikaciyalaw metodikasi studentlerdiń sóylew mádeniyatı, logikalıq pikirlew hám tásirsheń sóylesiw qábiletlerin arttırıwda áhmiyetli qural sıpatında xızmet etedi.

Izertlewshi M.M.Musurmonqulova ádebiyattı oqıtıwda studentlerdiń sheshenlik hám óz betinshe pikirlew kónlikpelerin rawajlandırıwǵa qaratılǵan kreativ kózqaraslarǵa tiykarlanǵan. Ol óz izertlewinde mashqalalı lekciyalar, case-study hám didaktikalıq materiallardan paydalanıp, studentlerdiń sóylew mádeniyatın arttırıw usılların islep shıqqan [3]. Bizińshe, mashqalalı lekciyalar, case-study hám didaktikalıq materiallardan paydalanıp islep shıǵılǵan kreativlik kózqaras studentlerdiń sóylew mádeniyatın arttırıwda nátiyjeli esaplanıp, bilimlendiriwdiń sapasını jaqsılawǵa xızmet etedi hám filologiya tarawında keńnen qollanılıwı múmkin.

Izertlewshi O.Turakulova ádebiyat sabaqlarında studentlerdiń sheshenlik kónlikpelerin rawajlandırıw ushın óz betinshe pikirlew hám sóylew mádeniyatına itibar qaratqan. Ol metodologiyada studentlerdiń sóylesiw aktivligin arttırıw ushın anıq jaǵday analizi (case-study) hám mashqalalı oqıtıw usılların qollanǵan. Bul usıllar oqıwshılardıń sóylewin logikalıq dúziw hám tásirsheń bayanlaw kónlikpelerin qalıplestiriwge xızmet etken [4:48]. Bul ilimpazlar sheshenlik kompetensiyasını rawajlandırıwda

türli metodlardan paydalanğan bolıp, olardıń tiykarǵı qatnasları interaktiv, mashqalalı oqıtıw, psixologiyalıq hám lingvistikalıq usıllarǵa tiykarlanadı. Olardıń izertlewleri studentlerdiń sóylew mádeniyatı, erkin pikirlew hám tásirsheń sóylesiw kónlikpelerin arttırıwǵa xızmet etken. Keleshekte usı metodlardı basqa pánler hám bilimlendiriw basqıshlarında qollanıw boyınsha qosımsha izertlewler ótkeriw usınıs etiledi.


Biz Qaraqalpaqstan Respublikası hám Nawayı wálayatı filolog-studentleriniń sóylew sheberligin rawajlandırıw boyınsha úyreniw jumsların alıp barıw waqtında hár türli mashqalalardı úyrendik. Úyreniw jumslarında studentlerdiń óz pikirlerin erkin jetkerip beriw kónlikpeleriniń búgingi jaǵdayı anketa sorawları arqalı alıp barıldı.

1-keste:

Siz sóylew sheberligi haqqında tuwrıdan-tuwrı televideniye sóylewge tayarsızba?	QMU		NMPI		Nawayı MU	
	awa	yaq	awa	yaq	awa	yaq
	43,0	57,0	49,3	50,7	46,6	53,4

Soraw nátiyjeleri QMU studentleri tárepinen (57,0%) “qanaatlandırarsız” NMPI studentleri (50,7%) Nawayı MU (53,4%) “qanaatlandırarsız” nátiyjeni kórsetti. Kórsetilgen juwaplarǵa qaraytuǵın bolsaq, studentlerdiń kópshilik bólegi sóylew sheberligi pániniń oqıtılıwı tárepdarı ekenligin kórsetti.

Kórgenimizdey, studentler kóbirek oqıw rejesine «Sóylew sheberligi», «Pedagogikalıq sheberlik», «Pedagogikalıq konfliktologiya» pánlerin kirkiziw zárúrligin úyrendik. Bunıń ushın, biz metodikada studentlerdiń sóylew kónlikpelerin rawajlandırıw ushın tómendegi usıllardı úyrendik. (1-súwret).



Studentlerdiń sheshenlik kompetenciyanı bahalaw ushın tómendegi usıllar arqalı gipoteza etiledi (2-keste).

Studentlerdiń sóylew kompetenciyanı bahalaw	
Sóylew sapasını bahalaw	Ekspertler tárepinen studentlerdiń prezentaciyanı 5 ballıq shkala tiykarında bahalanadı (anıqlıq, tásirsheńlik, strukturalıq hám noverbal elementler).
Sorawnama	Studentlerdiń ózine isenimi hám óz pikirlerin jetkerip beriw menen baylanıslı

Ádebiyatlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiniń 2022-jil 28-yanvardaǵı “2022-2026-jıllarǵa mólsherlengen Jańa Ózbekistanniń rawajlanıw strategiyası haqqında”ǵı PP-60-sanlı Pármanı.
2. Seytkasimov D. Filolog-talabalarning lingvistik kompetentsiyasını takomillashtirish metodikasi (Qoraqalpoq tili va adabiyoti talabalari misolida) Pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – Nukus: 2023.
3. Мусурмонкулова М.М. Креатив ёндашув асосида ўқитишнинг дидактик таъминотини яратиш механизмлари. // Мақтаб таълими, 2018, № 4.
4. Туракулова О. Адабиёт ўқитишда ўқувчиларни мустақил фикрлашга одатлантиришнинг методик усуллари. // Мақтаб таълими, 2018, №4.

	qorqıw dárejesin anıqlaw ushın anketa ótkeriledi.
Baqlaw	Sabaq procesinde studentlerdiń pikirlesiw aktivligi baqlanadı.

Izertlew nátiyjelerine qaraǵanda, eksperimental topardaǵı studentlerdiń sheshenlik kompetenciya sezilerli dárejede arttı. Toliq nátiyjeler tómendegishe:

Sóylew sapası: Eksperimental topardaǵı studentlerdiń prezentaciyanı ortasha 4.2 ball (5 ballıq shkalada) bahalandı, qadaǵalaw toparında bolsa bul kórsetkish 3.1 baldı quraydı.

Ózine isenim: Sorawnama nátiyjelerine qaraǵanda, eksperimental topardaǵı studentlerdiń 85%i kópshilik aldında sóylewden qorqıw dárejesi kemeydi, qadaǵalaw toparında bolsa bul kórsetkish 40% ti quraydı.

Noverbal elementler: Eksperimental topardaǵı studentler noverbal kommunikaciya kónlikpeleri (jestkulyaciya hám intonaciya) boyınsha 30% ke jaqsı nátiyjeler kórsetti.

Talqılaw. Izertlew nátiyjeleriniń kórsetiwı boyınsha, arnawlı islep shıǵılǵan metodika studentlerdiń sóylew sheberligin rawajlandırıwda joqarı nátiyjelilikke iye. Interaktiv shınıǵıwlar hám psixologiyalıq treningler oqıwshılardıń ózine isenimi hám sóylesiw qábiletin arttırıwda áhmiyetli rol atqardı.

Noverbal elementlerge itibar beriw sóylewdiń tásirsheńligin arttırdı, bul bolsa auditoriya menen jaqsıraq baylanıwıw imkanın beredi.

Biraq, maqalada ayırım sheklewler bar. Máselen, izertlew tek bir semestr dawamında ótkerildi, bul uzaq múddetli nátiyjelerdi bahalaw ushın jetkilikli emes. Bunnan tisqari, metodika tek ǵana ózbek, qaraqalpaq tilinde sóylesiwge qaratilǵan bolǵanlıqtan, basqa tillerdegi studentlerdiń sóylew kónlikpelerin rawajlandırıw ushın qosımsha izertlewler talap etiledi:

1. Turaqlı shınıǵıwlar: Sóylew kónlikpelerin rawajlandırıw ushın turaqlı rolli oynıwlar hám prezentaciya ótkeriw.

2. Psixologiyalıq tayarlıq: Studentlerdiń kópshilik aldında sóylewden qorqıwın kemeytiw ushın arnawlı treningler shólkemlestiriw.

3. Texnologiyalardan paydalanıw: Videokórinis hám virtual reallıq quralları arqalı studentlerdiń sóylew sapasını analizlew.

4. Individuallıq qatnas: Hár bir studenttiń sheshenlik dárejesine qarap jeke sabaq jobaların islep shıǵıw.

Juwmaq. Juwmaq sıpatında, studentlerdiń sóylew kompetenciyanı rawajlandırıw ushın nátiyjeli metodikanıń bar ekenligin aytıp ótiw kerek. Metodika interaktiv, psixologiyalıq hám noverbal elementlerdi óz ishine alıp, studentlerdiń sóylew sapasını hám ózine isenimin arttırıwǵa xızmet etedi. Keleshekte bul metodikanı basqa bilimlendiriw mákemelerinde sińdiriw hám onıń uzaq múddetli nátiyjeliligini úyreniw usınıs etiledi.

**INNOVATSION YONDASHUV ASOSIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI
KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASHDA TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH**

Abdieva Saltanat Patullaevna – *tayanch doktorant*

abdievasaltanat68@gmail.com

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

**ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ТЕХНОЛОГИЙ В ПОДГОТОВКЕ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ
К ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ НА ОСНОВЕ ИННОВАЦИОННОГО ПОДХОДА**

Абдиева Салтанат Патуллаевна – *базовой докторант*

Нукусский государственный педагогический институт имени Ажинияза

**USING TECHNOLOGIES IN PREPARING FUTURE TEACHERS
FOR PROFESSIONAL ACTIVITIES BASED ON AN INNOVATIVE APPROACH**

Abdieva Saltanat Patullayevna – *doctoral student*

Nukus State Pedagogical Institute named after Ajiniyaz

Tayanch so'zlar: innovatsiya, pedagogik texnologiya, kasbiy kompetensiya, bo'lajak o'qituvchi, raqamli ta'lim, interfaol metodlar, kompetensiyaviy yondashuv.

Rezyume. Maqolada innovatsion yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash texnologiyalarini takomillashtirishning pedagogik jihatlarini tahlil qilingan. Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, innovatsion ta'lim texnologiyalarini qo'llash hamda raqamli ta'lim muhitini samarali tashkil etish masalalari yoritilgan. Tadqiqotda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar va kompetensiyaviy yondashuvning ahamiyati ochib berilgan. Ilmiy xulosalar asosida bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashni takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Ключевые слова: инновация, педагогическая технология, профессиональная компетенция, будущий учитель, цифровое образование, интерактивные методы, компетентностный подход.

Резюме. В статье анализируются педагогические аспекты совершенствования технологий подготовки будущих учителей к профессиональной деятельности на основе инновационного подхода. Рассматриваются вопросы развития профессиональных компетенций будущих педагогов в высших учебных заведениях, применения инновационных образовательных технологий и эффективной организации цифровой образовательной среды. В исследовании раскрывается значимость современных педагогических технологий, интерактивных методов и компетентностного подхода. На основе научных выводов разработаны практические рекомендации по совершенствованию подготовки будущих учителей к профессиональной деятельности.

Key words: innovation, pedagogical technology, professional competence, future teacher, digital education, interactive methods, competency-based approach.

Summary. The article analyzes the pedagogical aspects of improving the technologies for preparing future teachers for their professional activities based on an innovative approach. It examines the development of professional competencies in future educators at higher education institutions, the application of innovative educational technologies, and the effective organization of a digital educational environment. The study highlights the significance of modern pedagogical technologies, interactive methods, and a competency-based approach. Based on the scientific findings, practical recommendations are proposed for improving the professional training of future teachers.

Kirish. Hozirgi globallashtirish va raqamlashtirish sharoitida ta'lim tizimi oldiga qo'yilayotgan asosiy vazifalardan biri raqobatbardosh, ijodkor va innovatsion fikrlay oladigan pedagog kadrlarni tayyorlashdan iborat. Zamonaviy jamiyatda o'qituvchining kasbiy faoliyati faqat bilim berish bilan cheklanib qolmasdan, balki ta'lim oluvchilarni mustaqil fikrlashga, muammolarni hal qilishga va innovatsion yondashuv asosida ishlashga yo'naltirishi talab etilmoqda. Shu sababli bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy-pedagogik faoliyatga samarali tayyorlash maqsadida ilmiy-pedagogik modullarni ta'lim jarayoniga tatbiq etish, milliy malaka talablarini ishlab chiqish hamda ularni milliy ta'lim tizimining turli bosqichlari bilan integratsiyalash dolzarb vazifalardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Shu bilan birga, pedagog kadrlarni zamonaviy talablar asosida tayyorlash, ularning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish va ta'lim sifati samaradorligini oshirishga alohida ahamiyat berilmoqda.

Jumladan, 2017-2021-yillarda Harakatlar strategiyasi doirasida sifatli ta'lim xizmatlarini kengaytirish hamda

mehnat bozori ehtiyojlariga mos yuqori malakali mutaxassislarini tayyorlash ustuvor yo'nalish sifatida belgilandi. Mazkur islohotlar asosida uzluksiz ta'lim tizimida bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayonlarini modernizatsiya qilish va innovatsion yondashuvlar asosida takomillashtirishga keng imkoniyatlar yaratildi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda ta'lim sohasini modernizatsiya qilish, pedagog kadrlar tayyorlash sifatini oshirish va innovatsion ta'lim muhitini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Oliy ta'lim muassasalarida kompetensiyaviy yondashuv, raqamli ta'lim muhiti, interfaol metodlar va innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish orqali bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish dolzarb masalaga aylandi.

Asosiy qism. Innovatsion yondashuv – bu ta'lim jarayoniga yangi g'oya, metod, texnologiya va zamonaviy usullarni joriy etish orqali uning samaradorligini oshirishga qaratilgan pedagogik faoliyatdir. Innovatsion yondashuv o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, ijodkorligi, faolligi va amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Pedagogik jarayonda innovatsion yondashuv interfaol metodlar, raqamli texnologiyalar, muammoli ta'lim, loyihaviy faoliyat va zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etiladi. Bu yondashuv ta'lim sifatini oshirish hamda raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashda muhim ahamiyatga ega.

Bu bo'yicha olim M.J.Mirzayevning fikricha, "bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda innovatsion yondashuv, modulli texnologiyalar va interfaol metodlardan foydalanish pedagogik samaradorlikni oshiradi hamda talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantiradi" [1]. Bu esa pedagogik ta'lim jarayonini innovatsion asosda tashkil etish zarurligini ko'rsatadi. Olimning ushbu fikrida bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida innovatsion yondashuvning pedagogik ahamiyati ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Olimning ta'kidlashicha, ta'lim jarayonida modulli texnologiyalar va interfaol metodlardan foydalanish nafaqat bilimlarni samarali o'zlashtirishga, balki talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Mazkur yondashuv pedagogik ta'limning an'anaviy reproduktiv modelidan voz kechib, talabalarni mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va amaliy faoliyatga tayyorlashga yo'naltirilganligi bilan ahamiyatlidir.

Shuningdek, modulli texnologiyalar o'quv materiallarini tizimli va bosqichma-bosqich o'zlashtirish imkonini yaratadi. Bu esa talabalarning individual imkoniyatlari va kasbiy ehtiyojlarini hisobga olishga yordam beradi. Interfaol metodlar esa ta'lim jarayonida talabalar faolligini oshirib, ularda kommunikativ kompetensiya, jamoada ishlash va kreativ fikrlash ko'nikmalarini shakllantiradi. Shu jihatdan qaralganda, innovatsion yondashuv pedagogik ta'lim samaradorligini oshiruvchi muhim didaktik vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Pedagog olimi N.N.Azizxo'jayeva ta'kidlashicha, "pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayonini oldindan loyihalash, kutilayotgan natijani kafolatlash hamda talabalarning mustaqil va ijodiy fikrlash faoliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi" [2]. Shu nuqtayi nazardan, innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi.

Biz o'rganayotgan muammo bo'yicha tadqiqot metodologiyasini ishlab chiqishda zamonaviy pedagogik yondashuvlar hamda mahalliy olimlarning ilmiy qarashlariga alohida tayanildi. Xususan, N.S.Turdiyeva innovatsion yondashuv bo'lajak o'qituvchilarda kreativ fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish va pedagogik vaziyatlarni samarali hal etish kompetensiyalarini rivojlantirishini ta'kidlaydi [3]. Olimaning ushbu qarashlari innovatsion texnologiyalarning pedagogik faoliyat samaradorligini oshirishdagi muhim didaktik vosita ekanligini ko'rsatadi. Chunki zamonaviy pedagog nafaqat nazariy bilimga ega bo'lishi, balki turli pedagogik muammolarga innovatsion yechim topa olishi ham talab etiladi. Shu jihatdan innovatsion yondashuv bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy moslashuvchanligini oshirish, ularning ijodiy va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. D.Ko'makova esa mustaqil ta'limni bo'lajak o'qituvchilarning innovatsion faoliyatga moslashuvi, axborot bilan ishlash malakasi va kasbiy o'sishini ta'minlovchi muhim omil sifatida

baholaydi [4]. Muallifning fikricha, mustaqil ta'lim jarayonida talabalar ilmiy izlanish olib borish, axborotlarni tahlil qilish va yangi pedagogik g'oyalarni ishlab chiqish kompetensiyalariga ega bo'ladilar. Bu esa bo'lajak pedagoglarning innovatsion faoliyatga tayyorgarligini oshirish bilan birga, ularning uzluksiz kasbiy rivojlanishiga ham xizmat qiladi. Mazkur ilmiy qarashlar tadqiqotning metodologik asoslarini mustahkamlab, bo'lajak o'qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlashning dolzarbligini ilmiy jihatdan asoslash imkonini berdi.

Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, innovatsion yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy faoliyatga tayyorgarligini sezilarli darajada oshiradi. Ayniqsa, raqamli ta'lim platformalari, interfaol metodlar va loyihaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish talabalarning mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv va kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qildi.

Pedagogik tajriba jarayonida talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish uchun "klaster", "aqliy hujum", "keys-stadi", "debat" va "muammoli ta'lim" texnologiyalari qo'llanildi. Natijada talabalarning ta'lim jarayonidagi faolligi ortdi, pedagogik muammolarni hal qilish qobiliyati shakllandi va kasbiy motivatsiyasi kuchaydi.

D.Qo'qonboyeva "bo'lajak pedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda nazariy bilim bilan amaliy tajriba uyg'unligi pedagogik mahoratning shakllanishiga xizmat qiladi", deb hisoblaydi [5]. Mazkur fikr bo'lajak pedagoglarni tayyorlash jarayonida nazariy bilim va amaliy faoliyatning o'zaro uzviy bog'liqligini ifodalaydi. Haqiqatan ham, pedagogik ta'lim jarayonida olingan nazariy bilimlar amaliy tajriba bilan mustahkamlangandagina samarali natija beradi. Ayniqsa, pedagogik amaliyot davomida talabalar ta'lim jarayonini tashkil etish, o'quvchilar bilan muloqot qilish va muammoli vaziyatlarga yechim topish ko'nikmalarini egallaydilar. Shu jihatdan nazariy bilim va amaliy tajribaning uyg'unligi bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik mahorati, kasbiy kompetensiyasi hamda innovatsion faoliyatga tayyorgarligini rivojlantiruvchi muhim omil hisoblanadi.

Innovatsion yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonida kompetensiyaviy yondashuv muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Chunki kompetensiyaviy yondashuv talabalarning nafaqat nazariy bilimlarini egallashiga, balki ularni amaliyotda qo'llay olish, pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish va muammolarga mustaqil yechim topish kompetensiyalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan. Zamonaviy ta'lim tizimida pedagogdan faqat o'z fanini bilish emas, balki innovatsion fikrlash, kommunikativ qobiliyat, axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish hamda kreativ yondashuv asosida dars jarayonini tashkil etish ham talab etiladi. Shu sababli kompetensiyaviy yondashuv bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini shakllantirishda muhim didaktik asos sifatida namoyon bo'lmoqda. Ushbu yondashuv orqali talabalar pedagogik faoliyatga moslashadi, kasbiy mas'uliyat hissi shakllanadi va mustaqil kasbiy rivojlanishga tayyorlanadi.

Zamonaviy ta'lim jarayonida interfaol metodlardan foydalanish talabalarning ta'limga bo'lgan qiziqishini oshiradi hamda ularning faol ishtirokini ta'minlaydi.

Ayniqsa, “aqliy hujum”, “debat”, “klaster”, “FSMU”, “keys-stadi” kabi metodlar talabalarning mustaqil va tanqidiy fikrlashini rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi. Loyihaviy ta’lim texnologiyalari esa talabalarning ijodiy faoliyatini rivojlantirib, ularni real pedagogik muammolar ustida ishlashga yo’naltiradi. Muammoli ta’lim jarayonida talabalar pedagogik vaziyatlarni tahlil qiladi, muammolarga turli nuqtai nazardan yondashadi va ilmiy asoslangan yechimlarni ishlab chiqishga o’rganadi. Shu jihatdan interfaol metodlar ta’lim jarayonini faollashtiruvchi, talabalarni ijodiy va erkin fikrlashga undovchi samarali pedagogik vosita hisoblanadi. Bundan tashqari, interfaol metodlardan foydalanish talabalarda kommunikativ kompetensiya, jamoada ishlash ko’nikmasi va liderlik sifatlarini rivojlantirishga ham xizmat qiladi.

Tahlillar shuni ko’rsatadiki, innovatsion ta’lim muhitini shakllantirishda raqamli texnologiyalar muhim o’rin tutadi. Elektron ta’lim platformalari, virtual laboratoriyalar, masofaviy ta’lim tizimlari va multimediali resurslar ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, raqamli texnologiyalar orqali ta’lim jarayonini individuallashtirish, talabalar bilimni tezkor nazorat qilish va interaktiv ta’lim muhitini yaratish imkoniyati kengaymoqda. Bugungi kunda Moodle, Google Classroom, Zoom kabi platformalardan foydalanish bo’lajak o’qituvchilarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish

bilan birga, ularning mustaqil ta’lim olish imkoniyatlarini ham kengaytirmoqda. Shuningdek, multimediali vositalar yordamida tashkil etilgan dars mashg’ulotlari ta’lim oluvchilarning mavzuni chuqurroq o’zlashtirishiga, vizual va amaliy tafakkurining rivojlanishiga yordam beradi. Shu sababli raqamli texnologiyalarni pedagogik ta’lim jarayoniga keng joriy etish zamonaviy pedagoglarni tayyorlashning muhim omillaridan biri sifatida namoyon bo’lmoqda.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, innovatsion yondashuv asosida bo’lajak o’qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash bugungi zamonaviy ta’lim tizimining ustuvor yo’nalishlaridan biri hisoblanadi. Tadqiqot davomida innovatsion pedagogik texnologiyalar, raqamli ta’lim muhiti va kompetensiyaviy yondashuv bo’lajak pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim omil ekanligi aniqlandi. Shuningdek, interfaol metodlar va zamonaviy pedagogik texnologiyalar talabalarning mustaqil fikrlashi, kreativ yondashuvi, kommunikativ qobiliyati hamda pedagogik muammolarni samarali hal etish ko’nikmalarini shakllantirishga xizmat qilishi ilmiy jihatdan asoslandi. Tadqiqot natijalari pedagogik ta’lim jarayonini innovatsion asosda tashkil etish bo’lajak o’qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirish, ularning zamonaviy ta’lim talablariga moslashuvchanligini ta’minlash va raqobatbardosh mutaxassis sifatida shakllanishida muhim ahamiyat kasb etishini ko’rsatdi.

Adabiyotlar

1. Mirzayev M.J. Innovatsion yondashuv asosida bo’lajak o’qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash. // Fergana Methodical School, 2025, №2, 60-66-b.
2. Azizxo’jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – Toshkent: O’zbekiston yozuvchilar uyushmasi, 2006.
3. Turdiyeva N.S. Bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchisining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda innovatsion yondashuv. // Образование и инновационные исследования, 2024.
4. Ko’makova D. Bo’lajak o’qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlashda mustaqil ta’limning ahamiyati. // Modern Science and Research, 2024, №1.
5. Qo’qonboyeva D. Bo’lajak pedagoglarni kasbiy faoliyatga yo’naltirishning pedagogik asoslari. // Pedagogy and Psychology in the Modern World, 2024.

**KIMYO FANINI O'QITISHDA SUN'IY INTELLEKTDAN FOYDALANISHNING
PEDAGOGIK ASOSLARI**

Ajjeva Muxabbat Baxtibaevna – *pedagogika fanlari nomzodi, professor*

ajjevamuxabbat7991@gmail.com

Arislanbaeva Nesibeli Nokisbay qizi – *magistrant*

nesibeli0498@gmail.com

Sultonov Dostonbek Qutlimurod o'g'li – *assistent o'qituvchi*

dostonbek84796@gmail.com

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

**ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА
В ПРЕПОДАВАНИИ ХИМИИ**

Ажиева Мухаббат Бахтибаевна – *кандидат педагогических наук, профессор*

Арисланбаева Несибели Нокисбаевна – *магистрант*

Султонов Дастонбек Кутлимуродович – *ассистент преподаватель*

Нукусский государственный педагогический институт имени Ажинияза

**PEDAGOGICAL FOUNDATIONS OF USING ARTIFICIAL INTELLIGENCE
IN TEACHING CHEMISTRY**

Ajjeva Muxabbat Baxtibaevna – *candidate of pedagogical sciences, professor*

Arislanbaeva Nesibeli Nokisbaevna – *master's student*

Sultanov Dostonbek Kutlimurodovich – *assistant teacher*

Nukus State Pedagogical Institute named after Ajiniyaz

Tayanch so'zlar: sun'iy intellekt, oliy ta'lim, kimyo ta'limi, raqamli pedagogika, virtual laboratoriya, adaptiv o'qitish.

Rezyume. Maqolada zamonaviy oliy ta'lim tizimida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning dolzarb masalalari yoritilgan. Xususan, kimyo fanini o'qitish jarayonida sun'iy intellektga asoslangan raqamli vositalarning didaktik imkoniyatlari, ta'lim samaradorligini oshirishdagi ahamiyati hamda bo'lajak kimyo o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishdagi roli ilmiy-nazariy jihatdan tahlil etilgan.

Ключевые слова: искусственный интеллект, высшее образование, химическое образование, цифровая педагогика, виртуальная лаборатория, адаптивное обучение.

Резюме. В статье рассматриваются актуальные вопросы использования технологий искусственного интеллекта в современной системе высшего образования. В частности, научно и теоретически анализируются дидактические возможности цифровых инструментов на основе искусственного интеллекта в процессе преподавания химии, их важность в повышении эффективности обучения и их роль в развитии профессиональных компетенций будущих преподавателей химии.

Key words: artificial intelligence, higher education, chemistry education, digital pedagogy, virtual laboratory, adaptive learning.

Summary. The article discusses the current issues of using artificial intelligence technologies in the modern higher education system. In particular, the didactic capabilities of digital tools based on artificial intelligence in the process of teaching chemistry, their importance in increasing educational efficiency, and their role in developing professional competencies of future chemistry teachers are scientifically and theoretically analyzed.

Kirish. Bugungi kunda jamiyatning raqamli rivojlanishi ta'lim tizimiga ham jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivoji, sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarining turli sohalarga kirib kelishi ta'lim mazmuni va metodikasini qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda. Ayniqsa, oliy ta'lim tizimida bo'lajak mutaxassislarini zamonaviy talablar asosida tayyorlash jarayonida innovatsion yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Sun'iy intellekt (SI) so'nggi yillarda jamiyatning barcha jabhalarida, xususan, ta'lim tizimida keng qo'llanilmoqda. O'qitish va o'rganish jarayonlarini yanada samarali qilish, o'quvchilarga shaxsiylashtirilgan ta'lim berish va o'qituvchilarni qo'llab-quvvatlash uchun sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish o'z ahamiyatini oshirib bormoqda. Pedagogik ta'limga sun'iy intellektning integratsiyasi, o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini oshirish va o'qituvchilar uchun darslarni yanada interaktiv va qiziqarli qilishga imkon yaratadi. Bu maqolada sun'iy intellektning pedagogik ta'limga integratsiyasining ahamiyati, afzalliklari va qo'llanilishi tahlil qilinadi.

Shuningdek, sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'lim tizimida o'quvchilarning bilim olish jarayoniga qanday ta'sir ko'rsatishi, o'qituvchilarning ishlash uslublarini qanday o'zgartirishi va ta'lim sifatini qanday yaxshilash haqida so'z yuritiladi. O'zgaruvchan dunyoda sun'iy intellektning ta'limga kirib kelishi o'quvchilar va o'qituvchilar uchun yangi imkoniyatlarni yaratadi.

Adabiyotlar tahlili. A.Shukurovning so'nggi yillarda sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarining ta'lim tizimiga jadal joriy etilishi pedagogika va ta'lim texnologiyalari sohasida muhim ilmiy tadqiqot yo'nalishiga aylangan. Mavjud ilmiy adabiyotlarda sun'iy intellektning ta'lim jarayonini individuallashtirish, o'quv natijalarini tahlil qilish va ta'lim samaradorligini oshirishdagi imkoniyatlari turli nazariy va amaliy yondashuvlar asosida o'rganilgan [1].

B.G'ofurovning tadqiqotlarida sun'iy intellektning ta'lim tizimidagi roli pedagogik innovatsiyalar nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Uning sun'iy intellektga asoslangan ta'lim modellarining o'quvchilarning individual kognitiv xususiyatlarini hisobga olish orqali moslashuvchan

ta'lim muhitini shakllantirishini asoslaydi. Tadqiqotda adaptiv ta'lim tizimlari, avtomatlashtirilgan baholash va ma'lumotlarga asoslangan pedagogik qarorlar qabul qilish mexanizmlari ilmiy jihatdan tahlil qilingan bo'lib, ushbu ish sun'iy intellektning ta'limdagi nazariy-metodologik asoslarini belgilab beradi [2].

Pedagogik texnologiyalar va sun'iy intellektning integratsiyasini tizimli yondashuv asosida ko'rib chiqadi. Muallif raqamli ta'lim muhitlari, aqlli o'quv tizimlari va sun'iy intellektga asoslangan platformalarning didaktik imkoniyatlarini tahlil qilib, ularning ta'lim jarayonidagi samaradorligini oshirishdagi rolini asoslaydi. Tadqiqotda sun'iy intellekt texnologiyalarini pedagogik texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish ta'lim jarayonining innovatsion rivojlanish omili sifatida talqin etiladi.

I.Tursunov tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda sun'iy intellektidan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari bilan bir qatorda, uni joriy etish jarayonida yuzaga keladigan muammolar ham tahlil qilingan. Muallif texnik infratuzilmaning yetarli emasligi, pedagoglarning raqamli kompetensiyalarining pastligi va metodik ta'minotdagi kamchiliklarni asosiy cheklovchi omillar sifatida ko'rsatadi. Ushbu tadqiqot sun'iy intellektni ta'lim tizimiga joriy etishda kompleks yondashuv va bosqichma-bosqich implementatsiya zarurligini asoslab beradi [3].

P.Jones va R.Smithlarning tadqiqotlari sun'iy intellektni ta'limdagi istiqbolli innovatsion yo'nalish sifatida baholaydi. Mualliflar sun'iy intellektga asoslangan ta'lim tizimlari o'quvchilarning mustaqil o'rganish ko'nikmalarini rivojlantirishini, shuningdek, o'qituvchilarning analitik va strategik faoliyatini kuchaytirishini ta'kidlaydi. Ushbu tadqiqot xalqaro tajribani umumlashtirish va uni milliy ta'lim tizimiga moslashtirish uchun muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi [4].

Pedagogika ta'lim tizimining asosiy maqsadi – o'quvchilarga bilim berish va ularni yoshadagi real dunyoga tayyorlashdir. Sun'iy intellekt bu jarayonni yanada samarali qilishga yordam beradi. Sun'iy intellekt yordamida o'qituvchilar o'quvchilarning individual ehtiyojlarini, qobiliyatlarini va o'rganish sur'atini hisobga olgan holda darslarni yanada shaxsiylashtirilgan tarzda o'tkazishlari mumkin. Misol uchun, sun'iy intellekt asosida ishlab chiqilgan ta'lim tizimlari o'quvchilarning muvaffaqiyatini tahlil qilish va o'qish jarayonidagi qiyinchiliklarni aniqlash imkonini beradi, shuningdek, ular uchun maxsus resurslar va qo'llanmalar taklif etadi. Bundan tashqari, sun'iy intellekt o'quv jarayonini avtomatlashtirishga yordam beradi. Masalan, sun'iy intellekt yordamida darslarni tayyorlash, testlarni baholash, o'quvchilarning xatolarini aniqlash va tuzatish ishlarini avtomatik ravishda bajarish mumkin. Bu o'qituvchilarga ko'proq vaqt va resurslarni o'quvchilarning shaxsiy ehtiyojlariga yo'naltirish imkonini beradi.

Kimyo fani oliy ta'lim tizimida murakkab nazariy tushunchalar, matematik hisob-kitoblar va tajribaviy faoliyatni o'z ichiga olgan fanlardan biri hisoblanadi. Shu sababli kimyo fanini o'qitishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish o'quv jarayonini samarali tashkil etish, talabalar bilimini chuqurlashtirish va amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Sun'iy intellektning pedagogik ta'limda qo'llanilishi. Sun'iy intellekt asosidagi ta'lim tizimlari o'quvchilarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olishga yordam beradi.

Masalan, o'quvchilarning bilim darajasi, o'rganish uslublari va qobiliyatlariga qarab darslar va mashg'ulotlar individual ravishda moslashtiriladi. Bu usul orqali o'quvchilar o'zlarining o'quv jarayonlarini yanada samarali boshqarishlari mumkin. O'qituvchi esa o'quvchilarni umumiy ravishda baholashdan ko'ra, har birining o'ziga xos ehtiyojlarini tushunishga erishadi. Sun'iy intellekt yordamida yaratilgan virtual o'qituvchilar va yordamchilar ta'lim jarayonini yanada interaktiv va qiziqarli qiladi. Masalan, virtual o'qituvchilar o'quvchilarga real vaqt rejimida yordam berishlari, savollarga javob berishlari va ularni turli mavzularda o'qitishlari mumkin. Bu o'qituvchilar har bir o'quvchining o'ziga xos ehtiyojlariga javob berish uchun tayyorlangan va o'quvchilarga ta'limni interaktiv tarzda taqdim etadi. Sun'iy intellekt orqali ta'lim dasturlari va resurslarining samaradorligi optimallashtiriladi. O'qituvchilar o'quvchilarning muvaffaqiyatlarini tahlil qilish uchun sun'iy intellekt tizimlaridan foydalanishlari mumkin. Bu tizimlar o'quvchilarning qaysi mavzularni qiyinlashtirayotganini aniqlash va ularga individual yordam berish imkonini beradi. O'qituvchi o'z darslarini shaxsiylashtirgan holda yanada samarali ta'lim berishga erishadi. Sun'iy intellekt yordamida o'quvchilar uchun o'yinlar, interaktiv mashqlar va simulyatsiyalar yaratish mumkin. Bu o'quvchilarga o'rganish jarayonini qiziqarli va o'zaro bog'liq qilib taqdim etadi. O'quvchilar o'zlarini mashqlarni bajarishda erkin his qilishadi va o'qish jarayoniga yanada ko'proq qiziqish bilan yondashadilar. Shuningdek, sun'iy intellekt yordamida tayyorlangan o'quv vositalari ularning muvaffaqiyatlarini tahlil qilib, shaxsiy rag'batlantirish tizimlarini ishlab chiqadi.

Sun'iy intellektning pedagogik ta'limdagi afzalliklari. Sun'iy intellekt yordamida darslarni tayyorlash, baholash, individual yordam ko'rsatish kabi jarayonlarni avtomatlashtirish mumkin. Bu o'qituvchilarga o'z vaqtlarini samarali taqsimlashga yordam beradi va o'quvchilarga ko'proq shaxsiy e'tibor qaratishga imkon yaratadi. Sun'iy intellekt yordamida o'quvchilarga yanada keng qamrovli ta'lim resurslari taqdim etish mumkin. Masalan, turli xil o'qituvchilar va ekspertlardan olingan videolar, interaktiv mashqlar, simulyatsiyalar va boshqalar orqali ta'lim sifatini oshirish mumkin. O'quvchilar bu resurslardan istalgan vaqtda foydalanishlari mumkin, bu esa ularning mustaqil o'rganish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Sun'iy intellekt o'quvchilarning o'rganish jarayonini tahlil qilish va ularni yanada samarali qilish imkoniyatlarini yaratadi. Misol uchun, sun'iy intellekt o'quvchilarning muvaffaqiyatlarini monitoring qilish va xatolarni aniqlash orqali ta'lim jarayonini optimallashtiradi. Bu esa o'qituvchilarga o'quvchilarning zaif tomonlarini aniqlash va o'z vaqtda yordam ko'rsatishga imkon beradi.

Sun'iy intellektning pedagogik ta'limga integratsiyasining kelajagi. Sun'iy intellektning ta'lim tizimiga integratsiyasi doimiy ravishda rivojlanib bormoqda. Kelajakda sun'iy intellektning imkoniyatlari yanada kengayib, o'quvchilarga o'zlariga moslashtirilgan, innovatsion va samarali ta'lim berish imkoniyatlari yanada ko'payadi. Shuningdek, sun'iy intellekt orqali o'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasidagi interaktiv aloqalar yanada kuchayadi, bu esa ta'lim jarayonini yanada samarali va qiziqarli qiladi. Pedagogik ta'limda sun'iy intellektning qo'llanilishi nafaqat o'quvchilarning bilim olish jarayonini

samarali qiladi, balki o'qituvchilarga ham o'z ishini innovatsion tarzda bajarish imkoniyatini yaratadi. Sun'iy intellektni ta'limga integratsiya qilish orqali biz kelajakda ta'lim tizimining yangi va samarali shakllarini yaratish imkoniyatiga ega bo'lamiz.

Sun'iy intellektning pedagogik ta'limga integratsiyasi ta'lim jarayonini yangi, interaktiv va samarali shaklda tashkil etishga yordam beradi. Bu innovatsion texnologiyalar o'qituvchilarga bilim olishda shaxsiylashtirilgan yondashuvni taqdim etadi, o'qituvchilarga esa o'z vaqtlarini samarali boshqarish imkoniyatini yaratadi. Shu bilan birga, sun'iy intellektning pedagogik ta'limga integratsiyasi kelajakda ta'lim tizimining yanada mukammal va samarali bo'lishiga zamin yaratadi.

Sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'limdagi nazariy asoslari. Sun'iy intellekt deganda, kompyuter tizimlarining inson tafakkuriga xos bo'lgan tahlil qilish, mantiqiy xulosa chiqarish va o'rganish jarayonlarini amalga oshirish qobiliyati tushuniladi. Ta'lim sohasida sun'iy intellekt texnologiyalari quyidagi vazifalarni bajarishga imkon yaratadi:

- talabalar bilim darajasi va o'zlashtirish tezligini tahlil qilish;
- individual o'quv trajektoriyalarini shakllantirish;
- murakkab mavzularni vizual va interaktiv tarzda tushuntirish;
- bilimlarni baholash va monitoring qilish jarayonini avtomatlashtirish.

Ushbu imkoniyatlar oliy ta'limda ta'lim sifatini oshirish va talabalar mustaqil ta'lim olish faoliyatini rivojlantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Virtual laboratoriyalar va simulyatsiyalar. Kimyo fanida laboratoriya mashg'ulotlari alohida o'rin tutadi. Biroq ayrim tajribalar xavfli, qimmat yoki murakkab bo'lgani sababli ularni real sharoitda bajarish cheklangan bo'lishi mumkin. Sun'iy intellektga asoslangan virtual laboratoriyalar bu muammoni samarali hal etadi.

Virtual laboratoriyalar yordamida talabalar:

- kimyoviy reaksiyalar mexanizmini vizual tarzda kuzatadilar;
- tajribalarni xavfsiz muhitda takror-takror bajarish imkoniyatiga ega bo'ladilar;
- nazariy bilimlarni amaliyot bilan mustahkamlaydilar.

Adaptiv ta'lim tizimlari. Sun'iy intellekt asosida ishlovchi adaptiv ta'lim tizimlari talabalar bilim darajasini tahlil qilib, ularga mos o'quv materiallarini taqdim etadi.

Adabiyotlar

1. Shukurov A. Sun'iy intellekt va ta'lim: zamonaviy yondashuvlar. – Tashkent: «O'qituvchi», 2020.
2. G'ofurov B. Pedagogik texnologiyalar va sun'iy intellektning integratsiyasi. – Toshkent: «Fan va texnologiya». 2021.
3. Tursunov I. O'qitishda sun'iy intellektidan foydalanish: imkoniyatlar va qiyinchiliklar. // Ta'lim va innovatsiya. 5(2), 2019. 122-134-b.
4. Jones P., Smith R. AI in Education: A new frontier in teaching and learning. // Journal of Educational Technology. 14(3), 2020. – P. 45-60.

Masalan, kimyoviy tenglamalarni tuzishda qiynalayotgan talaba uchun qo'shimcha tushuntirishlar, misollar va mashqlar taklif etiladi.

Bu yondashuv:

- individual yondashuvni ta'minlaydi;
- talabalar o'zlashtirish darajasini oshiradi;
- mustaqil ta'limni qo'llab-quvvatlaydi.

Aqli yordamchi dasturlar va chatbotlar. Oliy ta'limda kimyo fanini o'qitishda sun'iy intellekt asosidagi aqli yordamchilar muhim ahamiyatga ega. Bunday dasturlar talabalar savollariga tezkor javob berib, ularning o'quv jarayoniga bo'lgan qiziqishini oshiradi.

Chatbotlar:

- kimyoviy tushunchalarni izohlab beradi;
- formulalar va reaksiyalar bo'yicha maslahatlar beradi;
- mustaqil ta'lim jarayonini samarali tashkil etishga yordam beradi.

Bo'lajak kimyo o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda sun'iy intellekt. Pedagogika institutlarida tahsil olayotgan magistrantlar uchun sun'iy intellekt texnologiyalarini o'rganish va amaliyotda qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayon:

- zamonaviy pedagogik fikrlashni shakllantiradi;
- raqamli pedagogika ko'nikmalarini rivojlantiradi;
- ilmiy-tadqiqot faoliyatini samarali tashkil etishga yordam beradi.

Natijada, bo'lajak kimyo o'qituvchilari zamonaviy ta'lim muhitida raqobatbardosh mutaxassis sifatida shakllanadi.

Muammolar va rivojlanish istiqbollari

Sun'iy intellekt texnologiyalarini oliy ta'limda joriy etishda quyidagi muammolar mavjud:

- pedagoglarning raqamli kompetensiyalarining yetarli emasligi;
- texnik infratuzilmaning cheklanganligi;
- axborot xavfsizligi masalalari.

Shunga qaramay, sun'iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi kelajakda kimyo ta'limida yanada keng imkoniyatlar yaratishi kutilmoqda.

Xulosa. Sun'iy intellekt texnologiyalari oliy ta'lim muassasalarida kimyo fanini o'qitish jarayonini takomillashtirishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu texnologiyalar ta'lim samaradorligini oshirish, talabalar bilimni chuqurlashtirish va bo'lajak kimyo o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

**OG'IR NUTQ NUQSONLI BOLALAR BILAN KORREKSION PEDAGOGIK
ISHLARNI TASHKIL ETISH**

Allamberganova Muxabbat Xasanbaevna – *pedagogika fanlari doktori (DSc)*

muxabbat1174@gmail.com

Sultanova Jasmina Kuatbay qızı – *talaba*

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

**ОРГАНИЗАЦИЯ КОРРЕКЦИОННО-ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ РАБОТЫ
С ДЕТЬМИ С ТЯЖЕЛЫМИ РЕЧЕВЫМИ ПРОБЛЕМАМИ**

Алламбергенова Мухаббат Хасанбаевна – *доктор педагогических наук (DSc)*

Султанова Жасмина Куатбаевна – *студент*

Нукусский государственный педагогический институт имени Ажинияза

**ORGANIZATION OF CORRECTION PEDAGOGICAL WORK WITH CHILDREN
WITH SEVERE SPEECH DEFECTS**

Allamberganova Mukhabbat Khasanbayevna – *Doctor of Pedagogical Sciences (DSc)*

Sultanova Jasmina Kuatbayevna – *student*

Nukus State Pedagogical Institute named after Ajiniyaz

Tayanch soʻzlar: dizartriya, alaliya, ogʻir nutq nuqsonlari, korreksion metodika, konseptual metafora, neyrolingvistika, inklyuziv taʼlim.

Rezyume. Maqolada zamonaviy maxsus pedagogika va logopediyaning dolzarb muammolaridan biri – nutq ontogenezining ogʻir patologik shakllari boʻlgan dizartriya va alaliyani bartaraf etishning innovatsion hamda kompleks usullari tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi neyrolingvistik, neyropsixologik (Luriya LOK tizimi) va pedagogik yondashuvlarni integratsiyalash orqali ushbu nutqiy nuqsonlarni korreksiyalashning samarali mexanizmlarini ishlab chiqishdan iborat. Maqolada dizartriyaning neyromotor tabiati va alaliyaning kognitiv-lingvistik xususiyatlari qiyosiy oʻrganilib, ierarxik kompensatsiya va sistemali til qurilishi modellari taklif etilgan.

Ключевые слова: дизартрия, алалия, тяжелые нарушения речи, коррекционная методика, концептуальная метафора, нейролингвистика, инклюзивное образование.

Резюме. В статье анализируются инновационные и комплексные методы преодоления дизартрии и алалии – тяжелых патологических форм речевого онтогенеза, являющихся одной из актуальных проблем современной специальной педагогики и логопедии. Основная цель исследования заключается в разработке эффективных механизмов коррекции данных речевых нарушений путем интеграции нейролингвистического, нейропсихологического (система ЛОК Лурии) и педагогического подходов. В статье проводится сравнительный анализ нейромоторной природы дизартрии и когнитивно-лингвистических особенностей алалии, а также предлагаются модели иерархической компенсации и системного конструирования языка.

Key words: dysarthria, alalia, severe speech defects, correctional methodology, conceptual metaphor, neurolinguistics, inclusive education.

Summary. The article analyzes innovative and comprehensive methods for overcoming dysarthria and alalia, which are severe pathological forms of speech ontogenesis and represent critical issues in modern special education and speech therapy. The primary objective of the study is to develop effective mechanisms for correcting speech disorders by integrating neurolinguistic, neuropsychological (Luria's LOK system), and pedagogical approaches. The paper provides a comparative analysis of the neuromotor nature of dysarthria and the cognitive-linguistic features of alalia, proposing models for hierarchical compensation and systematic language construction.

Kirish. Zamonaviy maxsus pedagogika va logopediyaning dolzarb muammolaridan biri – nutq ontogenezining ogʻir patologik shakllari boʻlgan dizartriya va alaliyani bartaraf etishning innovatsion usullarini shakllantirishdir. Ushbu nuqsonlar nafaqat verbal muloqotni cheklaydi, balki bolaning kognitiv rivojlanishi, ijtimoiy moslashuvi va shaxsiyat shakllanishiga toʻsqinlik qiluvchi fundamental omillar hisoblanadi. Dizartriya termini grekcha soʻzdan olingan boʻlib, **dis** – boʻlak, arthon – birlashtirish degan maʼnoni bildiradi [1].

Dizartriya – bu nutq apparatining (til, lab, tanglay) innervatsiyasi buzilishi natijasida kelib chiqadigan nuqson. Bunda bola nutq tovushlarini talaffuz qilishda qiynaladi, chunki mushaklar sust, falajlangan yoki haddan tashqari tarang boʻladi. Nutqning tushunarsizligi ("ogʻizda boʻtqa bordek" gapirish), nafas olish va ovozning zaifligi – bular asosiy belgilari hisoblanadi [5].

Tadqiqotning maqsadi neyrolingvistik va pedagogik yondashuvlarni integratsiyalash orqali nutqiy nuqsonlarni korreksiyalashning samarali mexanizmlarini ishlab chiqishdir. Maqolada artikulyatsion motorika, fonematik idrok va tizimli til komponentlarini rivojlantirishga qaratilgan kompleks metodika tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatadiki, individual differensial yondashuv va sensor-motor integratsiyadan foydalanish bolalarning kommunikativ kompetensiyalarini sezilarli darajada oshiradi.

Alaliya – bolaning ona qornida yoki dastlabki rivojlanish bosqichida nutq shakllanishiga qadar bosh miya qobigʻi nutq doirasining organik jarohatlanishi oqibatida uzluksiz rivojlanmay qolishdir [1].

Alaliyaning ikki koʻrinishi bor: **motor alaliya:** Bola gapni tushunadi, lekin gapira olmaydi va **sensor alaliya:** Bola tovushlarni eshitadi, lekin soʻzlarning maʼnosini tushunmaydi (xuddi chet tilini eshitgandek). Hozirgi vaqtda

dunyo miqyosida nutq nuqsonlari bor bolalar soni ortib bormoqda. Buni mutaxassislar ekologiya, diagnostika usullarining yaxshilangani va texnogen omillar bilan izohlashmoqda.

Nutq nuqsonlarini o'rganishda "axloqiy va pedagogik konseptlar" tizimi muhim ahamiyatga ega. Bolaning til o'rganish jarayoni faqatgina tovushlar talaffuzi bilan cheklanib qolmay, balki tilning leksik-semantik qatlamidagi ijtimoiy-axloqiy normalarni o'zlashtirishni ham qamrab oladi [2]. Dizartriya (nutq apparati innervatsiyasining buzilishi) va alaliya (nutq markazlarining organik shikastlanishi natijasida nutqning shakllanmaganligi) o'rtasidagi differensial tahlil metodikani to'g'ri tanlash uchun xizmat qiladi. Ushbu ikki patologiyani qiyosiy o'rganish va ularga xos korreksion strategiyalarni ishlab chiqish, defektologiya sohasiga nafaqat klinik, balki chuqur lingvistik va gumanistik hissa qo'shadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Ushbu tadqiqot Konseptual Metafora Nazariyasi (Conceptual Metaphor Theory – J.Lakoff, M.Johnson) va Neyropsixologik LOK tizimi (Luria's Organization of Cognitive processes) tamoyillariga tayanadi. Konseptual metafora nazariyasi nutqi rivojlanmagan bolalarda mavhum axloqiy tushunchalarni (yaxshilik, yomonlik, burch, do'stlik) aniq sensor obrazlar orqali shakllantirishda metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Natijalar. Dizartriya va alaliya o'rtasidagi farqlarni tushunish, nafaqat nutq nuqsonini aniqlashda, balki samarali reabilitatsiya strategiyasini tuzishda ham juda muhimdir. Biz keltirgan nazariy modellar – ierarxik funksionatsiya va sistemali til qurilishi – logopediyaning fundamental asoslari hisoblanadi.

Ierarxik kompensatsiya modeli – Ushbu model "miyaning plastikligi" tamoyiliga tayanadi. Agar nutqning eshituv-motor zanjiri buzilgan bo'lsa (masalan, dizartriya artikulyatsiya apparati bo'ysunmasa), miya boshqa sog'lom kanallar orqali ma'lumot qabul qilishga o'tadi.

Vizualizatsiya (Ko'rish): Bemorga tovushning artikulyatsiyasi (lab va til holati) maxsus sxemalar, oynalar yoki kompyuter dasturlari orqali ko'rsatiladi. Bu "ko'raman va takrorlayman" tamoyili.

Taktik-kinestetik sezgi: Nutq terapevti maxsus zondlar yoki qo'l yordamida tilning to'g'ri nuqtasini topishga yordam beradi. Bola tovushni nafaqat eshitadi, balki uni jismonan his qiladi.

Ritmo-fonetika: Nutqni harakat yoki musiqiy ritm bilan bog'lash. Bu, ayniqsa, dizartriya koordinatsiya muammolarini yengishda yordam beradi.

Muhokama. Sistemali til qurilishi (Alaliyada asosiy strategiya)-Alaliyada muammo ijroda emas, balki "miyadagi til kodida". Shuning uchun til noldan, xuddi murakkab arxitektura kabi quriladi:

Leksik poydevor: Avval eng oddiy, hayotiy zarur so'zlar (otlar va fe'llar) o'rgatiladi.

Sintaktik dasturlash: So'zlarni biriktirib, oddiy iboralar ("Oyi, ber", "Suv ichaman") hosil qilish mexanizmi shakllantiriladi.

Grammatik modellashtirish: Kelishiklar, zamonlar va shaxs-son qo'shimchalari bosqichma-bosqich tizimga kiritiladi. Bu jarayon L.S.Vigotskiyning "IQ rivojlanish zonasi" nazariyasiga mos keladi.

Kognitiv-axloqiy paradigma: Nutq o'qitish jarayonini ijtimoiy-madaniy kontekst bilan bog'lash, ya'ni til

birliklarini axloqiy kategoriyalar (metaforalar) orqali tushuntirish. Nutq nuqsonlarini bartaraf etish jarayoni faqatgina mexanik mashqlar majmuasi emas, balki bolaning neyrofiziologik imkoniyatlari va ruhiy dunyosini qayta tiklashga qaratilgan murakkab tizimdir. Dizartriya va alaliya o'zining kelib chiqish mexanizmiga ko'ra tubdan farq qilgani bois, ularga nisbatan qo'llaniladigan pedagogik yondashuvlar ham o'ziga xosdir.

Dizartriya: Neyromotor apparatni reabilitatsiya qilish

Dizartriya asosiy muammo – miyadan nutq mushaklariga boruvchi impulslarning buzilishidir. Shu bois, bu yerda "tashqi ta'sir orqali ichki natijaga erishish" tamoyili ustuvorlik qiladi.

- **Mushaklar sensorikasini uyg'otish:** Logopedik massaj nafaqat mushaklarni bo'shashtirish (yoki tonusga keltirish), balki miyaga "teskari aloqa" yuborish vazifasini ham o'taydi. Bu jarayonda **Zondli massaj** usullari artikulyatsion a'zolarining kinetik sezuvchanligini oshiradi.

- **Fonatsiya va nafas sinxronizatsiyasi:** Dizartriya nutq nafasi qisqa va tartibsiz bo'ladi. Korreksiya jarayonida "Strelnikova nafasi" yoki maxsus o'yinli mashqlar orqali diafragmal nafas olish shakllantiriladi. Bu esa nutqning barqaror ritmi va melodikasini (prosodikasini) ta'minlaydi.

- **Integratsiyalashgan fonetik terapiya:** Tovushlarni avtomatlashtirish bosqichida oddiy so'zlardan axloqiy-estetik mazmunga ega matnlarga o'tish samarali hisoblanadi. Masalan, "yaxshilik", "ko'mak", "do'stlik" tushunchalari orqali bola ham talaffuzini **to'g'rilaydi, ham jamiyatdagi ijtimoiy rollarni anglay boshlaydi.**

Alaliya: Nutq tizimini "noldan" modellashtirish

Alaliya – bu tildagi ramzlar va ma'nolar zanjirining uzilib qolishi yoki umuman shakllanmaganligidir. Agar dizartriya "asbob (nutq apparati) buzuq" bo'lsa, alaliyada "dastur (miya markazi) ishlamaydi" [5].

- **Kommunikativ impulsni shakllantirish:** Alaliyaning motor shaklida bola gapirishni istamasligi ("nutqiy negativizm") mumkin. Shuning uchun pedagogik yondashuv bolaning ehtiyojlariga (o'yinchoq, yegulik, qiziqish) asoslangan vaziyatlarni sun'iy yaratish orqali muloqotga turtki beradi.

- **Vizual-kognitiv tayanchni yaratish:** Alalik bolalar uchun so'z – bu shunchaki havodagi tovush. Uni moddiylashtirish uchun **Piktogrammalar va ramziy kartochkalar** tizimidan foydalaniladi. Bola harakatni yoki predmetni ko'z bilan ko'rib, so'ng uni tovush bilan bog'laydi (vizual semantika) [4].

Muhokama: Axloqiy tushunchalar va tilning o'zaro bog'liqligi

Og'ir nutq nuqsonlari bor bolalar bilan ishlashda "axloqiy tushunchalar" tili (ethical discourse) muhim vositadir. Masalan, o'zbek va boshqa tillar qiyoslanganda, nutqiy etiket va hurmat kategoriyalari alohida grammatik shakllarga ega ekanligi ko'rinadi. Alaliya bor bolaga "Siz" va "Sen" tushunchasini o'rgatish faqat grammatika emas, balki ijtimoiy ierarxiya va axloqiy metaforani tushunishni talab qiladi. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, lingvistik materialni axloqiy qadriyatlar bilan bog'lab o'rgatish, bolaning ijtimoiy motivatsiyasini kuchaytiradi va reabilitatsiya muddatini 20-25% ga qisqartiradi.

Xulosa. Dizartriya va alaliya bilan og'rikan bolalar bilan ishlash metodikasi kompleks, ko'p tarmoqli (multidistsiplinar) xarakterga ega bo'lishi shart. O'tkazilgan

tahlillar quyidagi xulosalarni chiqarish imkonini beradi: Dizartriyada asosiy urg'u neyromotor rehabilitatsiyaga berilsa, alaliyada kognitiv-lingvistik strukturani shakllantirishga qaratiladi [3].

Konseptual metafora va axloqiy konseptlardan foydalanish, bolaning lug'at boyligini nafaqat miqdoran, balki sifat jihatidan (mavhum tafakkur darajasida) boyitadi. Pedagogik implikatsiya: Inklyuziv ta'lim sharoitida ushbu

bolalar uchun individual ta'lim trayektoriyasini ishlab chiqishda ularning nafaqat nutqiy, balki psixoemotsional va axloqiy rivojlanish darajasi inobatga olinishi lozim.

Ushbu metodologik yondashuv, nutq patologiyasini shunchaki mexanik nuqson emas, balki shaxs rivojlanishining murakkab tizimli buzilishi sifatida ko'rib chiqish orqali yuqori ilmiy va amaliy samaradorlikka erishishni kafolatlaydi.

Adabiyotlar

1. Ayupova M.Y. Logopediya. Darslik. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2007.
2. Allamberganova M., Tayrova Z. Bolalar serebral falajida yuzaga keladigan nutq buzilishlarining o'ziga xos tomonlari va ularni bartaraf etish. // Multidisciplinary Journal of Science and Technology, №6, 27/ 2025.
3. Muminova L.R., Ayupova M.Y. Logopediya (maxsus kurs). – Toshkent: Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti, 2005.
4. Выготский Л.С. Мышление и речь. – Москва: «Педагогика», 1982.
5. Лурия А.Р. Основы нейропсихологии. – Москва: «Академия», 2003.

**TA'LIM JARAYONIDA NOVERBAL VOSITALARNI INTEGRATSIYALASHNING
NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI**

Allanazarova Feruza Karimberdievna – *filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent*
allanazarova1988@mail.ru

Xojanazarova Guljan Bahadirovna – *magistrant*
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

**ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИНТЕГРАЦИИ НЕВЕРБАЛЬНЫХ
СРЕДСТВ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЙ ПРОЦЕСС**

Аллазарова Феруза Каримбердиевна – *доктор философии по филологическим наукам, доцент*
Хожаназарова Гулжан Бахадировна – *магистрант*

Нукусский государственный педагогический институт имени Ажинияза

**THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF INTEGRATING
NON-VERBAL MEANS INTO THE EDUCATIONAL PROCESS**

Allanazarova Feruza Karimberdievna – *Doctor of philosophy in Philological sciences, Associate Professor*

Xojanazarova Guljan Bahadirovna – *master student*
Nukus state pedagogical institute named after Ajiniyaz

Tayanch so'zlar: nutq, noverbal vosita, kommunikatsiya, muloqot, mimika, jest, signal, tana holati, qarash, proksemika, kronemika, paralingvistik vositalar.

Rezyume. Maqolada ta'lim jarayonida noverbal vositalarni integratsiya qilish nazariyasi ham tahlil qilindi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, verbal va noverbal elementlarni uyg'unlashtirish o'quvchilarning axborotni tushunish darajasini oshiradi, interaktiv faoliyatni rivojlantiradi va pedagogik maqsadlarga erishishda muhim vosita hisoblanadi. Noverbal vositalarni dars jarayoniga samarali integratsiya qilish uchun o'qituvchi ko'z bilan muloqot, imo-ishora, pantomima va proxemik elementlarni maqsadli va tizimli tarzda qo'llashi lozim.

Ключевые слова: речь, невербальные средства, коммуникация, диалог, выражение лица, жест, сигнал, положение тела, взгляд, проксемика, хронемика, паралингвистические средства.

Резюме. В статье также анализируется теория интеграции невербальных средств в образовательный процесс. Исследования показали, что сочетание вербальных и невербальных элементов повышает уровень понимания информации учащимися, развивает интерактивную активность и является важным инструментом достижения педагогических целей. Для эффективной интеграции невербальных средств в учебный процесс преподаватель должен целенаправленно и систематически использовать зрительный контакт, жесты, пантомиму и проксемикальные элементы.

Key words: speech, nonverbal means, communication, dialogue, facial expressions, gesture, signal, body position, gaze, proxemics, chronemics, paralinguistic means

Summary. The article also analyzes the theory of integrating nonverbal means in the educational process. Studies have shown that combining verbal and nonverbal elements increases the level of understanding of information by students, develops interactive activity and is an important tool in achieving pedagogical goals. In order to effectively integrate nonverbal means into the teaching process, the teacher should use eye contact, gestures, pantomime and proxemic elements in a purposeful and systematic manner.

Kirish. Zamonaviy pedagogikada ta'lim jarayoni nafaqat nutqiy, balki keng qamrovli kommunikativ faoliyat sifatida talqin qilinadi. Bu jarayonda noverbal vositalar muhim rol o'ynab, ular o'qituvchi va talaba o'rtasidagi axborot almashinuvi, emotsional aloqaning shakllanishi hamda o'quv faoliyatini boshqarishda bevosita ishtirok etadi. Noverbal kommunikatsiya tushunchasi odatda mimika, jest, tana holati, qarash, proksemika va paralingvistik xususiyatlarni o'z ichiga olgan nutqsiz belgilar tizimi sifatida izohlanadi. Ilmiy adabiyotlarda qayd etilishicha, muloqot jarayonida uzatilayotgan ma'lumotning sezilarli qismi aynan shu belgilar orqali yetkaziladi, bu esa ularni ta'lim jarayonida alohida o'rganish zarurligini ko'rsatadi.

Chet tilini o'qitish kontekstida noverbal vositalarning ahamiyati yanada ortadi, chunki til o'rganayotgan talaba ko'pincha nutqiy vositalar yetarli bo'lmagan vaziyatda qoladi. Masalan, ingliz tilini yangi o'rganayotgan talabaga "open your books" ko'rsatmasi berilganda, o'qituvchining qo'li bilan kitob ochish harakatini ko'rsatishi topshiriqni tezroq va aniqroq tushunishga yordam beradi. Bu holatda

jest nutqiy buyruqning semantik aniqligini ta'minlovchi vosita sifatida xizmat qiladi.

Asosiy qism. Kommunikatsiya ikki yoki undan ortiq shaxs o'rtasida axborot, g'oya, fikr yoki his-tuyg'ular almashinuvi jarayonidir. Ushbu jarayonda yuboruvchi (kommunikator) ma'lum bir xabarni vosita orqali qabul qiluvchiga (kommunikant) yetkazadi. Kommunikatsiyaning asosiy maqsadi – jarayonda ishtirok etayotgan tomonlar o'rtasida o'zaro tushunish va tushunilishdir. Umumiy kommunikatsiya og'zaki va noverbal kommunikatsiyani o'z ichiga oladi, bu esa so'zlovchi va tinglovchiga xabarni to'g'ri anglash imkonini beradi.

Og'zaki va noverbal kommunikatsiya kommunikatsiyaning ikki xil shakli bo'lib, og'zaki kommunikatsiya nutqiy til orqali amalga oshiriladi, noverbal kommunikatsiya esa nutqsiz xulq-atvor vositalari orqali ifodalanadi [2]. Shunday qilib, og'zaki kommunikatsiya og'zaki va yozma so'zlarni o'z ichiga olsa, noverbal kommunikatsiya tana holati, jestlar, yuz ifodalari va tashqi ko'rinish kabi nutqsiz belgilar orqali namoyon bo'ladi.

Kommunikatsiya – bu g'oyalarni yaratish va ulashish jarayoni hamda san'ati bo'lib, u insonlarning fikrlari, ularni qayta ishlashi va o'z istagan xabarlarini ifodalash jarayonlarini qamrab oladi. Noverbal kommunikatsiya ko'pincha og'zaki xabarlarga qo'shimcha kontekst va nozik ma'no beradi, shu sababli u turli kommunikativ vaziyatlarda muhim ahamiyat kasb etadi. Odamlar ko'pincha noverbal signallarni anglamagan holda o'qiydi va ularga javob qaytaradi, shuning uchun noverbal kommunikatsiyani tushunish umumiy kommunikativ ko'nikmalarni yaxshilashga yordam beradi.

J.Xuning ta'kidlashicha, noverbal kommunikatsiya so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi so'zsiz o'zaro ta'sirni belgilar va ramzlar orqali amalga oshiradi hamda bu yuzma-yuz muloqot jarayonida noverbal belgilar qanchalik muhim ekanini ko'rsatadi [5].

Noverbal kommunikatsiyaning asosiy komponentlaridan biri hisoblangan kinesika, ya'ni tana harakatlari va jestlar tizimi, pedagogik muloqotning samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Dars jarayonida o'qituvchi savol berganidan so'ng ma'lum bir talabaga qarab, qo'li bilan uni ko'rsatishi orqali navbatni belgilaydi. Bunday vaziyatda hech qanday qo'shimcha nutqiy izohsiz ham talabalar kim javob berishi kerakligini tushunib yetadilar. Bu esa dars vaqtini tejash bilan birga, muloqotning tartibli tashkil etilishiga yordam beradi.

Noverbal kommunikatsiya – bu so'z ishlatmasdan axborot almashishni o'z ichiga olgan kommunikatsiya shaklidir. U turli elementlarni o'z ichiga oladi, bu esa og'zaki kommunikatsiyadan ko'ra kuchliroq xabar etkazishga, qo'shimcha kontekst va nozik ma'no berishga imkon yaratadi. Y.A.Leening ta'kidlashicha, noverbal kommunikatsiya – bu nutqsiz xabarlar almashinuvidir [3]. Bu asosan so'zlovchining tana tili, jumladan, jestlar, tana harakatlari, holat, tovush ohangi va yuz ifodalari orqali namoyon bo'ladi.

Bundan tashqari, noverbal kommunikatsiya og'zaki so'zlarni takrorlash, to'ldirish, o'rnini bosish yoki ma'lum so'zlarni ta'kidlash vazifasini bajaradi. Canale & Swain fikricha, kommunikatsiya barcha insoniy muloqotning asosidir va axborot almashishda muhim ahamiyatga ega [1].

Inson tanasining turli harakatlari noverbal signal sifatida ishlatilishi mumkin, ammo bu yerda ko'plab shaxslar tomonidan ishlatiladigan asosiy harakatlar keltiriladi. Masalan, jestlar ko'pincha noverbal kommunikatsiyada signal vazifasini bajaradi. Noverbal kommunikatsiya silliq va samarali muloqot uchun juda muhimdir. Shu bilan birga, noverbal kommunikatsiya kiyim-kechak va ramzlar kabi obyekt orqali ham amalga oshadi; shuningdek, mebel, yoritish, ranglar, harorat, shovqin va musiqa kabi jismoniy muhit ham muloqot davomida qatnashuvchilarning xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatadi.

Jest – bu ma'lum xabarni ifodalashga mo'ljallangan tana, bosh, qo'l va oyoq harakati hisoblanadi. Jestlar kommunikatsiyada muhim ahamiyatga ega, chunki ular og'zaki tilning o'rnini bosishi yoki ta'ldirishi mumkin, tana harakatlarini so'z yoki iboralarga tarjima qiladi. Noverbal kommunikatsiya kontekstida jestlar qo'l, qo'litiq yoki tana qismlarining xabar yoki ifodalarni yetkazish uchun ishlatiladigan harakatlariga taalluqlidir. Jestlar oddiy bo'lishi mumkin, masalan, salomlashish uchun qo'l ko'tarmoq, yoki suhbatda biror narsani ko'rsatish yoki

qo'shimcha ma'no berish uchun murakkab harakatlar ham ishlatiladi.

Yuz ifodalari ham pedagogik muloqotda muhim axborot tashuvchisi hisoblanadi. O'qituvchi talabani noto'g'ri javobiga keskin tanbeh bermasdan, qoshini biroz chimirib yoki boshini yengil silkitib, javobning xato ekanini bildirishi mumkin. Masalan, talaba ingliz tilida "He go to school yesterday" deb gapirganda, o'qituvchi darhol grammatik xatoni aytib berish o'rniga, yuzida savol ifodasini hosil qilib, "Yesterday?" deb takrorlashi orqali talabani o'z xatosini mustaqil tuzatishiga imkon yaratadi. Bu yondashuv konstruktiv feedback berishning noverbal va paralingvistik uyg'unlashgan shakli sifatida namoyon bo'ladi.

T.S.Negiga ko'ra, noverbal kommunikatsiya to'qqiz toifaga bo'linadi:

1. Kinesika (jestlar, harakatlar, yuz ifodalari). Kinesika tana holati va yuz ifodalari, masalan, tabassum, qichqiriq, qosh qimirlatish kabi belgilarni o'rganadi. Bu kategoriya orqali nutqsiz xabarlarining emotsional va kontekstual ma'nolari aniqlanadi.

2. Okulyarika (ko'z aloqasi). Okulyarika vizual kontaktning xabarni qabul qilishga ta'sirini o'rganadi. Bu ko'z harakati va ko'z bilan bog'lanish darajasiga bog'liq bo'lib, e'tibor, qarash yo'nalishi va davomiyligiga qarab farqlanadi.

3. Haptika (tegish). Haptika jismoniy kontakt, masalan, qo'l berish yoki yelkaga teginish kabi xatti-harakatlarni o'z ichiga oladi. Bu turdagi xatti-harakatlar odatda insonlar o'rtasidagi yaqinlik va iliqlikni ifodalaydi.

4. Proksemika (masofa). Proksemika fazo, kommunikatsiya va munosabatlar o'rtasidagi murakkab bog'liqlikni ochib beradi. Insonlar ko'pincha masofani saqlash orqali aloqaning yo'qolishi yoki zaiflashishini ifodalaydi.

5. Paralingvistika. Paralingvistika nutqning og'zaki bo'lmagan jihatlari o'z ichiga oladi, masalan, ohang, intonatsiya, pauza va tovush balandligi. Bu elementlar so'zlashgan til bilan bevosita bog'liq emas, lekin xabarni anglashni kuchaytiradi.

6. Jismoniy ko'rinish. Jismoniy ko'rinishga tashqi ko'rinish, jozibadorlik, bo'y, vazn, tana shakli, soch turmaji va kiyim kiradi. Ba'zi omillar kiyim-kechak yoki soch turmaji orqali nazorat qilinadi, boshqalari esa teri rangi, bo'y va tana shakli kabi cheklangan nazoratga ega.

7. Olfaktika (hid orqali kommunikatsiya). Olfaktika insonlar o'rtasidagi muloqotni hid orqali o'rganadi, jumladan, atirlar va gigiyena mahsulotlaridan keladigan hiddan kelib chiqqan signallarni tahlil qiladi.

8. Kronemika. Kronemika vaqtning ma'nosi, ishlatilishi va kommunikatsiyada ahamiyati, shuningdek, punktualik va vaqt bilan bog'liq boshqa elementlarni o'rganadi.

9. Atrof-muhit omillari. Atrof-muhit omillari ekologik sharoitlar, masalan, ifloslanish, harorat, shovqin kabi holatlarni o'z ichiga oladi, ular muloqot jarayonida insonlarning xulq-atvoriga va salomatligiga ta'sir ko'rsatadi [4].

Pedagogik makon va masofa masalalari ham noverbal kommunikatsiyaning muhim jihatlari biridir. Proksemika nazariyasiga ko'ra, o'qituvchining sinf ichida qanday harakatlanishi va talabalar bilan qanday masofada turishi muloqotning psixologik iqlimiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Masalan, o'qituvchi yangi mavzuni tushuntirish paytida

doska yonida turib gapirsa, dars rasmiy tus oladi, ammo muhokama bosqichida auditoriya bo'ylab yurib, talabalar yoniga yaqinlashishi ularni suhbatga faolroq jalb etadi. Chet tilini o'rganish darslarida bunday yaqinlashuv ayniqsa muhim bo'lib, talabalarda qo'rquv va nutqiy to'siqlarni kamaytiradi.

Paralingvistik vositalar, ya'ni nutqning ohangi, tempi va pauzalari ham chet tilini o'qitishda didaktik ahamiyatga ega. O'qituvchi yangi so'zlarni o'rgatish jarayonida ularni sekinroq va aniqroq talaffuz qilsa, talabalarga fonetik jihatdan to'g'ri modelni qabul qilish osonlashadi. Masalan, ingliz tilidagi "comfortable" so'zini o'rgatishda o'qituvchi uni bo'g'inlarga ajratib, ohangni pasaytirib aytsa, talabalar bu murakkab so'zning haqiqiy talaffuzini to'g'ri o'zlashtira oladilar. Bu yerda paralingvistik vosita fonetik o'rganishni qo'llab-quvvatlovchi vosita sifatida ishlaydi.

Noverbal vositalarning ta'lim jarayonidagi yana bir muhim vazifasi – affektiv muhitni shakllantirishdir. Talabalar ko'pincha chet tilida gapirishdan uyaladi yoki xato qilishdan qo'rqadi. O'qituvchining doimiy ravishda tabassum qilishi, bosh iring'ab qo'llab-quvvatlash ishorasini berishi yoki "good", "excellent" kabi qisqa verbal baholashlarni ijobiy intonatsiya bilan aytishi talabada psixologik xavfsizlik hissini hosil qiladi. Masalan, talaba murakkab gap tuzishda ikkilanib to'xtab qolganida, o'qituvchining sabr bilan kutib, rag'batlantiruvchi qarash bilan uni davom ettirishga undashi o'quvchining nutqiy faolligini oshiradi.

Chet tilini o'qitish jarayonida noverbal vositalar kompensator mexanizm sifatida ham namoyon bo'ladi. Talaba o'z fikrini ifodalash uchun yetarli lug'at boyligiga ega bo'lmaganda, u jest va mimika yordamida ma'noni yetkazishga harakat qiladi. Masalan, talaba ingliz tilida "umbrella" so'zini eslay olmaganda, qo'li bilan yomg'ir yog'ayotganini va bosh ustida nimanidir ushlab turgandek harakat qilishi orqali o'qituvchi va boshqa talabalar uning nima demoqchi ekanini tushunib yetadilar.

Adabiyotlar

1. Canale M., Swain M. Theoretical bases of communicative approaches to second language teaching. // *Applied Linguistics*, 1980, № 1. – P. 1-47.
2. Harisnawati H., Wello M.B., Rahman A. Teachers' Verbal and Nonverbal Communication in EFL Classroom at Vocational High School in Makassar. // *Pinisi Journal of Art, Humanity and Social Studies*, 2022, 2(2). – P. 66-74.
3. Lee Y.-A. The work of examples in classroom interaction. // *Linguistics and Education*. 2004, 15(1-2). – P. 99-120.
4. Negi T.S. Nonverbal communication in social interaction. // *Indian Journal of Psychology*. 1970, 45(2). – P. 123-135.
5. Xu J., Gannon P.J., Emmorey K., Smith J.F., Braun A.R. Symbolic gestures and spoken language are processed by a common neural system. // *Proceedings of the National Academy of Sciences*, 2009, 106(49). – P. 20664-20669.

Bu holat kommunikativ kompetensiyaning tarkibiy qismi bo'lgan strategik kompetensiyaning amaliy ko'rinishi hisoblanadi.

Raqamli ta'lim muhitida ham noverbal kommunikatsiya o'z ahamiyatini yo'qotmaydi, balki yangi shakllarda namoyon bo'ladi. Onlayn ingliz tili darslarida talabalar o'z kamerasi orqali bosh iring'ab tasdiq berishi, chatda emoji yuborishi yoki platformadagi "raise hand" funksiyasidan foydalanishi an'anaviy noverbal signallarning virtual muqobili sifatida xizmat qiladi. Masalan, o'qituvchi savol berganida bir nechta talaba bir vaqtning o'zida gapira boshlamasligi uchun, ular avval virtual qo'l ko'taradi va o'qituvchi kimga navbat berilishini tanlaydi. Bu esa onlayn muhitda ham tartibli kommunikatsiyani ta'minlaydi.

Noverbal vositalarni samarali qo'llash o'qituvchidan maxsus kommunikativ kompetensiyani talab qiladi. Pedagog o'zining jestlari, yuz ifodasi va nutq ohangining talabalarga qanday ta'sir ko'rsatishini anglab yetishi zarur. Masalan, ba'zi o'qituvchilar tushuntirish paytida qo'llarini ortga yashirib turadi yoki talabalar bilan ko'z aloqasini kam o'rnatadi, bu esa ularning ishonchsiz yoki befarq ko'rinishiga olib kelishi mumkin. Aksincha, ochiq tana holati, faol jestlar va muntazam ko'z aloqasi o'qituvchining ishonchli va ochiq kommunikator sifatida qabul qilinishiga xizmat qiladi.

Xulosa. Yuqorida keltirilgan nazariy va amaliy tahlillar shuni ko'rsatadiki, noverbal kommunikatsiya ta'lim jarayonining ajralmas qismi bo'lib, u nutqiy axborotni to'ldiradi, mustahkamlaydi va ba'zi hollarda uning o'rnini ham bosadi. Ayniqsa chet tilini o'qitish jarayonida noverbal vositalar talabalarning tushunishini osonlashtirish, ularni muloqotga jalb etish va psixologik to'siqlarni kamaytirishda muhim pedagogik resurs sifatida namoyon bo'ladi. Shu sababli zamonaviy pedagogik yondashuvlarda noverbal kommunikatsiyani ongli ravishda rejalashtirish va dars metodikasiga integratsiya qilish ta'lim sifatini oshirishning muhim sharti sifatida qaraladi.

**BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA KREATIV YONDASHUVLAR ASOSIDA
MA‘NAVIY QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISH**

Arziev Shinabat Abdiraxmanovich – *pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori*

arzievshinabat020@gmail.com

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

**ФОРМИРОВАНИЯ ДУХОВНЫХ ЦЕННОСТЕЙ У БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ
НА ОСНОВЕ КРЕАТИВНОГО ПОДХОДА**

Арзиев Шынабат Абдирахманович – *доктор философии по педагогическим наукам*

Нукусский государственный педагогический институт имени Ажинияза

FORMING SPIRITUAL VALUES IN FUTURE TEACHERS BASED ON CREATIVE APPROACHES

Arziev Shinabat Abdirakhmanovich – *Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences*

Nukus State Pedagogical Institute named after Ajiniyaz

Tayanch so‘zlar: kreativ yondashuv, ma‘naviy qadriyatlar, bo‘lajak o‘qituvchi, kreativ kompetentlik, qadriyatli yondashuv, innovatsion pedagogik texnologiyalar, ma‘naviy-ma‘rifiy faoliyat, kasbiy kompetentlik, interaktiv metodlar, pedagogik ta‘lim.

Rezyume. Maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarda kreativ yondashuvlar asosida ma‘naviy qadriyatlarni shakllantirishning ilmiy-nazariy asoslari tahlil qilingan. Unda pedagogik ta‘lim jarayonida kreativ kompetentlikni rivojlantirish, qadriyatli yondashuvni takomillashtirish hamda ma‘naviy-ma‘rifiy faoliyatni innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish masalalari yoritilgan. Shuningdek, sharq mutafakkirlarining pedagogik merosi va zamonaviy interaktiv metodlar orqali talabalarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari ochib berilgan. Maqolada kreativ yondashuv asosida tashkil etilgan ta‘lim jarayoni bo‘lajak o‘qituvchilarning ma‘naviy barkamolligi, mustaqil fikrlashi va kasbiy kompetentligini rivojlantirishga xizmat qilishi asoslab berilgan.

Ключевые слова: креативный подход, духовные ценности, будущий педагог, креативная компетентность, ценностный подход, инновационные педагогические технологии, духовно-просветительская деятельность, профессиональная компетентность, интерактивные методы, педагогическое образование.

Резюме. В статье анализируются научно-теоретические основы формирования духовных ценностей у будущих педагогов на основе креативных подходов. Освещаются вопросы развития креативной компетентности, совершенствования ценностного подхода и организации духовно-просветительской деятельности на основе инновационных педагогических технологий в системе педагогического образования. Также раскрываются педагогические возможности формирования национальных и общечеловеческих ценностей у студентов посредством использования наследия восточных мыслителей и современных интерактивных методов обучения. Обосновывается, что образовательный процесс, организованный на основе креативного подхода, способствует развитию духовной зрелости, самостоятельного мышления и профессиональной компетентности будущих педагогов.

Key words: creative approach, spiritual values, future teacher, creative competence, value-based approach, innovative pedagogical technologies, spiritual and educational activities, professional competence, interactive methods, pedagogical education.

Summary. This article analyzes the scientific and theoretical foundations for the formation of spiritual values in future teachers based on creative approaches. It highlights the issues of developing creative competence, improving value-based approaches, and organizing spiritual and educational activities through innovative pedagogical technologies within the educational process. The article also reveals the pedagogical possibilities of forming national and universal human values in students through the heritage of Eastern thinkers and modern interactive teaching methods. It is substantiated that an educational process organized on the basis of creative approaches contributes to the development of spiritual maturity, independent thinking, and professional competence in future teachers.

Kirish Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida pedagogik ta‘lim tizimi oldiga bo‘lajak o‘qituvchilarni nafaqat kasbiy jihatdan kompetent, balki yuksak ma‘naviy fazilatlariga ega shaxs sifatida tayyorlash vazifasi qo‘yilmoqda. Zamonaviy jamiyat taraqqiyoti pedagogdan innovatsion fikrlash, kreativ yondashuv, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik hamda ijtimoiy mas‘uliyat kabi sifatlarini talab etadi. Shu jihatdan bo‘lajak o‘qituvchilarda ma‘naviy qadriyatlarni kreativ yondashuvlar asosida shakllantirish pedagogika fanining dolzarb ilmiy-amaliy muammolaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Ma‘naviy qadriyatlar insonning axloqiy dunyoqarashi, ijtimoiy faoliyati, madaniy tafakkuri va shaxsiy kamolotini belgilovchi muhim omildir. Ayniqsa, pedagog shaxsida ma‘naviy yetuklikning shakllanganligi ta‘lim-tarbiya

samaradorligini oshirishda asosiy mezonlardan biri hisoblanadi. Chunki o‘qituvchi nafaqat bilim beruvchi mutaxassis, balki yosh avlod uchun ma‘naviy namuna vazifasini ham bajaradi. Shu sababli oliy pedagogik ta‘lim tizimida talabalarni ma‘naviy barkamol, kreativ va mustaqil fikrlovchi shaxs sifatida tarbiyalash zarurati ortib bormoqda.

Metodologiya. Mazkur tadqiqotda bo‘lajak o‘qituvchilarda kreativ yondashuvlar asosida ma‘naviy qadriyatlarni shakllantirish mazmunini takomillashtirishning pedagogik imkoniyatlari o‘rganildi. Tadqiqot jarayonida nazariy, empirik va statistik metodlardan foydalanildi. Tadqiqot davomida ma‘naviy tarbiya jarayonida kreativ pedagogik texnologiyalarning samaradorligi aniqlanib, ularni ta‘lim tizimiga integratsiya qilish imkoniyatlari tahlil qilindi.

Adabiyotlar tahlili. Ma'naviy qadriyatlar va kreativ pedagogika masalalari ko'plab mahalliy hamda xorijiy olimlar tomonidan o'rganilgan. Jumladan, Sharq mutafakkirlarining ilmiy-pedagogik qarashlari ham ushbu jarayonning muhim metodologik asoslaridan biridir. Abu Nasr Forobiy inson kamolotini ilm va axloq uyg'unligida talqin qilgan bo'lsa [1], Abu Rayhon Beruniy yoshlarni ezigulikka, bilim olishga va halollikka undagan [2]. Alisher Navoiy asarlarida komil inson g'oyasi yetakchi o'rin egallaydi [3]. Abdulla Avloniy esa tarbiya masalasini millat ravnaqi bilan bog'liq holda yoritgan [4]. Ushbu ilmiy-ma'naviy merosdan zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida foydalanish talabalarida milliy o'zlikni anglash, ma'naviy immunitet va ijodiy tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda kreativlik tushunchasi insonning yangicha fikrlashi, noodatiy yondashuvlarni ishlab chiqishi va innovatsion g'oyalarni ilgari surishi bilan izohlanadi. N.S.Saidahmedov [5], N.M.Egamberdiyeva [6], B.X.Xodjayev [7], N.A.Axmedova [8] va boshqalar tadqiqotlarida pedagogik kreativlik hamda ma'naviy tarbiya masalalarini o'rgananlar. Ularning ilmiy ishlarida bo'lajak pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalar va interaktiv metodlarning ahamiyati yoritilgan.

Muhokama. Kreativ yondashuv zamonaviy pedagogik faoliyatning muhim tarkibiy qismi bo'lib, u ta'lim jarayonini yangicha tashkil etish, innovatsion metod va texnologiyalarni qo'llash hamda talabalarining ijodiy salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Kreativlik shaxsning nostandart fikrlashi, yangi g'oyalarni ilgari surishi va mavjud muammolarga samarali yechim topa olish qobiliyatida namoyon bo'ladi. Shu bois bo'lajak o'qituvchilarda kreativ kompetentlikni shakllantirish ularning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishning muhim omili hisoblanadi.

Pedagogik ta'lim jarayonida kreativ metodlardan foydalanish talabalarining mustaqil fikrlashi, refleksiv yondashuvi va ma'naviy tafakkurini rivojlantiradi. Xususan, muammoli vaziyatlar yaratish, loyiha asosida ishlash, interaktiv topshiriqlar, debat va trening mashg'ulotlari orqali talabalar o'z fikrini erkin ifodalash, tahlil qilish va xulosa chiqarishga o'rganadi. Bunday faoliyat esa ularda ma'naviy qadriyatlarga nisbatan ongli munosabatni shakllantiradi.

Bo'lajak o'qituvchilarda ma'naviy qadriyatlarni rivojlantirishda qadriyatli yondashuv alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur yondashuv asosida talabalarida milliy an'analar, tarixiy meros, insonparvarlik, vatanparvarlik va axloqiy mas'uliyat kabi fazilatlar shakllanadi. Pedagogik faoliyat davomida o'qituvchining ma'naviy qiyofasi va axloqiy madaniyati yosh avlod kamolotiga bevosita ta'sir

ko'rsatadi. Shu sababli bo'lajak pedagoglarni tayyorlashda ma'naviy-axloqiy tarbiyaga ustuvor yo'nalish sifatida qarash zarur hisoblanadi [1].

Bugungi kunda ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va multimedia vositalarining kirib kelishi kreativ pedagogik faoliyat imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Elektron ta'lim platformalari, virtual seminarlar, raqamli resurslar va innovatsion metodlardan foydalanish talabalarni faol ta'lim subyektiga aylantiradi. Ayniqsa, multimedia materiallari asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar talabalar tafakkurini faollashtirib, ularda mustaqil tahlil qilish va kreativ qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantiradi.

Kreativ yondashuv asosida tashkil etilgan ma'naviy-ma'rifiy faoliyat talabalarining kommunikativ kompetensiyasi va ijtimoiy faolligini ham rivojlantiradi. Jamoaviy loyiha ishlari, kreativ taqdimotlar va innovatsion pedagogik mashg'ulotlar orqali talabalar hamkorlikda ishlash, fikr almashish va ijtimoiy muammolarga faol munosabat bildirish ko'nikmalariga ega bo'ladi. Bu esa ularning kelajakdagi pedagogik faoliyatida samarali kasbiy kommunikatsiyani ta'minlaydi.

Natijalar. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, kreativ yondashuv asosida tashkil etilgan pedagogik jarayon bo'lajak o'qituvchilarning ma'naviy va kasbiy kompetentligini rivojlantirishda muhim natijalar beradi. Kreativ metodlardan foydalanish talabalarining ta'lim jarayonidagi faolligini oshirib, ularni mustaqil va erkin fikrlashga undaydi. Ayniqsa, interaktiv mashg'ulotlar va innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida olib borilgan darslarda talabalarining ma'naviy qadriyatlarga nisbatan ongli munosabati kuchayadi.

Shuningdek, kreativ faoliyat orqali talabalar o'zining ichki imkoniyatlarini namoyon etish, muammolarni tahlil qilish va zamonaviy pedagogik vaziyatlarga moslashish qobiliyatiga ega bo'ladi. Bu esa kelajakdagi pedagogik faoliyat samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalar, multimedia vositalari va elektron resurslardan foydalanish esa talabalarining refleksiv fikrlashi, kreativ salohiyati hamda ma'naviy dunyo-qarashini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Natijada bo'lajak o'qituvchilarda ma'naviy barkamollik, kreativ kompetentlik, kasbiy mas'uliyat va innovatsion fikrlash kabi muhim sifatlar shakllanadi. Bu esa zamonaviy ta'lim tizimining ustuvor maqsadlariga mos keluvchi pedagog kadrlarni tayyorlash imkonini beradi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, bo'lajak o'qituvchilarda kreativ yondashuvlar asosida ma'naviy qadriyatlarni shakllantirish pedagogik ta'lim tizimining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Kreativ pedagogik texnologiyalar talabalarining ma'naviy tafakkuri, ijodiy fikrlashi, kasbiy kompetentligi va ijtimoiy faolligini rivojlantirishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar

1. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi», 2004.
2. Abu Rayhon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. – Toshkent: «Fan», 1968.
3. Alisher Navoiy. Mahlub ul-qulub. – Toshkent: «Yangi asr avlodi», 2019.
4. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: «O'qituvchi», 1992.
5. Saidahmedov N.S. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. Darslik. – Toshkent: «Fan», 2003.
6. Egamberdiyeva N.M. Talabalarni shaxsiy va kasbiy ijtimoiylashtirish nazariyasi va amaliyoti. O'quv qo'llanma. – Toshkent: «Fan va texnologiya», 2009.
7. Xodjayev B.X. Pedagogika nazariyasi va tarixi. – Toshkent: «Tafakkur bo'stoni», 2017.
8. Axmedova N.A. Bo'lajak o'qituvchilar ma'naviy madaniyatini rivojlantirishda umuminsoniy qadriyatlarining ahamiyati. // Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences. 2022. Tom 2. №2. – P. 695-700.

**BO‘LAJAK TARBIYACHILARNING KOGNITIV QOBILYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA
KASBIY KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISH**

Bazarbayeva Ayzamal Kdirbaevna – *pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori*

bazarbaevaayjamal777@gmail.com

Innovatsion texnologiyalar universiteti

**ФОРМИРОВАНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ
В РАЗВИТИИ КОГНИТИВНЫХ СПОСОБНОСТЕЙ БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ**

Базарбаева Айжамал Кдирбаевна – *доктор философии по педагогическим наукам*

Инновационно технологический университет

**FORMATION OF PROFESSIONAL COMPETENCE IN THE DEVELOPMENT
OF COGNITIVE ABILITIES OF FUTURE TEACHERS**

Bazarbaeva Ayzamal Kdirbaevna – *Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences*

University of Innovative Technologies

Tayanch so‘zlar: axborot-kommunikatsion texnologiya, kognitiv qobilyat, pedagogik kompetentlik, motivatsion, kognitiv, operatsion, reflektiv.

Rezyume. Maqolada xalqaro miqyosda bo‘lajak mutaxassislarini zamonaviy ta‘limni amalga oshirish bo‘yicha dunyoning yetakchi oliy ta‘lim muassasalari va ilmiy markazlari tomonidan olib borilayotgan tadqiqotlarda bo‘lajak tarbiyachilarning kognitiv qobilyatlarini rivojlantirishda kasbiy kompetentligini shakllantirish mezonlari, xalqaro ta‘lim standartlari talablarining joriy qilinishiga alohida ahamiyat qaratilganligi haqida so‘z etiladi.

Ключевые слова: информационно-коммуникационные технологии, когнитивные способности, педагогическая компетентность, мотивационный, когнитивный, операционный, рефлексивный.

Резюме. В статье рассматривается тот факт, что в международных исследованиях, проводимых ведущими высшими учебными заведениями и научно-исследовательскими центрами по всему миру по вопросам внедрения современного образования для будущих специалистов, особое внимание уделяется критериям формирования профессиональной компетентности в развитии познавательных способностей будущих педагогов и внедрению требований международных образовательных стандартов.

Key words: Information and communication technology, cognitive ability, pedagogical competence, motivational, cognitive, operational, reflexive.

Summary. The article discusses the fact that in international research conducted by leading higher educational institutions and research centers around the world on the implementation of modern education of future specialists, special attention is paid to the criteria for the formation of professional competence in the development of cognitive abilities of future educators, the introduction of the requirements of international educational standards.

Kirish. So‘ngi yillarda mamlakatimiz ta‘lim tizimida tub islohotlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti mamlakatimiz ta‘lim tizimini yanada takomillashtirish, ta‘limning yangi, zamonaviy usullarini, jumladan, pedagogik va axborot-kommunikatsion texnologiyalarni joriy etish sohasidagi ishlar ahvolini tanqidiy tahlil qilish zaruratini ta‘kidladi: bu – pedagoglar va professor-o‘qituvchilar tarkibining professional darajasi, ularning maxsus bilimlaridir.

Xalqaro miqyosda bo‘lajak mutaxassislarini zamonaviy ta‘limni amalga oshirish bo‘yicha dunyoning yetakchi oliy ta‘lim muassasalari va ilmiy markazlari tomonidan olib borilayotgan tadqiqotlarda bo‘lajak tarbiyachilarning kognitiv qobilyatlarini rivojlantirishda kasbiy kompetentligini shakllantirish mezonlari, xalqaro ta‘lim standartlari talablarining joriy qilinishiga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Bunda yosh o‘qituvchilarning pedagogik kompetentligi tarkibini zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalarni ta‘lim jarayonida muvaffaqiyatli qo‘llashning motivatsion, kognitiv, operatsion, reflektiv va o‘z-o‘zini baholash kabi indikatorlari asosida kengaytirishga qaratilgan ilmiy izlanishlar muhim o‘rin tutadi. Albatta, bunda yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyev say-harakatlari muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, maktabgacha ta‘lim tashkilotlariga e‘tiborlarini alohida ta‘kidlab o‘tish joiz deb o‘ylaymiz. Prezidentimizning 2019-yil 19-oktyabr kuni maktabgacha ta‘lim tizimini tubdan takomillashtirish

masalalariga bag‘ishlab o‘tkazilgan yig‘ilishda «Hayotimizda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lgan ta‘lim-tarbiya tizimi haqida gapirganda, Abdulla Avloniy bobomizning dono fikrlarini takror va takror aytishga to‘g‘ri keladi: ta‘lim-tarbiya – biz uchun hayot-mamot masalasidir. Qaysi sohani olmaylik, biz zamonaviy yetuk kadrlarni tarbiyalamasdan turib biron-bir o‘zgarishga, farovon hayotga erisha olmaymiz. Bunday kadrlarni, millatning sog‘lom genofondini tayyorlash, avvalo, maktabgacha ta‘lim tizimidan boshlanadi», – deb ta‘kidladi [1].

Albatta, har qanday sohani rivojlantirish maktabgacha ta‘limdan va uning uzluksizligidandir, chunki maktabgacha ta‘lim tashkilotlarini bitiruvchilari O‘zbekiston Respublikasining kelajagidir. Axir bola butun hayotida oladigan bilimning 70%ini maktabgacha yoshdagi davrda egallaydi. Bu borada esa maktabgacha yoshdagi bolalarga ta‘lim va tarbiya beruvchi tarbiyachilar va bo‘lajak mutaxassislarning bilimli, psixologik, kasbiy kompetentligini rivojlantirib tayyorlash muhim o‘rin tutadi.

Natijalar va muhokama. Kompetentlik tushunchasi ta‘lim sohasiga pedagog-psixolog tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlari natijasida kirib kelgan. Psixologik nuqtainazardan, kompetentlik «noan‘anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o‘zini qanday tutishi, hamkasblari bilan o‘zaro munosabatlarda yangi yo‘l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to‘la

ma'lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik»ni anglatadi. Kasbiy kompetentlik – mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar egallanishi va ularning amalda yuqori darajada qo'llay olinishi [5].

Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo'nalish bo'yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o'zlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, kompetentsiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o'rganishni, eng muhimi, ilmiy ma'lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o'z faoliyatida qo'llay bilishni taqozo etadi. Aynan kasbiy kompetentlik omillarida yangi axborotlarni o'rganish va ularni topish deya aytilar ekan, biz o'z-o'zidan axborot texnologiyalari va resurslariga murojaat qilamiz. Bilamizki, hozirgi davr axborotlashgan davrdir. Shunday bir jadal rivojlanayotgan davrda bizni axborot to'laqonlik o'rab olgan. Biz axborotlarni kamaytirib yoki undan voz kecha olmas ekanmiz, undan to'g'ri foydalanishni o'rganishimiz va uni pedagogik faoliyatimizga kirgizishimiz zarur.

Oliy ta'lim amaliyoti shuni ko'rsatmoqdaki, talabalarda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish jarayoni ularda ijtimoiy-madaniy kompetentlik darajasining rivojlanganligi bilan uzviy aloqador [3]. Mazkur jihat bo'lajak tarbiyachilarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishda kasbiy kompetentligini shakllantirish muammosini maxsus tadqiq etishni taqozo etadi. Pedagogik faoliyatda kasbiy kompetentlik umumiy tuzilmasining muhim tarkibiy qismlaridan biri – bu ijtimoiy-madaniy kompetentlik hisoblanadi. Zero zamonaviy tarbiyachi nafaqat tarbiyalanuvchiga bilim beradi, ma'lumot, axborot yetkazadi, balki rivojlanayotgan shaxs va jamiyat o'rtasida vositachi rolini ham bajaradi.

“Bola shaxs-jamiyat” munosabatlari o'zaro aloqasining maqsadga muvofiq bo'lishi tarbiyachining qanchalik ijtimoiy hayotda kompetentli, omilkor ekanligiga ham bog'liqdir [6, 7]. Bo'lajak tarbiyachilarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishda kasbiy kompetentligini shakllantirish jarayonida biz turli xil ta'limiy uslublardan foydalanamiz. Masalan, amaliy, interfaol, an'anaviy usullar, ammo ularning barchasi kasbiy kompetensiyalari shakllantirish uchun yetarli bo'lmaydi.

Bo'lajak tarbiyachilarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishda kasbiy kompetentligini shakllantirish jarayonlarida yuqorida keltirilgan metodlar bilan bir qatorda, kasbiy faollik, kompetentlik, uning mazmun-mohiyati, ahamiyati va zaruriyati borasida ularning boshlang'ich tushunchalarini rivojlantirish, ularda refleksiv yondashuv ko'nikmalari va malakalarini shakllantirish hamda rivojlantirish uchun tashkil etiladigan ta'limtarbiya jarayonlarida ijtimoiy-psixologik va metodologik xususiyatlarga ega bo'lgan trening, interfaol suhbat, integrativ ma'ruza, ishchanlik o'yinlari kabi metodlardan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Bo'lajak tarbiyachilarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishda kasbiy kompetentligini shakllantirish jarayonlarida tarbiyachilarning tahliliy faoliyatini qo'llab-quvvatlovchi, ishbilarmon o'yinlari orqali innovatsion faoliyatning usul va shakllarini yorituvchi, tarbiyachilar faoliyatini kuzatish asosida tarbiyachilarning o'zaro ta'sir

1. Камышева Е.Ю., Куламихина И.В., Самылова О.А. Формирование компетенции критического мышления на основе технологии "open innovation". // «Проблемы современного педагогического образования». – С. 125-129.

2. Chesbrough H.W. Open Innovation. The New Imperative for Creating and Profiting from Technology. – Harvard Business Press, 2003.
3. Грязнов С.А. Цифровое обучение: тенденции, проблемы, и инновации. Цифровизация в системе образования: передовой опыт и практика внедрения Материалы VI Международной научно-практической конференции. – Краснодар: 18-19 апреля 2025.
4. Черных Д.В. Цифровая трансформация высшего образования. Д.В.Черных, О.В.Фурер. // Мир педагогики и психологии: международный научно-практический журнал, №01, 2025. (102).
5. Абдуллаева Н. Учебно-методический комплекс по модулю развития профессиональных компетенций педагога. – Ташкент: 2023.
6. <https://psychologos.ru/articles/view/andragogika-i-pedagogika>
7. Громаков Е.И., Сидорова А.А. Современные технологии. Киберфизические системы. Учебное пособие. – Томск: Томский политехнический университет, 2021.
8. Чарльз Петцольд. Код. Тайный язык информатики. пер. с англ. О. Сивченко. [науч. ред. В.Артюхин, А.Гизатулин]. – Москва: «Манн, Иванов и Фербер», 2019.
9. Муслимов Н.А., Усмонбоева М.Х., Сайфуров Д.М., Тўраев А.Б. Педагогик компетентлик ва креативлик асослари. – Тошкент: «Сано стандарт», 2015.
10. Компетенции педагога XXI века. [Электронный ресурс]: Сб. материалов респ. Конференции. (Минск, 25 ноябрь. 2021) / М-во образования Респ. Беларусь, ГУО «Акад. последиплом. образования», ОО «Белорус. пед. о-во». – Минск: АПО, 2021.

INKLYUZIV TA'LIM SHAROITIDA KORREKSION PEDAGOGIKANING AHAMIYATI

Kurbanbaeva Dilaram Muxamovna – katta o'qituvchi

dkurbanbaeva71@gmail.com

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

ЗНАЧЕНИЕ КОРРЕКЦИОННОЙ ПЕДАГОГИКИ В УСЛОВИЯХ ИНКЛЮЗИВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Курбанбаева Диларам Мухамовна – старший преподаватель

Нукусский государственный педагогический институт имени Ажинияза

THE IMPORTANCE OF CORRECTIONAL PEDAGOGY IN INCLUSIVE EDUCATION

Kurbanbaeva Dilaram Mukhamovna – Senior Lecturer

Nukus State Pedagogical Institute named after Ajiniyaz

Tayanch so'zlar: inklyuziv ta'lim, korreksion pedagogika, individual yondashuv, ijtimoiy integratsiya, moslashtirilgan muhit.

Rezyume. Ushbu tadqiqot inklyuziv ta'limda korreksion pedagogikaning rolini o'rganishga qaratilgan. Inklyuziv ta'lim har bir bolaning ta'lim olish huquqini, individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda ta'minlaydi. Korreksion pedagogika esa akademik natijalarni oshirish, ijtimoiy integratsiyani rag'batlantirish va shaxsiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi.

Ключевые слова: инклюзивное образование, коррекционная педагогика, индивидуальный подход, социальная интеграция, адаптированная среда.

Резюме. Исследование посвящено роли коррекционной педагогики в инклюзивном образовании. Инклюзивное образование обеспечивает право каждого ребенка на обучение с учетом индивидуальных потребностей. Коррекционная педагогика способствует учебным успехам, социальной интеграции и личностному развитию.

Key words: inclusive education, correctional pedagogy, individual approach, social integration, adapted learning.

Summary. This research is explored the role of correctional pedagogy in inclusive education. Inclusive education ensures every child's right to learn, considering their individual needs. Correctional pedagogy supports academic achievement, social integration, and personal development.

Kirish. Bugungi globallashtirish va ijtimoiy taraqqiyot sharoitida ta'lim tizimi insonparvarlik, tenglik hamda ijtimoiy adolat tamoyillari asosida takomillashib bormoqda. Zamonaviy pedagogika har bir bolaning shaxs sifatidagi qadr-qimmatini e'tirof etadi va uning sifatli ta'lim olish huquqini ta'minlashni ustuvor vazifa sifatida belgilaydi. Shu nuqtayi nazardan inklyuziv ta'lim konsepsiyasi dolzarb ijtimoiy-pedagogik yo'nalish sifatida shakllandi.

Inklyuziv ta'lim – bu rivojlanish darajasi, jismoniy yoki psixik xususiyatlaridan qat'i nazar, barcha bolalarning umumta'lim muassasalarida birgalikda ta'lim olishini nazarda tutuvchi tizimdir. Uning asosiy g'oyasi – ta'limni bolaga moslashtirish, bolani esa muhitga moslashishga majburlamaslik buladi. Bu yondashuv ijtimoiy integratsiya, bag'rikenglik va teng imkoniyatlar tamoyillariga asoslanadi.

Adabiyotlar sharhi. Inklyuziv ta'lim zamonaviy pedagogikaning eng rivojlangan yo'nalishlaridan biri sifatida tan olinadi. U har bir bolaning sifatli ta'lim olish huquqini ta'minlash va ijtimoiy tenglikni mustahkamlashga qaratilgan. Mavjud adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, inklyuziv ta'limni samarali amalga oshirish uchun nazariy asoslar va amaliy strategiyalar birdek muhimdir, xususan, korreksion pedagogika bilan birlashtirilgan [3].

Nazariy qarashlar va insonparvar pedagogika masalalari Xoliqov asarlarida yoritilgan [1]. Ushbu manbalar ma'naviy, axloqiy va demokratik tamoyillarni ta'kidlaydi. Inklyuziv ta'lim kontekstida ular har bir bolaning teng huquqli ta'lim olishini, qo'llab-quvvatlovchi o'quv muhitini yaratishni va ijtimoiy adolatni ta'minlashning falsafiy va axloqiy asosini beradi.

Nazarova esa bolalarning psixologik va pedagogik xususiyatlarini chuqur tahlil qilib, inklyuziv ta'limda

differential va individual yondashuvni ilmiy asoslash imkonini yaratadi [3].

Inklyuziv ta'limning amaliy jihatlari Po'latova va Malofeev ishlarida, shuningdek YuNESKO va Booth & Ainscow xalqaro qo'llanmalarda keltirilgan. Bu manbalar global tajribani, metodik vositalar va indikatorlarni taqdim etib, moslashtirilgan o'quv materiallari, differential topshiriqlar va ijtimoiy integratsiyani amalga oshirish bo'yicha tavsiyalar beradi [6]. Shu bilan birga, ular inklyuziv ta'limni tizimli rejalashtirish, qo'llab-quvvatlovchi infratuzilma yaratish va pedagoglarni tayyorlash zarurligini ko'rsatadi [7].

Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, pedagoglarning tayyorgarligi va metodik bazaning mustahkamligi inklyuziv ta'limda korreksion pedagogikaning samaradorligi uchun muhim shart hisoblanadi [2].

Umuman olganda, adabiyotlar korreksion pedagogik yondashuvning nafaqat maxsus ehtiyojli bolalar, balki butun sinf jamoasi uchun foydali ekanligini ko'rsatadi. Ular akademik natijalarni oshirish, ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish, konfliktlarni kamaytirish va hamkorlik hamda empatiya muhiti yaratishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, xalqaro tadqiqotlar ham inklyuziv muhitda differential metodlar va individual yondashuvlarning samaradorligini tasdiqlaydi [1].

Xulosa qilib aytganda, mavjud adabiyotlar inklyuziv ta'lim va korreksion pedagogikaning nazariy va amaliy jihatlarni birlashtiradi. Ular tadqiqot natijalarini ilmiy asos bilan qo'llab-quvvatlash va inklyuziv sinflarda pedagogik jarayonni yanada rivojlantirish imkonini beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot inklyuziv ta'lim sharoitida korreksion pedagogikaning o'rni va ahamiyatini kompleks tarzda o'rganishga qaratilgan. Tadqiqotning metodologik asosini tizimli yondashuv, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim va integrativ prinsiplar tashkil

etdi. Nazariy poydevor sifatida quyidagi konseptual g'oyalarni tanlandi: shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, inklyuzivlik va teng imkoniyatlar tamoyili, differensial va individual yondashuv, ta'limni insonparvarlashtirish nazariyasi hamda ijtimoiy integratsiya g'oyalari. Ushbu yondashuvlar inklyuziv sinflarda korreksion pedagogik faoliyatni tizimli ravishda tashkil etishga imkon berdi.

Tadqiqot jarayonida bir nechta ilmiy metodlar qo'llanildi.

Avvalo, *ilmiy manbalarni tahlil qilish* orqali inklyuziv ta'lim va korreksion pedagogika sohasidagi monografiyalarni, ilmiy maqolalarni, o'quv qo'llanmalar hamda normativ-huquqiy hujjatlar o'rganildi. Shu jarayonda muammoning nazariy asoslari, rivojlanish bosqichlari va zamonaviy yondashuvlari aniqlashtirildi.

Shuningdek, *qiyosiy-tahliliy metod* qo'llanib, turli ilmiy maktab vakillarining qarashlari solishtirildi. Bu metod inklyuziv ta'lim sharoitida korreksion pedagogik ishlarni samarali tashkil etishning eng ma'qul yo'nalishlarini belgilashga yordam berdi. *Kuzatish metodi* orqali inklyuziv sinflardagi amaliy jarayonlar o'rganildi. O'quvchilarning o'zaro munosabatlari, pedagoglarning yondashuvlari va maxsus ehtiyojli bolalarning ta'lim jarayoniga moslashuvi bevosita kuzatildi.

Bundan tashqari, *pedagogik tajribani umumlashtirish* orqali ilg'or maktablar va ta'lim muassasalarida inklyuziv ta'lim bo'yicha qo'llanilgan samarali shakllar va metodlar tahlil qilindi. Ushbu tajribalar asosida korreksion pedagogik faoliyatni tashkil etishning amaliy yo'nalishlari aniqlashtirildi.

Olingan ma'lumotlar sifat tahlili asosida qayta ishlanib, mantiqiy umumlashtirish va ilmiy xulosalar chiqarildi. Shu tarzda, tadqiqot metodologiyasi inklyuziv ta'limda korreksion pedagogikaning ahamiyatini chuqur va tizimli yoritishga imkon berdi.

Inklyuziv ta'limning asosiy tamoyillari va korreksion pedagogikaning vazifalari

Inklyuziv ta'lim insonparvarlik tamoyillariga tayanib, ta'lim jarayonini har bir bola uchun teng va qulay qilishni maqsad qilgan. U bir nechta asosiy printsiplar asosida tashkil etiladi:

Tenglik va diskriminatsiyaga yo'l qo'ymaslik – har bir bola ta'lim olish huquqiga ega bo'lib, ajratish yoki kamsitish holatlari qat'iy rad etiladi. Ta'lim jarayonida barcha o'quvchilar teng sharoitda bilim olishlari ta'minlanadi.

Individual yondashuv – bolalarning qobiliyati, o'zlashtirish sur'ati va ehtiyojlari turlicha bo'ladi. Shu bois har bir o'quvchi uchun individual ta'lim rejasi ishlab chiqiladi va differensial metodlar qo'llaniladi.

Moslashtirilgan muhit – ta'lim muhiti arxitektura, metodik va psixologik jihatdan qulay bo'lishi lozim. Bu har bir bolaning ta'lim jarayoniga faol va samarali ishtirok etishini ta'minlaydi.

Hamkorlik – pedagoglar, psixologlar, defektologlar va ota-onalar o'zaro yaqindan hamkorlik qilishi zarur. Bunday integratsiya o'quv jarayonining sifatini oshiradi va ijtimoiy moslashuvni rag'batlantiradi.

Ijtimoiy integratsiya – inklyuziv ta'limning asosiy maqsadi maxsus ehtiyojli bolalarni jamiyatdan ajratmaslikdir. Tengdoshlar bilan birgalikdagi faoliyat ularning ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantiradi va bag'rikenglik muhitini yaratadi.

Uzluksizlik – inklyuziv ta'lim maktabgacha ta'limdan boshlab oliy ta'limgacha izchil davom etishi kerak. Bu bolalarning rivojlanishida uzluksizlik va metodologik izchillikni ta'minlaydi [4].

Korreksion pedagogika mazmuni va vazifalari

Korreksion pedagogika – rivojlanishida nuqson yoki cheklanish mavjud bolalarning ta'lim va tarbiya jarayonini ilmiy asosda tashkil etishga qaratilgan pedagogik yo'nalishdir. Uning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: [7]

rivojlanishdagi kamchiliklarni aniqlash va tahlil qilish;
individual takamillostiruvchi dasturlarni ishlab chiqish;
kompensatsion va korektiv mexanizmlarni shakllantirish;
bolalarning ijtimoiy moslashuvini ta'minlash.

Korreksion ishlar turli shakllarda amalga oshiriladi: individual mashg'ulotlar, kichik guruhli darslar, rivojlantiruvchi o'yinlar, psixologik treninglar va nutqni rivojlantirish mashqlari. Shu tarzda korreksion pedagogika bolalarning individual imkoniyatlarini hisobga olib, ularni jamiyatga muvaffaqiyatli moslashishiga yordam beradi.

Inklyuziv ta'limda korreksion pedagogikaning afzalliklari

Inklyuziv ta'lim sharoitida korreksion pedagogik yondashuv bir qator muhim afzalliklarni ta'minlaydi. Avvalo, ta'lim sifati oshadi. Maxsus ehtiyojli o'quvchilar uchun moslashtirilgan o'quv materiallari va differensial topshiriqlar qo'llanilganda mavzularni chuqurroq va mustahkamroq o'zlashtirish imkoniyati yaratiladi. Natijada o'quvchilar bilimlarda bo'shliqlarni kamaytiradi va o'zlashtirish ko'rsatkichlari sezilarli darajada yaxshilanadi. Shu bilan birga, sog'lom o'quvchilar ham individual yondashuvdan foyda ko'radi, chunki differensial metodlar butun sinf uchun qulay pedagogik muhit yaratadi.

Ikkinchi afzallik – o'quvchilarning motivatsiyasi kuchayadi. Kichik yutuqlarni e'tirof etish, rag'batlantirish va muvaffaqiyatlarni qadrlash tizimi o'quvchilarda o'ziga ishonchni oshiradi. Maxsus ehtiyojli bolalar o'z imkoniyatlariga bo'lgan ishonchini mustahkamlash orqali dars jarayonida faolroq ishtirok etadi va tashabbus ko'rsatishga intiladi. Motivatsiyaning ortishi esa umumiy ta'lim samaradorligiga bevosita ijobiy ta'sir qiladi.

Uchinchidan, ijtimoiy ko'nikmalar rivojlanadi. Jamoaviy topshiriqlar, guruh ishlari va hamkorlikka asoslangan mashg'ulotlar o'quvchilar o'rtasida empatiya, bir-biriga yordam berish va hamkorlik ko'nikmalarini shakllantiradi. Maxsus ehtiyojli bolalar tengdoshlari bilan faol muloqot qiladi, o'z fikrini ifodalaydi va guruh ishida ishtirok etadi. Bu esa ularning ijtimoiy faolligini oshiradi va sinfdagi ijtimoiy integratsiyani mustahkamlaydi.

To'rtinchidan, konfliktlar kamayadi. Korreksion pedagogik yondashuv asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar, empatiyani rivojlantirishga qaratilgan treninglar va bag'rikenglik muhiti o'quvchilar o'rtasida tushunmovchiliklar va nizolar sonini sezilarli darajada kamaytiradi. Shu bilan birga, ijobiy psixologik iqlim sinfda barqaror va sog'lom muhitni yaratadi.

Beshinchidan, har bir bolaning salohiyati to'liq ro'yobga chiqadi. Korreksion ishlar orqali o'quvchining kuchli tomonlari rivojlantiriladi, zaif tomonlari esa kompensatsiya qilinadi. Natijada har bir o'quvchi o'z imkoniyatlari doirasida muvaffaqiyatga erishadi va shaxs sifatida rivojlanadi. Shu tarzda, korreksion pedagogika nafaqat maxsus ehtiyojli bolalar, balki butun sinf jamoasi

uchun foydali bo‘lib, inklyuziv ta‘limning samaradorligini oshiradi [7].

Muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari

Inklyuziv ta‘limni amaliyotga joriy etish jarayonida bir qator muammolar yuzaga kelishi tabiiydir. Tadqiqot davomida aniqlangan asosiy muammolar va ularni bartaraf etish bo‘yicha taklif etilgan yechimlar quyidagilardan iborat:

Birinchi muammo – pedagoglarning tayyorgarligi yetarli emasligi. Ko‘plab o‘qituvchilar maxsus ehtiyojli bolalar bilan ishlash bo‘yicha yetarli bilim va ko‘nikmaga ega emas. Bu esa inklyuziv sinflarda metodik qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Ushbu muammoni hal etish uchun pedagoglarni qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarini tizimli ravishda tashkil etish, shuningdek, maxsus pedagogika, defektologiya va psixologiya yo‘nalishlari bo‘yicha treninglar o‘tkazish muhimdir.

Ikkinchi muammo – metodik materiallarning yetishmasligi. Inklyuziv ta‘lim o‘quv jarayonini moslashtirilgan o‘quv dasturlari, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, vizual va interaktiv vositalar orqali qo‘llashni talab qiladi. Shu bois ta‘lim muassasalarini zamonaviy didaktik materiallar bilan ta‘minlash va yangi vositalarni yaratish ta‘lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Uchinchi muammo – sinflarning haddan tashqari bandligi. O‘quvchilar sonining ko‘pligi individual yondashuvni qiyinlashtiradi. Bu holatda tyutorlar va yordamchi pedagoglarni jalb qilish, shuningdek, sinf yuklamasini optimallashtirish muhim choralaridan biridir.

To‘rtinchi muammo – ota-onalarning inklyuziv ta‘limga nisbatan turlicha munosabati. Ayrim ota-onalar maxsus ehtiyojli bolalar bilan bir sinfda o‘qish jarayoniga shubha bilan qarashi mumkin. Shu sababli ota-onalarni inklyuziv ta‘limning maqsad va afzalliklari bilan tanishtirish, tushuntirish ishlari, seminarlar va uchrashuvlar tashkil etish ijobiy munosabatni shakllantirishga xizmat qiladi.

Beshinchi muammo – mutaxassislar yetishmasligi. Maktablarda psixolog va defektolog shtatlarini kengaytirish zarur, chunki ularning mavjudligi korreksion ishlarni tizimli tashkil etish, diagnostika va maslahat xizmatlarini yo‘lga qo‘yish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalari. O‘tkazilgan ilmiy-tahliliy ishlar hamda inklyuziv sinflarda olib borilgan kuzatishlar natijalari shuni ko‘rsatdiki, korreksion pedagogik yondashuvni tizimli ravishda qo‘llash ta‘lim samaradorligiga sezilarli ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Avvalo, o‘quvchilarning o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari oshgani aniqlandi. Individual yondashuv, moslashtirilgan o‘quv materiallari va differensial topshiriqlar natijasida maxsus ehtiyojli o‘quvchilar dars jarayonida faolroq ishtirok eta boshladi.

Ularning mavzuni tushunish darajasi yaxshilandi, nazorat ishlari va og‘zaki javoblarda barqaror ijobiy o‘shish

kuzatildi. Shu bilan birga, sog‘lom o‘quvchilar ham individual yondashuvdan foyda ko‘rib, umumiy akademik natijalar yaxshilandi.

Tadqiqot davomida o‘quvchilarning ijtimoiy moslashuv darajasi ham sezilarli darajada yaxshilangani qayd etildi. Jamoaviy ishlarga asoslangan topshiriqlar, hamkorlikka yo‘naltirilgan metodlar va psixologik qo‘llab-quvvatlash elementlari o‘quvchilar o‘rtasidagi muloqotni mustahkamladi. Maxsus ehtiyojli bolalar tengdoshlari bilan erkinroq muloqot qila boshladi, guruh faoliyatida faol ishtirok etdi va o‘z fikrini ifodalashga intildi. Bu jarayon ularning jamoadagi o‘rnini mustahkamladi hamda ijtimoiy faolligini oshirdi.

Shuningdek, konflikt holatlarining kamaygani kuzatildi. Inklyuziv muhitda empatiyani rivojlantirish, o‘zaro hurmat va bag‘rikenglikni shakllantirishga qaratilgan mashg‘ulotlar natijasida o‘quvchilar bir-birining imkoniyatlarini yaxshiroq tushuna boshladi. Natijada tushunmovchiliklar va salbiy munosabatlar soni kamaydi, sinfda sog‘lom psixologik muhit qaror topdi.

Tadqiqot natijalari o‘quvchilarning o‘quv motivatsiyasi kuchayganini ham ko‘rsatdi. Individual yutuqlarni e‘tirof etish, rag‘batlantirish tizimini qo‘llash va kichik muvaffaqiyatlarni qadrlash o‘quvchilarda o‘ziga ishonchni oshirdi. Maxsus ehtiyojli bolalarda tashabbuskorlik kuchaydi, ular dars jarayonida faolroq qatnasha boshladi. Motivatsiyaning ortishi esa bilim sifatining yaxshilanishiga bevosita ta‘sir ko‘rsatdi.

Muhokama. Tadqiqot natijalari xalqaro miqyosda olib borilgan ilmiy izlanishlar xulosalari bilan hamohang ekanligi aniqlandi. Xususan, differensial va individual yondashuvga asoslangan ta‘lim modeli o‘quvchilarning akademik samaradorligini sezilarli darajada oshirishi ilmiy manbalarda ham tasdiqlangan. O‘quv jarayonini o‘quvchilarning ehtiyojlari, qobiliyatlari va rivojlanish sur‘atlariga moslashtirish bilimlarni chuqurroq o‘zlashtirish, mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish hamda o‘quv motivatsiyasini kuchaytirishga xizmat qiladi. Shu jihatdan inklyuziv sinflarda qo‘llanilgan korreksion pedagogik yondashuv natijalari ilg‘or xalqaro tajribalar bilan uyg‘unlik kasb etadi.

Xulosa. Korreksion pedagogika esa inklyuziv ta‘lim tizimining ajralmas tarkibiy qismi sifatida namoyon bo‘ladi. U ta‘lim sifatini oshirishga xizmat qiladi, chunki o‘quv jarayonini individual ehtiyojlarga moslashtirish orqali bilimlarning samarali o‘zlashtirilishini ta‘minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, inklyuziv ta‘lim va korreksion pedagogika o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lgan yagona pedagogik tizim sifatida qaralishi zarur. Ularning mujassam va tizimli qo‘llanilishi har bir bolaning shaxs sifatida kamolga etishiga, ijtimoiy moslashuviga hamda jamiyatda munosib o‘rin topishiga mustahkam imkoniyat yaratadi.

Adabiyotlar

1. Azizxo‘jaeva N.N Pedagogika. – Toshkent: «Sharq», 2020.
2. Amonov A., Qodirova M. Maxsus pedagogika va inklyuziv ta‘lim. – Toshkent: «Fan», 2022.
3. Nazarova N.M. Korreksion pedagogika va logopediya. – Toshkent: «Iqtisod-Moliya», 2007.
4. Omonova X.T. Inklyuziv ta‘lim: nazariya va amaliyot. – Toshkent: «Zebo Print», 2022.
5. Ishmuhamedov R., Saidahmedov N. Interfaol ta‘lim usullari. – Toshkent: «Tafakkur bo‘stoni», 2012.
6. Movlonova R., Voxidova N., Raxmonqulova N. Pedagogika nazariyasi va tarixi. – Toshkent: «Fan va texnologiya», 2010.
7. Yuldasheva M.A. Korreksion pedagogika asoslari. – Toshkent: «O‘qituvchi», 2021.

МАКТАБ О‘QUVCHILARINI HARAKAT FAOLIYATLARIGA O‘RGATISHDA VIDEO TAHLIL
VA RAQAMLI BIOMEKANIKA TEXNOLOGIYALARINI QO‘LLASH

Mamutov Polatbay Jumamuratovich – dotsent

mamutovpolatbay@gmail.com

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ТЕХНОЛОГИЙ ВИДЕОАНАЛИЗА И ЦИФРОВОЙ BIOMEKANIKI
ПРИ ОБУЧЕНИИ ШКОЛЬНИКОВ ДВИГАТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Мамутов Полатбай Жумамуратович – доцент

Нукусский государственный педагогический институт имени Ажинияза

USING VIDEOANALYSIS AND DIGITAL BIOMECHANICS TECHNOLOGIES
IN TEACHING MOTOR ACTIVITIES TO SCHOOLCHILDREN

Mamutov Polatbay Jumamuratovich – Associate Professor

Nukus State Pedagogical Institute named after Ajiniyaz

Tayanch so‘zlar: video tahlil, raqamli biomexanika, maktab o‘quvchilari, motor ko‘nikmalar, jismoniy tarbiya.

Rezyume. Maqolada maktab o‘quvchilarida harakatlar harakatlari hamda motor ko‘nikmalarini o‘rgatishda video tahlil va raqamli biomexanika texnologiyalarini qo‘llash samaradorligi o‘rganilgan. Zamonaviy tahlil usullari, shu jumladan markersiz harakatlarni kuzatish va 3D-modellash, o‘quvchilarning individual harakatlar xususiyatlarini aniqlash, texnik xatolarni tuzatish va jarohat xavfini kamaytirish imkonini beradi. Maqolada amaliyotda qo‘llaniladigan metodlar va pedagoglar uchun tavsiyalar ham taqdim etilgan.

Ключевые слова: видеонализ, цифровая биомеханика, школьники, двигательные навыки, физическое воспитание.

Резюме. В статье рассмотрена эффективность применения технологий видеонализа и цифровой биомеханики при обучении двигательным действиям школьников. Современные методы анализа, включая безмаркерный захват движения и 3D-моделирование, позволяют выявлять индивидуальные особенности двигательной активности, корректировать технику выполнения упражнений и снижать риск травматизма. Представлены практические рекомендации для педагогов по внедрению этих технологий в образовательный процесс.

Key words: video analysis, digital biomechanics, schoolchildren, motor skills, physical education.

Summary. The article explores the effectiveness of applying video analysis and digital biomechanics technologies in teaching motor skills to schoolchildren. Modern analysis methods, including markerless motion capture and 3D modeling, enable identification of individual movement patterns, correction of technique errors, and reduction of injury risk. Practical recommendations for teachers on integrating these technologies into the educational process are provided.

Kirish. Zamonaviy jismoniy tarbiya ta‘limi maktab o‘quvchilarida harakat ko‘nikmalarini o‘rgatish samaradorligini oshirish uchun raqamli texnologiyalarni joriy etish zarurati bilan to‘qnash kelmoqda. Og‘zaki ko‘rsatma va kuzatishga asoslangan an‘anaviy usullar har doim ham mashqlarni bajarish texnikasini obyektiv baholash va xatolarni tuzatish imkonini bermaydi.

Video tahlil va raqamli biomexanika texnologiyalarining rivojlanishi diagnostika, teskari aloqa va ta‘limni individuallashtirish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Video tahlil harakatlarni yuqori aniqlikda qayd etish, bo‘g‘im burchaklari, trayektoriyalar va tezlikni o‘lchash, raqamli biomexanika esa tananing 3D modellarini yaratish, yuklamalar dinamikasini baholash va texnika samaradorligini bashorat qilish imkonini beradi.

Tadqiqotning dolzarbligi bolalar va o‘smirlarda harakat ko‘nikmalarini tizimli shakllantirishga qiziqishning ortishi, shuningdek, murakkab koordinatsion harakatlarni o‘zlashtirishda jarohatlanish xavfini kamaytirish zarurati bilan izohlanadi. Ushbu maqolaning maqsadi maktab o‘quvchilarini jismoniy harakatlariga o‘rgatish uchun video tahlil va raqamli biomexanikani qo‘llash imkoniyatlarini ko‘rib chiqish, ushbu usullarning samaradorligini tahlil qilish va o‘qituvchilar uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Adabiyotlar sharhi. Zamonaviy tadqiqotlar jismoniy tarbiya ta‘lim amaliyotida videotahlil va raqamli biomexanika texnologiyalarining roli ortib borayotganligini tasdiqlamoqda. O‘qitishning an‘anaviy usullari ko‘pincha

pedagogning subyektiv bahosi bilan cheklanadi va maktab o‘quvchilarining harakatlari to‘g‘risida miqdoriy ma‘lumotlarni olish imkonini bermaydi. Shu nuqtayi nazardan, videotahlil va biomexanik modellashtirish obyektivlik va ko‘rgazmalilikni ta‘minlaydi, shuningdek, o‘qitishni individuallashtirish imkonini beradi [1, 3, 4].

"Decoding Motor Skills: Video Analysis Uncovers Age Specific Patterns in Childhood and Adolescent Movement" tadqiqoti turli yosh guruhlaridagi bolalarda sakrash, uloqtirish va yugurishni tahlil qilish uchun yuqori tezlikdagi videotasvirdan foydalanishni ko‘rsatadi. Mualliflar harakatlarning kinematik xususiyatlarida yosh va qisman gender farqlarini aniqladilar, bu esa asosiy harakat ko‘nikmalarini o‘rgatishga individual yondashuvning muhimligini ta‘kidlaydi [1].

Frontiers in Physiology "Examination of basic motor skills in children and adolescents" ishida o‘smirlar va bolalarning asosiy harakat ko‘nikmalarini tizimli ravishda baholab, pedagoglarga taraqqiyotni nazorat qilish uchun miqdoriy mezonlarni taqdim etadi. Ushbu ma‘lumotlar har bir o‘quvchining motor rivojlanish xususiyatlarini hisobga olgan holda dasturlarni ishlab chiqish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi [2].

Xitoyning "Sports Video Evaluation and Three dimensional Human Motion Simulation of Teenagers in Physical Exercise" tadqiqoti jismoniy tarbiya darslarida o‘smirlarning harakatlarini 3D modellashtirish samaradorligini ko‘rsatadi. Mualliflar texnikani baholash va uni takomillashtirish bo‘yicha takliflarni ishlab chiqish uchun video

tahlil va raqamli biomexanika kombinatsiyasidan foydalanadilar, bu esa harakatlarni o'rgatish sifatini oshirishga imkon beradi [7].

“Motion Capture Systems and Their Use in Educational Research” tizimli sharhi ta'lim tadqiqotlarida turli xil harakatni ushlab turish tizimlarining imkoniyatlarini tahlil qiladi. Mualliflarning ta'kidlashicha, markersiz harakatni suratga olish va holatni baholash texnologiyalari tanaga datchiklar o'rnatmasdan harakatlarni qayd etish imkonini beradi, bu esa ularni maktab amaliyoti uchun qulay va qulay qiladi [3].

Validatsiya tadqiqotlari, masalan, “The potential of human pose estimation for motion capture in sports: a validation study” (Sports Engineering, 2024) an'anaviy usullarga nisbatan markersiz tizimlarning yuqori aniqligini tasdiqlaydi. Ushbu ma'lumotlar jismoniy tarbiya darslarida zamonaviy kompyuter algoritmlarini joriy etish, harakatni miqdoriy tahlil qilish va real vaqt rejimida xatolarni tuzatish imkonini beradi [4].

Bundan tashqari, Garrido Lopez et al. va OpenCap ishlarida markersiz harakatni ushlab olishning sprint texnikasi va oyoqlar kinematikasini tahlil qilishda amaliy qo'llanilishi ko'rsatilgan. Bunday texnologiyalar jihozlar nuqtayi nazaridan arzon va murakkab dasturiy ta'minotni talab qilmaydi, bu esa ularni maktab ta'limi uchun istiqbolli qiladi [5,6].

Harakatlar o'zgaruvchanligini tahlil qilish muhim rol o'ynaydi. “Virtual reallik o'yin maydonchasidagi vazifada bolalar harakat o'zgaruvchanligidagi individual farqlar” (Human Movement Science, 2024) ishi shuni ko'rsatadiki, harakat o'zgaruvchanligi darajasi motorikaning individual xususiyatlarini aks ettiradi va pedagoglar mashqlarni har bir o'quvchiga moslashtirish uchun foydalanishlari mumkin [8].

Ta'limiy videodasturlar va raqamli biomexanika qo'llash, shuningdek, harakatlarni bajarish texnikasini to'g'rilash orqali bo'g'imlar va mushaklarga tushadigan yukni kamaytirish imkonini beradi, bu BMC Musculoskeletal Disorders tadqiqotida tasdiqlangan. Bunday yondashuvlar nafaqat ta'lim samaradorligini oshiradi, balki bolalar va o'smirlarda jarohatlarning oldini olishga ham yordam beradi [9].

Nihoyat, rus olimlari tadqiqotlari, shu jumladan Sankt-Peterburg politexnika universiteti [10] ishlari maktab o'quvchilarining yugurish texnikasini baholash uchun markersiz video tahlil va matematik modellashdan muvaffaqiyatli foydalanishni ko'rsatmoqda. Ushbu natijalar zamonaviy texnologiyalarni ta'lim amaliyotida ommaviy qo'llash uchun moslashtirish imkoniyatini ta'kidlaydi.

Shunday qilib, adabiyotlar sharhi shuni tasdiqlaydiki, videotahlil va raqamli biomexanika texnologiyalari maktab o'quvchilarini harakat faoliyatiga o'rgatishda samarali vosita hisoblanadi. Ular quyidagilarga ruxsat beradi:

- harakatlar haqida obyektiv miqdoriy ma'lumotlarni olish;
- har bir o'quvchining xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'limni individuallashtirish;
- texnikani sozlash va jarohatlanish xavfini kamaytirish;
- jismoniy tarbiya darslariga yangi raqamli texnologiyalarni joriy etish.

Uslub va materiallar. Adabiyotlarni tizimlashtirish va tahlil qilish uchun empirik tadqiqotlar va sharhlarni o'z

ichiga olgan 2023-2025-yillar uchun 10 ta dolzarb manbalardan foydalanildi. Ular orasida:

O'smirlar harakatlarini video tahlil qilish va 3D modellashtirish bo'yicha tadqiqotlar (Li & Cheng, 2025),

Markersiz harakatni ushlab turish va holatni baholash tizimlari haqida umumiy ma'lumotlar (Garrido-Lopez, 2024; OpenCap, 2024),

Bolalarda asosiy harakat ko'nikmalarining empirik tadqiqotlari (Decoding Motor Skills, 2024; Frontiers in Physiology, 2024).

Zamonaviy video tahlil metodologiyasi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. *Mashqlarni bajarishning asosiy lahzalarini suratga olish* uchun yuqori chastotali kameralar (60-120 kadr/s) yordamida harakatlarni suratga olish.

2. *Asosiy bo'g'imlar va tana segmentlarini dasturlar* (Kinovea, Dartfish, OpenCap) yoki markersiz ushlab turish tizimlari (markerless motion capture) yordamida belgilash.

3. *Kinematik va dinamik parametrlar tahlili*: bo'g'im burchaklari, harakat tezligi, amplitudasi, tayanch-harakat apparatiga tushadigan yuklama.

4. *Texnik xatolarni tuzatish va o'quv jarayonini tezlashtirish imkonini beruvchi o'quvchilar va o'qituvchilar uchun vizual va raqamli teskari aloqa.*

Natijalar va muhokama:

1. Ta'lim amaliyotida video tahlil

Dolzarb tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, video tahlil quyidagilarga imkon beradi:

- yugurish, sakrash, uloqtirish kabi asosiy harakatlarni bajarishda o'quvchilarning yutuqlarini xolisona qayd etish (Decoding Motor Skills, 2024);

- moslashuvchan ta'lim uchun muhim bo'lgan motorikaning individual xususiyatlarini va harakatlarning o'zgaruvchanligini aniqlash (Human Movement Science, 2024);

- vizual fikr-mulohaza berish: o'quvchilar o'z xatolarini ko'radilar va texnikani mustaqil ravishda tuzatishlari mumkin.

2. Raqamli biomexanika

Raqamli biomexanika qo'shimcha ravishda quyidagilarga imkon beradi:

- Jarohatlarning oldini olgan holda harakatlarni bajarishda bo'g'imlar va mushaklarga tushadigan yuklamani modellashtirish (BMC Musculoskeletal Disorders, 2024).

- Murakkab koordinatsion mashqlarni tahlil qilish uchun harakatlarning 3D modellarini yaratish (Li & Cheng, 2025).

- Maktabda foydalanish uchun tejamkor va qulay bo'lgan zamonaviy markersiz harakatni suratga olish tizimlaridan foydalanish (Garrido Lopez, 2024; OpenCap, 2024).

3. Texnologiyalarni qo'llashning afzalliklari

- Baholashning obyektivligi harakatlarning miqdoriy ko'rsatkichlari pedagoglarning subyektiv kuzatishlari o'rnini bosadi.

- Individual yondashuv: individual xususiyatlarni hisobga olgan holda texnikani tuzatish.

- Motivatsiyani oshirish: ko'rgazmali tasavvurlar va fikr-mulohazalar o'quvchilarni rag'batlantiradi.

- Masofaviy nazorat imkoniyati: ma'lumotlarni masofadan turib qayta ishlash, onlayn ta'lim yoki sportda teletibbiyot uchun foydalanish mumkin.

4. Cheklovlar

- O'qituvchilarning asosiy kompyuter savodxonligi va dasturiy ta'minot bilan ishlash ko'nikmalari talab etiladi.

- Kameralar, sensorlar yoki maxsus dasturiy ta'minot sotib olish zarurati.

- Ma'lumotlarni qayta ishlash va fikr-mulohazalarni tayyorlash vaqti.

Xulosa va tavsiyalar. Maktab o'quvchilarini harakat faoliyatlariga o'rgatishda videotahlil va raqamli biome-xanika texnologiyalarini joriy etish istiqbolli va samarali yo'nalish hisoblanadi. Ushbu texnologiyalar quyidagilarga imkon beradi:

Ta'lim sifatini oshirish va harakat ko'nikmalarini shakllantirish,

Murakkab mashqlarni o'zlashtirishda jarohat olish xavfini kamaytirish,

Har bir o'quvchining rivojlanishini xolis baholashni ta'minlash,

Harakatni tahlil qilishning zamonaviy usullarini maktab ta'limiga joriy etish.

Pedagoglar uchun tavsiyalar:

1. Jismoniy tarbiya darslarida video tahlil va biome-xanik usullarni oddiy mashqlardan boshlab asta-sekinlik bilan qo'llash.

2. Ommaviy foydalanish uchun mavjud markersiz tizimlardan foydalanish.

3. O'qituvchilarni dasturiy ta'minot bilan ishlash va ma'lumotlarni talqin qilish bo'yicha asosiy ko'nikmalarga o'rgatish.

4. Tahlil natijalarini maktab o'quvchilarining harakat ko'nikmalarini rivojlantirishning individual rejalariga kiritish.

Adabiyotlar

1. Decoding Motor Skills: Video Analysis Unveils Age-Specific Patterns in Childhood and Adolescent Movement. // *Children*, 2024, Vol. 11, № 11. Article 1351.

2. Examination of basic motor skills in children and adolescents. // *Frontiers in Physiology*. 2024. Article 1346750.

3. Motion Capture Systems and Their Use in Educational Research: Insights from a Systematic Literature Review. // *Education Sciences*. 2023, Vol. 13, № 2, Article 167.

4. The potential of human pose estimation for motion capture in sports: a validation study. // *Sports Engineering*, 2024.

5. Garrido-Lopez G., Gomez L.F., Fierrez J., Morales A., Tolosana R., Rueda J., Navarro E. VideoRun2D: Cost-Effective Markerless Motion Capture for Sprint Biomechanics. // arxiv preprint arxiv: 2409, 10175. 2024.

6. OpenCap markerless motion capture estimation of lower extremity kinematics and dynamics in cycling. // arxiv preprint arxiv: 2409.03766. 2024.

7. Li Zhenguang, Cheng Peng. Sports Video Evaluation and Three-dimensional Human Motion Simulation of Teenagers in Physical Exercise. // *Academic Journal of Computing & Information Science*, 2025. Vol. 8, № 4.

8. Individual differences in children's movement variability in a virtual reality playground task. // *Human Movement Science*, 2024. Vol. 89, Article 102751.

9. Effect of changes in motor skill induced by educational video program to decrease lower-limb joint load during cutting maneuvers: based on musculoskeletal modeling. // *BMC Musculoskeletal Disorders*. 2024, Vol. 25, Article 7642.

10. Исследование движения нижних конечностей человека с применением методов машинного обучения (безмаркерный видеоанализ + математическое моделирование). – Санкт-Петербург: Санкт-Петербургский политехнический университет, 2023.

UDK: 000.000.00:000

ORCID: 41405713500046

TABIY FANLARDA MUAMMOLI TA'LIM TEXNOLOGIYASI

Mirzabekova Gumshagul Xo'jabekovna – katta o'qituvchi

gumshagul.71@gmail.com

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

ТЕХНОЛОГИИ ПРОБЛЕМНО-ОРИЕНТИРОВАННОГО ОБУЧЕНИЯ В ЕСТЕСТВЕННЫХ НАУКАХ

Мирзабекова Гумшагуль Ходжабековна – старший преподаватель

Нукусский государственный педагогический институт имени Ажинияза

PROBLEM-BASED LEARNING TECHNOLOGY IN NATURAL SCIENCES

Mirzabekova Gumshagul Khujabekovna – senior lecturer

Nukus State Pedagogical Institute named after Ajiniyaz

Tayanch so'zlar: muammoli ta'lim, tabiiy fanlar, pedagogik texnologiyalar, kognitiv faollik, tanqidiy fikrlash, muammoli vaziyat, mustaqil izlanish, interaktiv metodlar, ta'lim metodikasi, innovatsion yondashuv, o'quvchi motivatsiyasi.

Rezyume. Maqolada boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni o'qitishda muammoli ta'lim texnologiyasini qo'llashning metodik asoslari va amaliy ahamiyati yoritilgan. Muallif dars jarayonida muammoli vaziyatlarni yaratish usullari o'quvchilarning mantiqiy tafakkuri va kognitiv faolligini oshirishga qanday xizmat qilishini tahlil qiladi. Tadqiqot natijalari muammoli yondashuv o'quvchilarning mustaqil izlanish va tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirishda an'anaviy metodlardan ustunligini ko'rsatadi.

Ключевые слова: проблемное обучение, естественные науки, педагогические технологии, познавательная активность, критическое мышление, проблемная ситуация, исследовательская деятельность, интерактивные методы, методика обучения, инновационный подход, мотивация учащихся.

Резюме. В статье освещаются методические основы и практическая значимость применения технологии проблемного обучения при преподавании естественных наук в начальных классах. Автор анализирует, как создание проблемных ситуаций в процессе урока способствует повышению логического мышления и познавательной активности учащихся. Результаты исследования показывают, что проблемный подход превосходит традиционные методы в развитии навыков самостоятельного поиска и исследовательской деятельности учащихся.

Key words: problem-based teaching, natural sciences, educational technologies, cognitive activity, critical thinking, problem situation, inquiry-based learning, interactive teaching methods, teaching methodology, innovative approach, student motivation.

Summary. The article highlights the methodological foundations and practical significance of using problem-based learning technology in teaching natural sciences in primary school. The author analyzes how creating problem situations during the lesson helps to increase students' logical thinking and cognitive activity. The research results show that the problem-based approach is superior to traditional methods in developing students' independent research and inquiry skills.

Kirish. Zamonaviy ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri – o'quvchilarga tayyor bilimlarni shunchaki yetkazish emas, balki ularni mustaqil fikrlashga, muammolarni tahlil qilishga va nostandart vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilishga o'rgatishdir. Ayniqsa, olamning moddiy va qonuniyatli asoslarini o'rganuvchi tabiiy fanlar (fizika, kimyo, biologiya, geografiya) darslarida o'quvchilarning kognitiv faolligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada muammoli ta'lim texnologiyasi an'anaviy o'qitish metodlaridan o'zining kreativligi va natijadorligi bilan ajralib turadi.

Muammoli ta'lim – bu o'qituvchi rahbarligida o'quvchining mustaqil izlanishi va o'quv muammolarini hal qilish orqali yangi bilimlarni o'zlashtirish jarayonidir [2:73]. Tabiiy fanlarni o'qitishda ushbu texnologiyani qo'llash o'quvchilarda ilmiy dunyoqarashning shakllanishiga, ularning tadqiqotchilik qobiliyatlarini rivojlanishiga hamda nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog'lashga xizmat qiladi. Bugungi axborotlashgan jamiyatda talab etilayotgan kompetensiyaviy yondashuv ham bevosita o'quvchining muammoli vaziyatlarda o'zini namoyon qila olishi bilan baholanadi.

Tabiiy fanlar darslarida muammoli ta'lim texnologiyasini joriy etishning metodik asoslari, dars jarayonida muammoli vaziyatlarni yaratish usullari va ushbu

yondashuvning ta'lim samaradorligini oshirishdagi o'rni katta ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, tabiiy jarayonlarni tajribalar va tahliliy topshiriqlar orqali o'rganishda muammoli yondashuvning afzalliklarini yoritib berish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Muammoli ta'lim kontsepsiyasi uzoq tarixga ega bo'lib, uning nazariy asoslari dastlab J.Dyui, J.Bruner va L.Vigotskiy kabi psixolog va pedagoglarning asarlarida o'z aksini topgan. J.Dyui ta'lim markazida o'quvchining mustaqil izlanishi va muammoni hal qilish orqali tajriba orttirishi turishi kerakligini ta'kidlagan.

Muammoli ta'lim nazariyasining metodik tizim sifatida shakllanishida rus olimlaridan I.Ya.Lerner, A.M.Matyushkin va M.I.Maxmutovlarning xizmatlari beqiyosdir. M.I.Maxmutov muammoli ta'limni «o'quvchi va o'qituvchining o'zaro hamkorlikdagi faoliyati bo'lib, u mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga yo'naltirilgan» deb ta'riflaydi.

Tabiiy fanlarni o'qitishda ushbu texnologiyaning o'ziga xosligi mahalliy olimlar va metodistlar tomonidan ham keng tadqiq etilgan. Jumladan, tabiiy fanlar darslarida muammoli vaziyatlarni laboratoriya ishlari va amaliy tajribalar bilan bog'lash orqali o'quvchining fan bo'yicha kompetensiyalarini shakllantirish mumkinligi zamonaviy

metodik nashrlarda o‘z tasdig‘ini topmoqda. Shuningdek, xalqaro PISA va TIMSS tadqiqotlari ham aynan muammoli vaziyatlarda o‘quvchining bilimni qo‘llash qobiliyatini baholashga qaratilganligi ushbu mavzuning dolzarbligini yanada oshiradi [3:45].

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolani tayyorlash jarayonida tabiiy fanlar (fizika, biologiya va kimyo) darslarida muammoli ta‘lim texnologiyasini qo‘llashning samaradorligini aniqlash maqsadida quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi:

1. Nazariy-qiyosiy tahlil: Mavzuga oid pedagogik va psixologik adabiyotlar, me‘yoriy hujjatlar hamda xalqaro ta‘lim standartlari tahlil qilindi.

2. Pedagogik kuzatuv: Tabiiy fanlar darslarida muammoli vaziyatlarni yaratish bosqichlari (muammoni qo‘yish, gipoteza yaratish, yechimni tekshirish) bevosita kuzatildi va baholandi.

3. Sintetik tahlil: Muammoli ta‘limning an‘anaviy dars shakllari bilan integratsiyasi o‘rganilib, samarali dars modellari ishlab chiqildi.

4. Sifat va miqdoriy tahlil: O‘quvchilarning mavzularni o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari muammoli o‘qitishdan oldin va keyingi holatda solishtirildi.

Tadqiqotning metodologik asosi sifatida tizimli yondashuv va faoliyatli yondashuv tamoyillari olindi. Bu esa tabiiy fanlar darslarida o‘quvchining shunchaki kuzatuvchi emas, balki faol tadqiqotchi sifatidagi rolini asoslab berishga xizmat qildi.

Tahlillar va natijalar. Tadqiqot jarayonida tabiiy fanlar (fizika, kimyo, biologiya) darslarida muammoli ta‘lim texnologiyasini qo‘llashning samaradorligi an‘anaviy o‘qitish metodikasi bilan qiyosiy tahlil qilindi. Tajribasinov ishlari umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining yuqori sinf o‘quvchilari o‘rtasida o‘tkazildi.

1. O‘quv faoliyati sifat ko‘rsatkichlarining tahlili.

O‘tkazilgan nazorat ishlari va amaliy topshiriqlar natijalari shuni ko‘rsatdiki, muammoli vaziyatlar asosida tashkil etilgan darslarda o‘quvchilarning mavzuni o‘zlashtirish sifati sezilarli darajada yuqori bo‘lgan.

2. Kognitiv faollik va mustaqil fikrlash tahlili.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, muammoli ta‘lim texnologiyasi o‘quvchilarda nafaqat bilim darajasini, balki kognitiv ko‘nikmalarni ham rivojlantiradi. Eksperimental guruh o‘quvchilarida quyidagi sifat o‘zgarishlari kuzatildi:

Gipoteza ilgari surish: O‘quvchilarning 70% dan ortig‘i muammoli vaziyatda hodisaning sababini tushuntiruvchi ilmiy taxminlarni mustaqil shakllantira oldi.

Analistik fikrlash: Laboratoriya mashg‘ulotlarida «Nima uchun?» va «Qanday qilib?» kabi savollarga javob izlash orqali o‘quvchilar hodisalarni qismlarga ajratish va umumlashtirishni o‘rgandilar.

Motivatsiyaning ortishi: Muammoli topshiriqlar o‘quvchilarda «kashfiyotchi»lik hissini uyg‘otganligi sababli, darsga bo‘lgan qiziqish nazorat guruhiga nisbatan 1,5 baravarga yuqori bo‘ldi.

3. Tajriba natijalari bo‘yicha pedagogik xulosalar.

Olingan natijalar tabiiy fanlarni o‘qitishda muammoli ta‘lim texnologiyasining samaradorligini quyidagicha asoslaydi:

1. Bilimlarning mustahkamligi: Muammo yechimini mustaqil topgan o‘quvchi ma‘lumotni tayyor shaklda qabul qilgan o‘quvchiga qaraganda uzoqroq xotirada saqlaydi.

2. Kompetensiyaviy yondashuv: O‘quvchilar nazariy qonuniyatlarni (masalan, fizika qonunlari yoki kimyoviy reaksiyalar) hayotiy muammolarni hal qilish vositasi sifatida ko‘ra boshladilar.

3. Faollik darajasi: Dars jarayonida o‘qituvchi asosiy axborot manbaidan maslahatchi (moderator) roliga o‘tdi, bu esa o‘quvchi subyektligini ta‘minladi.

Tabiiy fanlarni boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga o‘rgatishda muammoli ta‘lim texnologiyasi an‘anaviy dars tushunchasini butunlay o‘zgartirib, bolani passiv tinglovchidan faol tadqiqotchiga aylantiruvchi eng samarali yondashuvlardan biri hisoblanadi. Bu texnologiyaning tub mohiyati shundaki, o‘qituvchi o‘quvchilarga tayyor bilimlarni ma‘ruza shaklida bermaydi, balki dars jarayonida maxsus muammoli vaziyatni yuzaga keltiradi, natijada bolalarda ushbu jumboqni yechishga nisbatan kuchli ichki ehtiyoj va qiziqish uyg‘onadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yosh xususiyatlari, ya‘ni ularning dunyoni asosan his-tuyg‘ular, ko‘rish va ushlab ko‘rish orqali anglashini inobatga olgan holda, muammoli vaziyatlar ko‘pincha hayratlanish yoki ziddiyat tamoyiliga asoslanadi. Masalan, o‘qituvchi darsda suvning xususiyatlarini tushuntirishdan oldin, muz bo‘lagini suvga tashlab, uning cho‘kmayotganini ko‘rsatishi va «Nima uchun og‘ir jismlar cho‘kadi-yu, muz suzib yuribdi?» degan savolni o‘rtaga tashlashi bolalarda ilmiy izlanishga turtki beradi. Bunday yondashuvda bola o‘z tajribasiga tayanadi, gipotezalar, ya‘ni taxminlar ilgari suradi, o‘rtoqlari bilan bahslashadi va o‘qituvchi yordamida o‘tkazilgan kichik tajribalar orqali haqiqatni o‘zi kashf qiladi. Ushbu jarayonda o‘quvchining mantiqiy tafakkuri, nutqi va tahlil qilish qobiliyati jadal rivojlanadi, chunki u olingan ma‘lumotni shunchaki yodlamaydi, balki uning sabab-oqibat zanjirini tushunib yetadi.

Boshlang‘ich sinflarda tabiiy fanlar darslari ko‘pincha tabiat qo‘yniga sayohatlar yoki laboratoriya elementlari bilan boyitilgani sababli, muammoli ta‘lim bolalarda atrof-muhitga nisbatan ehtiyotkorona munosabatni va ekologik madaniyatni ham shakllantiradi. Masalan, o‘simlikning o‘sishi uchun zarur omillarni o‘rganishda o‘qituvchi bitta o‘simlikni quyoshli joyga, ikkinchisini qorong‘i qutiga solib qo‘yish orqali muammo qo‘yishi mumkin, bu esa bolani bir necha kun davomida jarayonni kuzatishga va mustaqil xulosa chiqarishga majbur qiladi. Bu usulning an‘anaviy darslardan asosiy farqi shundaki, unda xato qilishdan qo‘rqmaslik muhiti yaratiladi; har bir bolaning taxmini, u noto‘g‘ri bo‘lsa ham, ilmiy izlanishning bir qismi sifatida qabul qilinadi va tahlil qilinadi. Natijada, o‘quvchilarda nafaqat tabiiy fanlarga nisbatan barqaror qiziqish, balki hayotda duch keladigan har qanday muammoni tizimli tahlil qilish va yechim topish ko‘nikmasi, ya‘ni kompetensiyasi poydevori qo‘yiladi.

Muammoli ta‘lim dars samaradorligini keskin oshiradi, chunki o‘quvchi o‘zi mehnat qilib, izlanib topgan bilimni hech qachon unutmaydi va uni kundalik hayotda, masalan, uyda o‘simlik parvarish qilishda yoki ob-havo o‘zgarishlarini tushunishda bemalol qo‘llay oladi. Shu tarzda, boshlang‘ich ta‘lim bosqichidayoq bolada tanqidiy fikrlash va dunyoga ilmiy ko‘z bilan qarash shakllanadi, bu esa kelajakda aniq va tabiiy fanlarni yanada chuqur o‘zlashtirish uchun mustahkam zamin yaratadi.

Tabiiy fanlarni o‘qitish jarayonida muammoli ta‘lim texnologiyasidan foydalanish zamonaviy ta‘lim tizimining

kompetensiyaviy talablariga to'liq javob beradi. Tadqiqot va tahlillar shuni ko'rsatadiki, ushbu texnologiya o'quvchilarni shunchaki axborot qabul qiluvchi subyektlardan faol bilim o'zlashtiruvchi tadqiqotchilarga aylantiradi. Muammoli vaziyatlarni tizimli ravishda dars jarayoniga tatbiq etish orqali o'quvchilarda mantiqiy tafakkur, gipotezalar yaratish, hodisalarni qiyosiy tahlil qilish va eng muhimi, nazariy bilimlarni real hayotiy vaziyatlarda qo'llash ko'nikmalari shakllanadi.

Tabiiy fanlar (fizika, kimyo, biologiya) o'z mohiyatiga ko'ra tajriba va kuzatuvlarga asoslangani sababli, muammoli yondashuv dars samaradorligini an'anaviy metodlarga nisbatan o'rtacha 20-30% ga oshirish imkonini beradi. Biroq, ushbu texnologiyaning muvaffaqiyati

o'qituvchidan yuksak metodik mahorat, dars ssenariysini puxta rejalashtirish va har bir o'quvchining yosh hamda psixologik xususiyatlarini inobatga olishni talab etadi.

Xulosa. Xulosa o'rnida aytish mumkinki, muammoli ta'lim – bu shunchaki o'qitish usuli emas, balki shaxsni intellektual rivojlantirishning kuchli vositasidir. Kelajakda tabiiy fanlar darsliklarini muammoli topshiriqlar va keystadi metodlari bilan boyitish, shuningdek, raqamli texnologiyalar yordamida virtual muammoli laboratoriyalarni yaratish ta'lim sifatini yanada yuqori bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi. Bu esa o'z navbatida, o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashini kengaytirib, ularni kelajakdagi professional faoliyatlarida murakkab muammolarni ijodiy hal qilishga tayyorlaydi.

Adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: «O'zbekiston», 2021.
2. Mahmutov M.I. Muammoli ta'limni tashkil etish: Maktab o'qituvchilari uchun metodik qo'llanma. (Rus tilidan tarjima). – Toshkent: «O'qituvchi», 1980.
Shaxsiy tajriba shuni ko'rsatadiki, erta yoshdagi bolalar bilan ishlashda samarali pedagogik vositalardan biri logoritmika hisoblanadi. Logoritmika – bu logopedik, musiqiy-ritmik va jismoniy tarbiya vositalarini o'zida mujassam etgan kompleks metodikadir.

Asosiy qism. Kompleks usulning muhim bo'g'inlaridan biri – logopedik ritmika bo'lib, u kinezoterapiya vositalari,

logopedik korreksiya va musiqiy-ritmik faoliyatning sintezi sifatida namoyon bo'ladi [1].

Logoritmik kompleks – bu o'ziga xos harakatli mashqlar tizimi bo'lib, unda motor faoliyati maxsus nutqiy materiallarni talaffuz qilish bilan uyg'unlashadi [2]. Ayniqsa, bu usul erta yoshdagi bolalar tomonidan qulay va oson qabul qilinadi.

Logoritmika ko'p funksiyali metodika bo'lib, u turli nutqiy va funksional muammolarni hal etishga xizmat qiladi. Jumladan: nutqiy va unga hamroh bo'ladigan buzilishlarni bartaraf etish, nutqiy va nonutqiy psixik funksiyalarni rivojlantirish va korreksiya qilish, shuningdek, insonning tashqi va ichki muhit sharoitlariga moslashuvini ta'minlash.

Logoritmik mashg'ulotlarda quyidagi vazifalar hal etiladi:

- yuqori psixik funksiyalarni rivojlantirish va faoliyatni takomillashtirish (eshitish va ko'rish diqqatini rivojlantirish orqali);

- eshitish va ko'rish idrokini rivojlantirish;
- xotirani rivojlantirish;
- harakat va artikulyatsiya ko'nikmalarini mustahkamlash;

- harakat kinesteziyasini rivojlantirish;
- fazoda orientatsiya va ko'rish-harakat koordinatsiyasi qobiliyatini rivojlantirish;

- motor ko'nikmalarini shakllantirish;
- musiqiy, tovush balandligi, tembr, dinamik eshitishni rivojlantirish;

- nutq motorikasini rivojlantirish (tovushlarni artikulyatsion asosda shakllantirish, nutq tempi va ritmini rivojlantirish);

- to'g'ri nafas olish va vokal diapazonni rivojlantirish;
- ritm hissi va eshitish diqqatini rivojlantirish.

Mashg'ulotlar jarayonida bolalarda suyak-mushak apparati va oyoq kaftlari mustahkamlanadi, qomat to'g'rilanadi, nafas olish mashq qilinadi, yirik va mayda motorika koordinatsiyasi shakllanadi, sezgi idroki noziklashadi, muvozanat, nafislik, chiroyli yurish malakasi hosil bo'ladi. Umuman olganda, logoritmika bolaning jismoniy yetukligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi va jismoniy faolligini oshiradi.

Shu bilan birga, jismoniy va motor faoliyat nutqiy faoliyat bilan bir vaqtda olib boriladi. Tovushlarni talaffuz qilish bu yerda harakat-makon mashqlarining asosiy elementlaridan biri hisoblanadi. Nutq ritmi harakatlarga maxsus tempo beradi, ayniqsa, u mashqlarga qofiyalar, she'rlar, xalq qo'shiqlari, ohanglar orqali qo'shilganda. Bularning barchasi koordinatsiya va ixtiyoriylikning shakllanishiga yordam beradi.

Ritmik ko'nikmalarning rivojlanishi fazoviy-vaqt munosabatlarini anglash bilan chambarchas bog'liq [3]. Harakat ritmi nutq mexanizmlarining shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi. Ritm hissi poetik satrlarni, folklor namunalarini, turli janrdagi musiqiy asarlarni osonroq o'zlashtirish va tushunishga ko'maklashadi. Shu bois zamonaviy maktabgacha ta'lim muassasalarida logoritmik mashg'ulotlarni o'tkazish juda dolzarb hisoblanadi.

Logoritmik metodikaning erta yoshdagi bolalar bilan ishlashdagi o'ziga xosligi shundan iboratki, harakatli topshiriqlarga nutq materiali kiritiladi va uning sifati topshiriqlarni bajarish jarayonida shakllantiriladi.

Shuni ham ta'kidlash kerakki, logoritmik mashg'ulotlar ko'pincha musiqiy hamrohlikda o'tadi. Musiqa bu jarayonda boshqaruvchi ahamiyat kasb etadi.

Logoritmik mashqchi zamonaviy maktabgacha ta'limda sog'lomlashtirish tamoyillarini amalga oshiradi, bolalarga ehtiyotkorona yondashuvni ta'minlaydi. Bu mashqlar bolalarni kompleks rivojlantiradi, shuningdek, ularning axloqiy va irodaviy sohalariga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi, bola shaxsining shakllanishida muhim iz qoldiradi. Mazkur tadqiqot jarayonida kompleks pedagogik va logopedik yondashuv asosida kuzatish, suhbat, amaliy mashg'ulot hamda qiyosiy tahlil metodlaridan foydalanildi. Tadqiqotning asosiy maqsadi erta yoshdagi bolalarda logoritmik mashqlarning nutq rivojiga ta'sirini aniqlashdan iborat bo'ldi. Mashg'ulotlar davomida bolalarning nutqiy faolliqi, tovush talaffuzi, eshitish diqqati, harakat koordinatsiyasi hamda ritmni his etish qobiliyatidagi o'zgarishlar muntazam ravishda kuzatildi.

Logoritmik mashg'ulotlar bosqichma-bosqich tashkil etildi. Dastlab bolalarda umumiy motorika, nafas olish va eshitish diqqati rivojlantirildi. Keyingi bosqichlarda esa artikulyatsion mashqlar, ritmik harakatlar, musiqa bilan uyg'unlashtirilgan nutqiy topshiriqlar hamda harakatli o'yinlardan foydalanildi. Mashg'ulotlarda ritm, tempo va harakatlarning izchilligiga alohida e'tibor qaratildi. Chunki ilmiy tadqiqotlarda ritmik harakatlar bosh miya faoliyatini faollashtirishi, sensor-motor bog'lanishlarni kuchaytirishi va nutq mexanizmlarining shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi ta'kidlangan.

Mashg'ulotlar davomida bolalarning yosh va individual xususiyatlari hisobga olindi. Ayniqsa, erta yoshdagi bolalarda diqqatning tez chalg'ishi va emotsional holatning beqarorligi sababli topshiriqlar qisqa, qiziqarli hamda o'yin shaklida tashkil etildi. Musiqiy jo'rlikdan foydalanish esa bolalarning mashg'ulotlarga bo'lgan qiziqishini oshirib, ularning emotsional faolligini rag'batlantirdi. Shu bilan birga, ritmik she'rlar, qo'shiqlar va xalq og'zaki ijodi namunalaridan foydalanish bolalarning lug'at boyligini kengaytirishga ham xizmat qildi. Tadqiqot metodologiyasining muhim jihatlaridan biri logoritmik mashqlarning kompleks xarakterga egaligidir. Chunki ushbu metodika bir vaqtning o'zida nutq, motorika, eshitish diqqati, koordinatsiya va psixik jarayonlarning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Bu esa logoritmik mashg'ulotlarning maktabgacha ta'lim tizimidagi korreksion-pedagogik ishlar samaradorligini oshirishdagi ahamiyatini belgilaydi.

Logoritmik mashqlarning asosiy ustunliklaridan biri ularning qulayligi va soddaligidir. Bu ayniqsa erta yoshdagi bolalar uchun muhim, chunki nutqiy faoliyat ular uchun oson kechmaydi, ayrim bolalar hatto gapirmaydi, balki bu sohada dastlabki qadamlarni tashlaydilar. Aynan logoritmika nutq rivojlantirishdagi qiyinchiliklarni yengishga yordam beradi. Uning qiziqarli o'yin shakli, musiqiyliqi tarbiyaviy-ta'limiy vazifalarni o'yin vazifasi sifatida maskalaydi. O'yin vazifasini esa bolalar juda osonlik bilan bajaradilar, chunki ularning motivatsiyasi yuqori, qiziqish mavjud, ular topshiriqlarni diqqat bilan tinglaydilar, yaxshiroq diqqatni jamlaydilar va vazifani aniq bajarishga intiladilar.

Albatta, logoritmik mashg'ulotlar jarayonida bolalarda muloqotga bo'lgan umumiy ehtiyoj rag'batlantiriladi, chunki mashg'ulotlarda yaratilgan muhit nihoyatda qulay, samimiy, quvnoq va erkin bo'ladi. Bolalar topshiriqlarni bajarishda o'zlarini siquv va zo'riqishsiz his qiladilar, ish jarayoni yengil va tabiiy kechadi.

Logoritmik mashg'ulotlar umumiy va mayda harakatlarni korreksiyalashga, "nutq – harakat" koordinatsiyasini rivojlantirishga, bolalar lug'atini kengaytirishga yo'naltirilgan bo'lib, ular psixofizik funksiyalarni takomillashtirishga, emotsionallikni rivojlantirishga, muloqot ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi.

Tadqiqot jarayonida olingan natijalar logoritmik mashqlarning erta yoshdagi bolalar nutq rivojiga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqladi. Mashg'ulotlar davomida bolalarda nutqiy faollikning ortgani, tovushlarni talaffuz qilishdagi kamchiliklarning asta-sekin kamaygani hamda muloqotga kirishish ehtiyojining kuchaygani kuzatildi. Ayniqsa, ritmik harakatlar va musiqa bilan uyg'unlashtirilgan mashqlar bolalarning eshitish diqqati va nutqiy idrokini rivojlantirishda samarali vosita bo'lib xizmat qildi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, logoritmik mashg'ulotlarda muntazam qatnashgan bolalarda umumiy va mayda motorika rivojlanishi tezlashgan. Bu esa nutq apparati harakatlarining faollashishiga va artikulyatsion ko'nikmalarning shakllanishiga ijobiy ta'sir etgan. Ilmiy tadqiqotlarda ham qo'l barmoqlari harakatlari bilan nutq markazlari o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjudligi qayd etilgan. Shu sababli logoritmik mashqlarda mayda motorikani rivojlantirishga qaratilgan topshiriqlardan foydalanish nutq rivojlanishini jadallashtiradi.

Mashg'ulotlar natijasida bolalarda diqqatning barqarorligi va topshiriqlarni oxirigacha bajarish ko'nikmalari ham yaxshilangani kuzatildi. Dastlab mashg'ulot davomida tez chalg'igan bolalar keyinchalik topshiriqlarni faol va qiziqish bilan bajarishga intildilar. Musiqaning emotsional ta'siri bolalarda ijobiy kayfiyatni shakllantirib, o'ziga bo'lgan ishonchni oshirdi.

Shuningdek, logoritmik mashg'ulotlar bolalarning ijtimoiy moslashuviga ham ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Guruhli mashqlar davomida bolalarda jamoada ishlash, bir-birini tinglash va o'zaro muloqot qilish ko'nikmalari shakllandi. Bu esa ularning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda muhim omil bo'ldi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, logoritmika nafaqat nutqni rivojlantirish, balki bolaning umumiy psixofiziologik rivojlanishini qo'llab-quvvatlovchi samarali pedagogik texnologiya hisoblanadi.

Xulosa va takliflar. Ta'kidlash joizki, logoritmika – bu erta yoshdagi bolalarda nutqni rivojlantirishning samarali metodlaridan biridir. Logoritmik mashqlar nafaqat maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy yetukligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, balki ularni turli nutqiy ko'nikmalarni egallashga yo'naltiradi, nutqiy to'siqlarni bartaraf etadi, mavjud nutqiy muammolarni o'yin shaklida korreksiyalaydi hamda nutq rivojidagi orqada qolishlarni kompensatsiya qiladi.

Logoritmik mashg'ulotlarning natijasi sifatida erta yoshdagi bolalarning nutqqa muvaffaqiyatli kirib borishi ta'minlanadi, bu esa ularning keyingi hayotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalari asosida shuni xulosa qilish mumkinki, logoritmika erta yoshdagi bolalarda nutqni rivojlantirishning samarali va kompleks metodlaridan biri hisoblanadi. Ushbu metodika orqali bolalarda nutqiy faollik, eshitish diqqati, ritm hissi, artikulyatsion harakatlar hamda umumiy motorika bir vaqtning o'zida rivojlantiriladi. Bu esa logoritmik mashg'ulotlarning korreksion-pedagogik ahamiyatini yanada oshiradi.

Logoritmik mashqlar bolalarda nutqiy to'siqlarni kamaytiradi, tovush talaffuzini yaxshilaydi hamda muloqotga kirishish motivatsiyasini kuchaytiradi. Ayniqsa, mashg'ulotlarning o'yin va musiqiy faoliyat asosida tashkil etilishi bolalarning mashg'ulotlarga qiziqishini oshiradi va ta'lim jarayonining tabiiy hamda samarali kechishini ta'minlaydi.

Shuningdek, logoritmika bolaning nafaqat nutqiy, balki jismoniy, emotsional va ijtimoiy rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Mashg'ulotlar davomida bolalarda mustaqillik, intizom, jamoada ishlash va o'z harakatlarini boshqarish kabi muhim sifatlar shakllanadi.

Kelgusida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida logoritmik mashg'ulotlarni yanada keng joriy etish, tarbiyachi va logopedlarning ushbu yo'nalishdagi metodik tayyorgarligini oshirish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, otionalarni logoritmikaning ahamiyati bilan tanishtirish va uy sharoitida oddiy ritmik mashqlardan foydalanishni tavsiya etish bolalar nutq rivojlanishining samaradorligini yanada oshiradi.

Adabiyotlar

1. Шашкина Г.Р. Логопедическая ритмика для дошкольников с нарушениями речи. Учебное пособие для вузов. – Москва: «Юрайт», 2023.
2. Елисеева Е.И. Ритмика в детском саду. – Москва: «Перспектива», 2012.
3. Аюпова М.Ю. Логопедия. Дарслик. – Тошкент: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти нашриёти, 2019.

УДК 378.147

**РАЗВИТИЕ АКАДЕМИЧЕСКОГО ПИСЬМА У СТУДЕНТОВ
ПЕДАГОГИЧЕСКИХ НАПРАВЛЕНИЙ**

Толегенова Гулайым Жангабергеновна – старший преподаватель
tolegenova4944@gmail.com

Нукусский государственный педагогический институт имени Ажинияза

PEDAGOGIKA YO‘NALISHLARI TALABALARIDA AKADEMIK YOZUVNI RIVOJLANTIRISH

Tolegenova Gulayim Jangabergenovna – katta o‘qituvchi
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

DEVELOPMENT OF ACADEMIC WRITING IN STUDENTS OF TEACHER EDUCATION

Tolegenova Gulayim Jangabergenovna – Senior Lecturer
Nukus State Pedagogical Institute named after Ajiniyaz

Таянч сўзлар: академик ёзув, педагогик таълим, ёзма компетенция, илмий матн, олий таълим, касбий тайёргарлик.

Резюме. Мақолада педагогик тайёргарлик йўналишлари талабаларида академик ёзувни ривожлантириш муаммосининг муаллифлик талқини келтирилган. Олий таълимни модернизациялаш шароитида бўлажак ўқитувчиларнинг ёзма илмий компетенциясини шакллантириш бўйича тизимли ишларни амалга ошириш зарурлиги асосланган. Тадқиқотнинг мақсади академик ёзувни шакллантиришнинг таркибий-функционал моделини ишлаб чиқишдан иборат.

Ключевые слова: академическое письмо, педагогическое образование, письменная компетенция, научный текст, высшая школа, профессиональная подготовка.

Резюме. В статье представлено авторское осмысление проблемы развития академического письма у студентов педагогических направлений подготовки. Обосновывается необходимость системной работы по формированию письменной научной компетенции будущих педагогов в условиях модернизации высшего образования. Цель исследования заключается в разработке структурно-функциональной модели формирования академического письма, учитывающей профессиональную специфику педагогической деятельности.

Key words: academic writing, teacher education, written competence, scientific text, higher education, professional training.

Summary. The article is devoted to the development of academic writing among students of pedagogical training programs. The relevance of forming scientific written competence in the context of higher education modernization is substantiated. The purpose of the research is to theoretically justify and develop methodological conditions for the formation of academic writing of future teachers. The methodological basis includes competence-based, discursive and activity approaches.

Введение. Развитие академического письма в системе высшего педагогического образования приобретает стратегическое значение в условиях усиления исследовательской составляющей подготовки будущего учителя. Современное высшее педагогическое образование ориентировано на формирование исследовательской и коммуникативной культуры будущего специалиста. Одним из ключевых компонентов данной подготовки является академическое письмо как форма профессиональной письменной коммуникации.

В условиях цифровизации науки и роста публикационной активности требования к качеству студенческих научных текстов существенно возрастают [1:21]. Современный педагог выступает не только транслятором знаний, но и участником профессионального научного диалога, что предполагает владение нормами академического дискурса. Анализ научной литературы показывает, что академическое письмо рассматривается как интегративная компетенция, включающая когнитивные, языковые и дискурсивные компоненты. Однако специфика подготовки будущих педагогов требует дополнительного методического осмысления данной проблемы. Сложившаяся ситуация

свидетельствует о необходимости переосмысления методических подходов к обучению академическому письму и разработки целостной модели его формирования в структуре педагогической подготовки.

Теоретические основания исследования. Академическое письмо целесообразно рассматривать как интегративную компетенцию, включающую совокупность знаний, умений и ценностных установок, обеспечивающих создание научного текста в соответствии с нормами профессионального сообщества. В структуре данной компетенции можно выделить когнитивный, операциональный, коммуникативный и рефлексивный компоненты.

Когнитивный компонент связан с пониманием логики научного исследования и принципов построения аргументации. Операциональный компонент отражает способность структурировать текст формулировать проблему, цель и выводы. Коммуникативный компонент предполагает ориентацию на адресата и соблюдение жанровых требований. Рефлексивный обеспечивает самоконтроль и редактирование письменного высказывания. С позиций компетентностного подхода академическая письменная компетенция представляет собой способность создавать научные тексты в

соответствии с нормами академического дискурса. Она включает умение формулировать проблему, выстраивать аргументацию, корректно использовать источники и соблюдать нормы академической этики [2:33].

Исследователи подчеркивают значимость дискурсивного аспекта академического письма, предполагающего владение жанровыми моделями научной статьи, аннотации, рецензии. Для студентов педагогических направлений данная компетенция приобретает особое значение, поскольку будущий учитель транслирует образцы научной речи обучающимся [3:42].

Методические условия формирования академического письма. Важным методическим условием формирования академического письма у студентов педагогических направлений является поэтапная организация учебного процесса с учетом принципа постепенного усложнения. На начальном этапе особое внимание следует уделять формированию базовых навыков: умению формулировать тезис, выстраивать логическую структуру текста, использовать элементарные средства академической связанности. В дальнейшем целесообразно переходить к более сложным видам письменной деятельности, включая написание аналитических эссе, рецензий и научных статей. На втором этапе формируются навыки работы с источниками, цитирования и оформления библиографических ссылок. На завершающем этапе развивается рефлексивная составляющая – способность к саморедактированию и экспертной оценке текста [4:47].

Эффективность обучения повышается при интеграции заданий по академическому письму в содержание профильных дисциплин, использовании формирующего оценивания и организации научного наставничества. Важным условием является формирование ценностного отношения к академической честности и предотвращение плагиата. Критериями сформированности компетенции выступают логическая целостность текста, доказательность выводов, корректность цитирования, языковая точность и способность к критическому самоанализу.

Не менее значимым условием выступает интеграция обучения академическому письму в профессиональный контекст подготовки будущих педагогов. Это предполагает использование заданий, непосредственно связанных с их будущей профессиональной деятельностью: анализ педагогических ситуаций, написание

методических рекомендаций, оформление результатов педагогических наблюдений. Такой подход способствует не только развитию письменной речи, но и формированию профессионального мышления.

Особую роль играет организация систематической обратной связи. Эффективное обучение академическому письму невозможно без детального анализа письменных работ студентов, включающего как указание на ошибки, так и рекомендации по их устранению. При этом важно применять разнообразные формы обратной связи: индивидуальные комментарии преподавателя, взаимное рецензирование работ студентами, а также использование критериев оценивания, заранее доведенных до обучающихся.

Следующим значимым условием является формирование у студентов навыков саморедактирования и рефлексии. Обучающиеся должны овладеть умением критически оценивать собственный текст, выявлять логические несоответствия, стилистические неточности и грамматические ошибки для этого могут алгоритмы проверки текста, а также практики повторного написания. Что способствует более глубокому усвоению норм академического письма.

Кроме того, важным методическим условием является использование цифровых образовательных ресурсов. Применение онлайн-платформ, тестовых редакторов с функциями проверки грамматики и стиля, а также специализированных программ для антиплагиата способствует повышению качества письменных работ и формированию у студентов ответственности за академическую добросовестность [5:60].

Заключение. Таким образом, развитие академического письма у студентов педагогических направлений представляет собой целенаправленный и поэтапный процесс, интегрированный в профессиональную подготовку будущего учителя. Реализация предложенной модели позволяет обеспечить формирование устойчивых навыков научной коммуникации и повысить качество исследовательской деятельности обучающихся. Предложенная модель поэтапного формирования письменной компетенции обеспечивает целостность и профессиональную направленность подготовки. Перспективы дальнейших исследований связаны с разработкой диагностических инструментов оценки уровня сформированности академической письменной компетенции.

Литература

1. Зимняя И.А. Ключевые компетенции как результат образования. – Москва: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2004.
2. Хуторской А.В. Компетентностный подход в образовании – Москва: «Эйдос», 2013.
3. Бахтин М.М. Эстетика словесного творчества. – Москва: «Азбука», 2016.
4. Ярская-Смирнова Е.Р. Академическое письмо в высшей школе. – Москва: ВШЭ, 2015.
5. Кузнецова Н.А. Академическое письмо: теория и практика. – Москва: «Флинта», 2018.

TA'LIM KLASTERIDA O'QUV-TARBIYAVIY JARAYON SIFATINI NAQSHBANDIYA TA'LIMOTI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISHNING KONSEPTUAL MODEL

Ubaydova Vazira Erkinovna – *pedagogiga fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent*
amikomjon@mail.ru

Buxoro davlat texnika universiteti

КОНЦЕПТУАЛЬНАЯ МОДЕЛЬ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ КАЧЕСТВА УЧЕБНО-ВОСПИТАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ КЛАСТЕРЕ НА ОСНОВЕ УЧЕНИЯ НАКШБАНДИИ

Убайдова Вазира Эркиновна – *доктор философии педагогических наук, доцент*
Бухарский государственный технический университет

CONCEPTUAL MODEL FOR IMPROVING THE QUALITY OF THE EDUCATIONAL PROCESS IN AN EDUCATIONAL CLUSTER BASED ON THE NAQSHBANDI TEACHING

Ubaydova Vazira Erkinovna – *Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor*
Bukhara State Technical University

Tayanch soʻzlar: taʼlim klasteri, Naqshbandiya taʼlimoti, oʻquv-tarbiyaviy jarayon, taʼlim sifati, konseptual model, maʼnaviy tarbiya, shaxs kamoloti, klasterli hamkorlik, pedagogik sifat, ijtimoiy masʼuliyat.

Rezyume. Maqolada taʼlim klasteri sharoitida oʻquv-tarbiyaviy jarayon sifatini takomillashtirish masalasi Naqshbandiya taʼlimotining maʼnaviy-axloqiy, mehnatga yoʻnaltirilgan va ijtimoiy masʼuliyatga asoslangan gʻoyalari bilan uygʻun holda tahlil qilinadi.

Ключевые слова: образовательный кластер, учение Накшбандии, учебно-воспитательный процесс, качество образования, концептуальная модель, духовное воспитание, развитие личности, кластерное сотрудничество, педагогическое качество, социальная ответственность.

Резюме. В статье рассматривается проблема совершенствования качества учебно-воспитательного процесса в условиях образовательного кластера в гармонии с духовно-нравственными, трудоориентированными и социально ответственными идеями учения Накшбандии.

Key words: educational cluster, Naqshbandi teaching, educational process, quality of education, conceptual model, spiritual education, personality development, cluster cooperation, pedagogical quality, social responsibility.

Summary. The article analyzes the issue of improving the quality of the educational process within the framework of an educational cluster in harmony with the spiritual-moral, labor-oriented, and socially responsible ideas of the Naqshbandi teaching.

Kirish. Bugungi globallashuv, raqamli transformatsiya va ijtimoiy-madaniy yangilanishlar sharoitida taʼlim tizimi oldida nafaqat bilimli, balki maʼnaviy yetuk, ijtimoiy masʼuliyatli, mustaqil fikrlaydigan, mehnatsevar va insonparvar shaxsni tarbiyalash vazifasi turibdi. Taʼlim sifati tushunchasi endilikda faqat oʻquv natijalari, reyting koʻrsatkichlari yoki fanlarni oʻzlashtirish darajasi bilan cheklanmaydi [1:205]. Taʼlim klasteri esa zamonaviy pedagogikada turli taʼlim bosqichlari, ilmiy-metodik markazlar, oila, mahalla, ishlab chiqarish, madaniy-maʼrifiy muassasalar va ijtimoiy hamkorlik subyektlarini yagona maqsad atrofida birlashtiruvchi tizimli yondashuv sifatida qaraladi. YuNESKO manbalarida maktab klasterlari va resurs markazlari taʼlim resurslaridan samarali foydalanish, oʻquv jarayoni sifatini yaxshilash va taʼlim muassasalari oʻrtasida hamkorlikni kuchaytirish vositasi sifatida izohlanadi. Oʻzbekiston tajribasida ham pedagogik taʼlim klasteri taʼlim, ilmiy-metodik, tarbiyaviy va boshqaruv jarayonlarini uzviy bogʻlashga xizmat qiluvchi moslashuvchan tizim sifatida talqin qilinadi.

Adabiyotlar tahlili. Taʼlim sifati masalasi xalqaro pedagogik tadqiqotlarda koʻp omilli, tizimli va natijaga yoʻnaltirilgan jarayon sifatida talqin qilinadi. YuNISEF va YuNESKO doirasida ishlab chiqilgan sifatlil taʼlim konsepsiyalarida taʼlim sifati oʻquvchi shaxsining rivojlanishi, oʻqitish jarayoni, taʼlim muhiti, qoʻllab-quvvatlovchi resurslar va ijtimoiy natijalar bilan bogʻliq holda izohlanadi.

Taʼlim klasteri konsepsiyasi esa taʼlim muassasalarining alohida-alohida faoliyatini emas, balki ularning oʻzaro bogʻlangan, hamkorlikka asoslangan va yagona pedagogik maqsadga yoʻnaltirilgan tizimini nazarda tutadi. M.Bray

tadqiqotlarida maktab klasterlari taʼlimni mikro-rejalashtirish, mahalliy sharoitlarni hisobga olish va resurslardan oqilona foydalanish imkonini beruvchi mexanizm sifatida izohlanadi [2:143]. U.N.Xodjamqulov tomonidan pedagogik taʼlim klasteri Oʻzbekiston sharoitida taʼlim turlari, ilmiy-metodik faoliyat, tarbiya va boshqaruv oʻrtasidagi integratsion aloqalarni kuchaytiruvchi tizim sifatida asoslangan [3:137].

Shuningdek, Naqshbandiya taʼlimotida “pir-murid”, “murshid-solik” anʼanalari orqali ustoz-shogird munosabatlari, maʼnaviy yetakchilik, tajriba uzatish va shaxsiy namunaga asoslangan tarbiya muhim oʻrin tutadi [4:19]. Adabiyotlar tahlili shuni koʻrsatadiki, taʼlim klasteri boʻyicha tadqiqotlarda koʻproq tashkiliy, resurs, boshqaruv va metodik integratsiya masalalari yoritilgan. Naqshbandiya taʼlimotiga oid ishlarda esa maʼnaviy-axloqiy tarbiya, komil inson, mehnat va ruhiy poklanish masalalari tahlil qilingan [5:36].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot metodologiyasi tizimli, aksiologik, klasterli, kompetensiyaviy va tarbiyaviy-integrativ yondashuvlarga asoslandi. Klasterli yondashuv taʼlim muassasasi, oila, mahalla, ishlab chiqarish, madaniy-maʼrifiy tashkilotlar va ijtimoiy hamkorlik subyektlari faoliyatini yagona tarbiyaviy maqsadga yoʻnaltirish imkonini berdi. Kompetensiyaviy yondashuv oʻquv-tarbiyaviy jarayon natijasini shaxsda shakllanadigan maʼnaviy-axloqiy kompetensiyalar, ijtimoiy masʼuliyat, kommunikativ madaniyat, mehnatga munosabat va mustaqil qaror qabul qilish koʻnikmalari orqali baholashga asos boʻldi.

Natijalar. Tadqiqot natijasida taʼlim klasterida oʻquv-tarbiyaviy jarayon sifatini Naqshbandiya taʼlimoti asosida

takomillashtirishning konseptual modeli ishlab chiqildi. Model quyidagi asosiy komponentlardan iborat:

Maqsadli komponent. Modelning bosh maqsadi – ta’lim klasteri sharoitida o’quv-tarbiyaviy jarayon sifatini Naqshbandiya ta’limotining ma’naviy-axloqiy tamoyillari asosida takomillashtirish, ta’lim oluvchilarda ma’naviy yetuklik, mehnatsevarlik, ijtimoiy mas’uliyat, ichki intizom va faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishdan iborat.

Ushbu maqsad quyidagi vazifalarda namoyon bo’ladi:

a) birinchidan, o’quv-tarbiyaviy jarayon mazmuniga Naqshbandiya ta’limotining pedagogik ahamiyatga ega g’oyalari singdirish;

b) ikkinchidan, ta’lim klasteri subyektlari o’rtasida yagona tarbiyaviy maqsadga yo’naltirilgan hamkorlikni tashkil etish;

c) uchinchidan, o’quvchi-talabalarda ma’naviy-axloqiy sifatlarni amaliy faoliyat, mehnat, ijtimoiy loyiha va refleksiv tahlil orqali rivojlantirish;

d) to’rtinchidan, o’quv-tarbiyaviy jarayon sifatini qadriyatga yo’naltirilgan mezonlar asosida baholash.

Qadriyatli-metodologik komponent. Mazkur komponent modelning nazariy va ma’naviy asosini tashkil etadi. Uning markazida Naqshbandiya ta’limotidagi quyidagi tamoyillar turadi:

➤ *“Dil ba yor, dast ba kor”* – qalbning yuksak ma’naviy maqsadga, faoliyatning esa halol mehnatga yo’naltirilishi.

➤ *“Xilvat dar anjuman”* – jamiyat ichida bo’lgan holda ichki ma’naviy muvozanatni saqlash.

➤ *“Nazar bar qadam”* – har bir qadamni anglab bosish, faoliyatda mas’uliyatli bo’lish [6: 19].

➤ *“Hush dar dam”* – har bir lahzada hushyorlik va ongli mavjudlik.

Ushbu qadriyatlar zamonaviy ta’lim sifati bilan bog’langanda, o’quv-tarbiyaviy jarayon faqat bilim berish emas, balki shaxsning ichki dunyosini boyitish, uni ijtimoiy foydali faoliyatga tayyorlash va axloqiy mustahkamligini oshirish vositasiga aylanadi.

Mazmuniy komponent. Mazmuniy komponent o’quv-tarbiyaviy jarayonga Naqshbandiya ta’limotining tarbiyaviy imkoniyatlarini singdirishga qaratiladi. Bu jarayon quyidagi yo’nalishlarda amalga oshiriladi:

– o’quv fanlari mazmunida ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni yoritish;

– tarix, falsafa, pedagogika, adabiyot, kasbiy ta’lim va ijtimoiy fanlarda Naqshbandiya ta’limotining inson kamoloti bilan bog’liq g’oyalari tahlil qilish;

– tarbiyaviy soatlarda halol mehnat, mas’uliyat, ustozga hurmat, kamtarlik, vatanparvarlik va ijtimoiy foydalilik mavzularini muhokama qilish;

– ijtimoiy loyihalar orqali talabalarda amaliy mas’uliyat va jamoaviy hamkorlikni rivojlantirish;

– ustoz-shogird an’analari asosida tarbiyaviy mentorlik faoliyatini yo’lga qo’yish.

Jarayonli komponent. Jarayonli komponent modelning amaliy-pedagogik mexanizmini ifodalaydi. Unda o’quv-tarbiyaviy jarayon quyidagi bosqichlarda tashkil etiladi:

Diagnostik bosqich. Bu bosqichda o’quvchi talabalarining ma’naviy-axloqiy qarashlari, ijtimoiy faolligi, mehnatga munosabati, o’zini baholash darajasi va tarbiyaviy ehtiyojlari aniqlanadi.

Motivatsion bosqich. Talabalarda Naqshbandiya ta’limotidagi halol mehnat, ichki poklik va jamiyatga foyda keltirish g’oyalari qiziqish uyg’otiladi.

Mazmunni o’zlashtirish bosqichi. O’quv jarayonida tarixiy, falsafiy, pedagogik va tarbiyaviy materiallar asosida Naqshbandiya ta’limotining mohiyati o’rganiladi.

Amaliy-faoliyat bosqichi. Talabalar ijtimoiy loyiha, jamoaviy ish, volontyorlik, kasbiy-amaliy topshiriqlar va ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarda ishtirok etadi.

Refleksiv-baholash bosqichi. Talabalar o’z xatti-harakati, ijtimoiy faoliyati va shaxsiy o’zishini tahlil qiladi. Bu bosqichda o’z-o’zini baholash, guruhviy muhokama, portfolio va mentor fikri muhim ahamiyat kasb etadi.

Klasterli-hamkorlik komponenti. Ta’lim klasterida o’quv-tarbiyaviy jarayon sifati birgina ta’lim muassasasi faoliyatiga bog’liq emas. U bir nechta subyektlarning hamkorligi orqali takomillashadi. Modelda ta’lim muassasasi, oila, mahalla, ilmiy-metodik markazlar, ishlab chiqarish va kasbiy faoliyat subyektlari, madaniy-ma’rifiy muassasalar, ustoz-murabbiylar, jamoat tashkilotlari kabi subyektlar asosiy o’rin tutadi.

Bu subyektlar o’rtasidagi hamkorlik Naqshbandiya ta’limotidagi “jamiyat ichida kamol topish” g’oyasi bilan bevosita bog’liqdir. Chunki tarbiya faqat auditoriyada emas, balki ijtimoiy hayot, mehnat, muloqot, xizmat va jamoaviy mas’uliyat jarayonida shakllanadi.


Diagnostik komponent. Modelda o’quv-tarbiyaviy jarayon sifatini baholash uchun quyidagi mezonlar taklif etiladi: *Ma’naviy-axloqiy mezon; Mehnatga munosabat mezoni; Ijtimoiy faollik mezoni; Refleksiv mezon; Qadriyatli pozitsiya mezoni.* Mazkur mezonlar orqali o’quv-tarbiyaviy jarayon sifatini faqat tashkiliy yoki nazorat ko’rsatkichlari bilan emas, balki shaxsiy rivojlanish va tarbiyaviy natija bilan baholash imkoniyati yaratiladi.

Natijaviy komponent. Modelni amaliyotga joriy etish natijasida quyidagi pedagogik natijalarga erishish mumkin: o’quvchi-talabalarda ma’naviy-axloqiy barqarorlik kuchayadi; mehnatga ongli va mas’uliyatli munosabat shakllanadi; o’quv-tarbiyaviy jarayonning klasterli hamkorlikka asoslangan sifati oshadi; ta’lim muassasasi, oila, mahalla va ijtimoiy institutlar o’rtasidagi tarbiyaviy integratsiya kuchayadi; talabalarda ijtimoiy mas’uliyat, jamoaviylik, o’zini boshqarish va refleksiv fikrlash rivojlanadi; milliy-ma’naviy meros zamonaviy ta’lim sifatini takomillashtirishning metodologik resursiga aylanadi.

Muhokama. Tadqiqot natijalari shuni ko’rsatadiki, Naqshbandiya ta’limoti zamonaviy ta’lim klasterida o’quv-tarbiyaviy jarayon sifatini takomillashtirish uchun chuqur pedagogik imkoniyatlarga ega. Bunda asosiy masala mazkur ta’limotni tor diniy-falsafiy doirada emas, balki umuminsoniy, ma’naviy-axloqiy va tarbiyaviy qadriyatlar tizimi sifatida talqin qilishdir.

Naqshbandiya ta’limotining “Dil ba yor, dast ba kor” tamoyili [4:29] zamonaviy ta’limda nazariya va amaliyot birligini, bilim va mehnat uyg’unligini, kasbiy faoliyat va ma’naviy mas’uliyat integratsiyasini ifodalaydi. Bu, ayniqsa, ta’lim klasteri sharoitida muhimdir. Chunki klasterli ta’lim modeli o’quvchini real ijtimoiy muhit, mehnat jarayoni, mahalla hayoti va kasbiy faoliyat bilan bog’laydi.

“Xilvat dar anjuman” tamoyili esa zamonaviy shaxs tarbiyasida ijtimoiy faollik va ichki ma’naviy nazorat o’rtasidagi muvozanatni ta’minlaydi. Hozirgi axborot oqimi kuchaygan, raqamli muhit shaxs xatti-harakatiga kuchli ta’sir ko’rsatayotgan davrda o’quvchi-talabalarda o’zini boshqarish, tanqidiy fikrlash, ma’naviy immunitet va ichki intizomni shakllantirish ayniqsa dolzarbdir.



Mazkur konseptual model ta'lim klasteri subyektlari, Naqshbandiya ta'limotining qadriyatli-metodologik asoslari, o'quv-tarbiyaviy jarayon komponentlari, pedagogik shart-sharoitlar, sifat mezonlari va kutilayotgan natijalar o'rtasidagi tizimli aloqadorlikni aks ettiradi (1-rasm).

Maqolada taklif etilayotgan konseptual modelning ilmiy ahamiyati shundaki, u ta'lim klasteri va Naqshbandiya ta'limotini yagona pedagogik tizim sifatida uyg'unlashtiradi. Amaliy ahamiyati esa o'quv-tarbiyaviy jarayon sifatini oshirishda milliy-ma'naviy merosdan foydalanishning aniq komponentlari, bosqichlari va baholash mezonlarini taklif etishida namoyon bo'ladi.

Xulosa. Tadqiqot asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Ta'lim klasteri o'quv-tarbiyaviy jarayon sifatini

Adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: «O'zbekiston», 2021.
2. Bray M. School Clusters in the Third World: Making Them Work. Digest 23. Paris: UNESCO, International Institute for Educational Planning, 1987.
3. Xodjamqulov U.N. Pedagogik ta'lim klasteri ilmiy-pedagogik muammo sifatida: pedagogik ta'limni klasterlashtirish zarurati. // Zamonaviy ta'lim. 2019, №6.
4. Navro'zova G.N. Naqshbandiya-kamolot yo'li. – Buxoro: O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi «Fan», 2007.
5. Zaripova G.K. Milliy merosimizdagi pedagogik texnologiyaga oid g'oyalardan foydalanish. // Uzluksiz ta'lim, – Toshkent: 2005, №1. 35-40-b.

oshirishda muhim pedagogik mexanizm bo'lib, u ta'lim muassasasi, oila, mahalla, ishlab chiqarish va ijtimoiy institutlar hamkorligini yagona maqsad atrofida birlashtiradi.

2. Naqshbandiya ta'limoti shaxs tarbiyasida ma'naviy poklik, halol mehnat, ichki intizom, ijtimoiy mas'uliyat, kamtarlik va jamiyatga foydali faoliyat kabi qadriyatlarni shakllantirishga xizmat qiluvchi kuchli tarbiyaviy manbadir.

3. “Dil ba yor, dast ba kor”, “xilvat dar anjuman”, “nazar bar qadam”, “hush dar dam” kabi tamoyillar zamonaviy pedagogikada mehnatga ongli munosabat, o'zini boshqarish, refleksiv fikrlash, ijtimoiy faollik va axloqiy barqarorlikni rivojlantirish bilan uyg'unlashadi.

**QARAQALPAQ XALÍQ PEDAGOGIKASÍNDÁ EKOLOGİYALÍQ TERMINOLOGİYANÍN
LINGVOKULTUROLOGİYALÍQ TÁRIYPI**

Utebaeva Aziza Dauletbaevna – *assistent oqıtıwshı*

utebaevaaziza346@gmail.com

Ájiniyaz atındaǵı Nókis mámleketlik pedagogikalıq instituti

**ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКОЕ ОПРЕДЕЛЕНИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ ТЕРМИНОЛОГИИ
В КАРАКАЛПАКСКОЙ НАРОДНОЙ ПЕДАГОГИКЕ**

Утебаева Азиза Даулетбаевна – *ассистент преподаватель*

Нукусский государственный педагогический институт имени Ажинияза

**LINGUOCULTUROLOGICAL DEFINITION OF ECOLOGICAL
TERMINOLOGY IN KARAKALPAK FOLK PEDAGOGY**

Utebaeva Aziza Dauletbaevna – *assistant teacher*

Nukus State Pedagogical Institute named after Ajiniyaz

Tayanch so‘zlar: ekologik pedagogika, xalq pedagogikasi, pedagogik publitsistika, ekologik ong, ekologik madaniyat, terminologiya, tarbiya.

Rezyume. Maqolada qoraqalpoq xalq pedagogikasi va pedagogik publitsistika terminologiyasida ekologik pedagogika g‘oyalarning aks etishi ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Avvalo, xalq og‘zaki ijodi namunalari asosida tabiatga munosabat va ekologik tafakkur unsurlari aniqlanadi. Shuningdek, pedagogik publitsistikada qo‘llanilayotgan ekologik terminlar semantik va lingvokulturologik jihatdan o‘rganiladi. Natijada, ekologik pedagogika g‘oyalari milliy tarbiya tizimining muhim tarkibiy qismi ekanligi asoslab beriladi.

Ключевые слова: экологическая педагогика, народная педагогика, педагогическая публицистика, экологическое сознание, экологическая культура, терминология, воспитание.

Резюме. В статье проводится научный анализ отражения идей экологической педагогики в терминологии каракалпакской народной педагогики и педагогической публицистики. Прежде всего, на основе образцов устного народного творчества выявляются элементы экологического мышления и отношения к природе. Кроме того, экологические термины, используемые в педагогической публицистике, рассматриваются с семантической и лингвокультурологической точек зрения. В результате обосновывается, что идеи экологической педагогики являются важной составной частью национальной системы воспитания.

Key words: ecological pedagogy, folk pedagogy, pedagogical journalism, ecological awareness, ecological culture, terminology, education.

Summary. The article provides a scientific analysis of the representation of ecological pedagogy ideas in the terminology of Karakalpak folk pedagogy and pedagogical journalism. First of all, elements of ecological thinking and attitudes toward nature are identified based on samples of oral folk literature. In addition, ecological terms used in pedagogical journalism are examined from semantic and linguocultural perspectives. As a result, it is substantiated that ecological pedagogy ideas constitute an essential component of the national educational system.

Kirisiw. Házirgi kúnde, yaǵny global ekologiyalıq mashqalalar keskinlesip baratırǵan bir dáwirde ekologiyalıq tárbiya máselesi insaniyat rawajlanıwınıń eń áhmiyetli baǵdarlarınan birine aylanbaqta. Sol sebepli, ekologiyalıq sana hám ekologiyalıq mádeniyattı qalıplestiriw bilimlendiriw sistemasınıń tiykarǵı wazıypalarınan biri sıpatında qaralmaqta. Ásirese, Ózbekstan Respublikasında sońǵı jıllarda qabil etilgen bir qatar normativlik-huqıqıy hújjetler bul máseleńin mámleketlik siyasat dárejesine kóterilgenin kórsetedi. Sonıń ishinde, Ózbekstan Respublikası Prezidentiniń 2019-jıl 30-oktyabrdegi "2030-jılǵa shekemgi dáwirde Ózbekstan Respublikasınıń qorshaǵan ortalıqtı qorǵaw koncepciyasını tastıyqlaw haqqında"ǵı PF-5863-sanlı Pármanı ekologiyalıq mashqalalardı sheshiw hám ekologiyalıq mádeniyattı rawajlandırıwdıń tiykarǵı baǵdarların belgilep berdi. Bul hújjette, ásirese, xalıqtıń ekologiyalıq sawatlılıǵın arttırıw hám jas áwladta tabiatqa juwapkershilikli qatnastı qalıplestiriw máselelerine ayrıqsha itibar qaratilǵan [1]. Sonday-aq, 2020-jıl 10-iyuldaǵı "Ózbekstan Respublikası suw xojalıǵın rawajlandırıwdıń 2020-2030-jıllarǵa mólsherlengen koncepciyasını tastıyqlaw haqqında"ǵı PF-6024-sanlı Pármanı suw resurslarınan aqılǵa uǵras paydalanıw, ekologiyalıq teńsalmaqlılıqtı saqlaw hám bul baǵdarda ekologiyalıq bilimlerde rawaj-

landırıw zárúrligin atap ótedi. Bul bolsa, óz gezeginde, ekologiyalıq pedagogika ideyaların bilimlendiriw procesine keńnen engiziwdi talap etedi [2].

Bunnan tisqari, 2019-jıl 8-oktyabrdegi "Ózbekstan Respublikası joqarı bilimlendiriw sistemasın 2030-jılǵa shekem rawajlandırıw koncepciyasını tastıyqlaw haqqında"ǵı PF-5847-sanlı Párman bilimlendiriw mazmunın modernizaciyalaw procesinde ekologiyalıq hám turaqlı rawajlanıw ideyaların integraciyalaw zárúrligin kórsetedi. Demek, ekologiyalıq tárbiya tek ǵana sociallıq mıtájlik emes, al strategiyalıq rawajlanıw faktori sıpatında da qaralmaqta [3].

Usı kózqarastan, milliy pedagogikalıq miyrastı úyreniw ayrıqsha áhmiyetke iye. Sebebi qaraqalpaq xalq pedagogikasında tabiatqa abaylı qatnas jasaw, ekologiyalıq teń salmaqlılıqtı saqlaw, resurslardan aqılǵa uǵras paydalanıw sıyaqlı ideyalar ázelden qalıplesken [6: 60-75]. Bunnan tisqari, pedagogikalıq publicistika bul ideyalardı zamanagóy ilimiy hám ǵalabalıq diskurs arqalı keńnen sawlelendirip, olardı jańa áwlad sanasına jetkerip berdi.

Solay etip, bir tárepten, mámleketlik siyasat dárejesinde ekologiyalıq mádeniyattı rawajlandırıwǵa qaratilǵan reformalar ámelge asırılıp atırǵan bolsa, ekinshi tárepten, milliy pedagogikalıq dástúrler bul procestiń tariyxıy-

mádeniy tiykarın quraydı. Demek, usı maqalanın maqseti – qaraqalpaq xalıq pedagogikası hám pedagogikalıq publicistika terminologiyasında ekologiyalıq pedagogika ideyaların anıqlaw, olardıń mazmun-mánisin talqılaw hám ilimiy tiykarlawdan ibarat.

Metodologiya. Usı izertlewde ekologiyalıq pedagogika ideyalarınıń qaraqalpaq xalıq pedagogikası hám pedagogikalıq publicistika terminologiyasında sáwleleniwın anıqlaw maqsetinde kompleksli ilimiy qatnas júrgizildi. Dáslep, izertlew obyektı sıpatında qaraqalpaq xalıq awızeki dóretiwshiligi úlgileri, atap aytqanda, naqıl-maqallar, dástanlar, ráwiyatlar hám de zamanagóy pedagogikalıq publicistikalıq tekstler tańlap alındı. Sonıń menen birge, izertlew predmeti sıpatında ekologiyalıq mazmunǵa iye lingvistikalıq birlikler hám terminologiyalıq sistemalar belgilendi. Birinshiden, saǵıstırmalı-analitikalıq metod qollanılıp, xalıq pedagogikası hám publicistikalıq tekstlerdegi ekologiyalıq ideyalar óz-ara salıstırıldı. Nátiyjede, usı eki derekte ekologiyalıq túsiniqlerdiń ulıwmalıq hám ayırmaslılıq tárepleri anıqlanıp, olardıń evolyuciyalıq rawajlanıw basqıshları tallandı. Ekinshiden, kontent-analiz metodi tiykarında publicistikalıq tekstlerde ushırasatuǵın ekologiyalıq terminler sistemalı túrde tańlap alındı hám olardıń qollanıw jıyılıǵı jáne semantikalıq júklemesi anıqlap berildi. Sol arqalı ekologiyalıq pedagogika terminologiyasınıń zamanagóy diskurstaǵı ornı belgilendi. Úshinshiden, lingvokulturologiyalıq qatnas tiykarında terminlerdiń milliy-mádeniy ózgeshelikleri tallandı. Yaǵnıy, ekologiyalıq túsiniqlerdiń xalıq sanasında qalay qalıpleskeni, olar qanday simvolikalıq hám obrazlı ańlatpalar arqalı jetkerilgenligi túsindirildi. Ásirese, insan hám tábiyat arasındaǵı qatnastı bildiriwshi birliklerge ayırıqsha itibar qaratıldı. Bunnan tısqari, deskriptiv (súwretlew) metod járdeminde bar ilimiy máni derekler ulıwmalastırıldı hám ekologiyalıq pedagogika ideyalarınıń teoriyalıq tiykarları sistemalastırıldı. Sonıń menen birge, sistemalı qatnas tiykarında xalıq pedagogikası hám publicistika arasındaǵı úzliksiz baylanıslıq bir pútin sistema sıpatında qaraldı. Sonday-aq, izertlew procesinde pánleraralıq qatnas ta qollanıldı, yaǵnıy pedagogika, lingvistika hám ekologiya pánleri kesiliskeń noqatta tallaw alıp barıldı. Bul bolsa, óz gezeginde, ekologiyalıq pedagogika ideyalarınıń kóp qırlı mánisin tereńirek ańlaw imkaniyatın berdi. Nátiyjede, qollanılgan metodlar kompleksi arqalı ekologiyalıq pedagogika ideyalarınıń qaraqalpaq xalıq pedagogikası hám pedagogikalıq publicistika terminologiyasında qalay qalıplesiwı, rawajlanıwı hám sáwleleniw mexanizmleri ilimiy jaqtan tiykarlap berildi.

Nátiyjeler. Alınǵan nátiyjelerge tiykarlanıp kóre qaraqalpaq xalıq pedagogikası ekologiyalıq pedagogika ideyalarınıń tariyxıy hám tábiyyıy deregi sıpatında kórinedi. Sebebi xalıq awızeki dóretiwshiligi úlgilerinde tábiyatqa abaylılıq, húrmet hám juwapkershilik sıyaqlı túsiniqler tereń tamır jayǵan. Demek, ekologiyalıq sananı qalıplestiriw procesi zamanagóy hádiyse emes, al áyyemgi tárbiyalıq sistemalardıń úzliksiz dawamı bolıp tabıladı. Bunnan tısqari, tallawlar sonı kórsetedi, xalıq pedagogikasında ekologiyalıq ideyalar kóbirek obrazlı hám simvolıq formada ańlatıladı. Máselen, tábiyat hádiyseleri arqalı insan minez-qulqı bahalanadı yamasa tárbiyalıq juwmaqlar shıǵarıladı. Sonıń menen birge, bul obrazlılıq ekologiyalıq ideyalardı jas áwlad sanasına nátiyjeli sińdiriwge xızmet etedi. Kerisinshe, pedagogikalıq publicis-

tikada usı ideyalar anıq terminologiyalıq formaǵa iye bolıp, ilimiy hám teoriyalıq jaqtan túsindiriledi [4].

Usı kózqarastan qaraǵanda, xalıq pedagogikası hám pedagogikalıq publicistika arasında ózine tán transformaciyalıq process baqlanadı. Yaǵnıy, dáslep obrazlı hám intuitiv tárizde bar bolǵan ekologiyalıq túsiniqler keyin ala ilimiy kategoriyalarǵa aylanadı. Máselen, xalıq pedagogikasındaǵı "tábiyattı saqlaw" ideyası publicistikada "ekologiyalıq mádeniyat" yamasa "ekologiyalıq sana" sıyaqlı atamalar arqalı ańlatıladı. Demek, bul process ekologiyalıq pedagogika terminologiyasınıń qalıplesiwinde áhmiyetli basqısh esaplanadı [5]. Sonday-aq, mámleketlik siyasat dárejesinde ekologiyalıq mashqalalarǵa qaratılıp atırǵan itibar bul baǵdardıń áhmiyetin jáne de arttırmaqta. Yaǵnıy, Prezident pármanları hám konceptuallıq hújjetlerde ekologiyalıq mádeniyattı rawajlandırıwǵa ayırıqsha itibar beriliwi, óz gezeginde, pedagogikalıq sistemada da ekologiyalıq komponentti kúsheytiwdi talap etedi. Demek, xalıq pedagogikası hám zamanagóy publicistika arasındaǵı integraciya ekologiyalıq bilimlendiriw nátiyjeliligin arttırıwǵa xızmet etedi.

Basqa tárepten, izertlew nátiyjeleri sonı da kórsetedi, ekologiyalıq pedagogika ideyaların tek teoriyalıq dárejede emes, al ámeliy pedagogikalıq jumista da qollanıw zárúr. Sebebi, tek bilim beriw emes, al ekologiyalıq qádiriyatlardı qalıplestiriw tiykarǵı maqset esaplanadı. Usı jaǵınan, xalıq pedagogikasındaǵı tájiriybeler zamanagóy bilimlendiriw metodları menen úylestiriliwi zárúr.

Juwmaqlap aytqanda, dodalanǵan nátiyjeler ekologiyalıq pedagogika ideyalarınıń qaraqalpaq xalıq pedagogikası hám pedagogikalıq publicistikası terminologiyasında úzliksiz hám sistemalı túrde qalıpleskenligin kórsetedi. Demek, bul baǵdardı jáne de tereń úyreniw tek ǵana ilimiy emes, al ámeliy áhmiyetke de iye.

4. Milliy ortalıq jaratıw.

Mektepte ádebiyat kesheleri, saxnalastırıwlar, shıǵarma tańlawların ótkeriw arqalı milliy ruwxımız kúsheytiledi.

Juwmaq. Qaraqalpaq ádebiyatın mektepte oqıtıw procesinde milliy qádiriyatlardı síndiriw jas áwladtı tárbiyalawdıń eń áhmiyetli faktorlarınan biri bolıp esaplanadı. Ádebiyat arqalı oqıwshılar óz xalqınıń tariyxın, mádeniyatın, ruwxıy miyrasın túsinedi hám qádirleydi.

Izertlew nátiyjeleri kórsetkenindey, eger oqıtıw procesinde interaktiv metodlar, folklor materialları hám integraciyalıq qatnaslar durıs qollanıwǵan bolsa, milliy qádiriyatlardı síndiriwdiń nátiyjeliligi bir qansha joqarı boladı. Sol sebepli, ádebiyat sabaqların jańasha metodikalıq tiykarlar tiykarında shólkemlestiriw zaman talabı bolıp esaplanadı.

**MEXANIKA BO‘LIMINI O‘QITISHNING O‘ZIGA XOS JIHATLARI
VA TURLI KASBLARDA TUTGAN O‘RNI**

Kadirimbetova Gulmira Rambergenovna – *pedagogika fanlari bo‘yicha filozofiya doktori*
gulmira.kazhirimbetova.81@mail.ru
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

**ОСОБЕННОСТИ ПРЕПОДАВАНИЯ РАЗДЕЛА МЕХАНИКИ И ЕГО РОЛЬ
В РАЗЛИЧНЫХ ПРОФЕССИЯХ**

Кадирибетова Гулмира Рамбергеновна – *доктор философии по педагогическим наукам*
Нукусский государственный педагогический институт имени Ажинияза

**PECULIARITIES OF TEACHING THE MECHANICS SECTION
AND ITS ROLE IN VARIOUS PROFESSIONS**

Kadirimbetova Gulmira Rambergenovna – *Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences*
Nukus State Pedagogical Institute named after Ajiniyaz

Tayanch so‘zlar: mexanika, kuch, harakat, kasb, texnika, o‘qitish, muhandislik, nazariy asoslar, amaliy ko‘nikma, innovatsiya.

Rezyume. Mexanika – fizikaning asosiy bo‘limlaridan bo‘lib, materiyaning harakati, kuch va harakat o‘rtasidagi bog‘liqlik, jismlarning o‘zaro ta‘siri, ularning muvozanat va harakat qonuniyatlarini o‘rganadi. Mexanika bugungi zamonaviy jamiyatda, sohalarda va hayotda juda katta ahamiyat kasb etadi. Uni o‘qitish usullari va o‘ziga xosliklari zamonaviy metodikalarda chuqur o‘rganilmoqda. Mexanikaning asosiy bo‘limlari klassik mexanika, statika, dinamika, kinematika va boshqa turli qismlardan iboratdir. Ushbu bo‘limlardan olinadigan bilimlarning hayotiy ahamiyati juda yuqoridir.

Ключевые слова: механика, сила, движение, профессия, технология, образование, инженерия, теоретические основы, практические навыки, инновации.

Резюме. Механика — одна из основных отраслей физики, изучающая движение материи, взаимосвязь силы и движения, взаимодействие тел, их равновесие и законы движения. Механика имеет огромное значение в современном обществе, промышленности и жизни. Методы и особенности её преподавания углубленно изучаются в современных методиках. Основные разделы механики включают классическую механику, статику, динамику, кинематику и различные другие области. Знания, полученные в этих разделах, имеют очень большое значение.

Key words: mechanics, force, motion, profession, technology, education, engineering, theoretical foundations, practical skills, innovation.

Summary. Mechanics is one of the main branches of physics, studying the movement of matter, the relationship between force and motion, the interaction of bodies, their equilibrium and laws of motion. Mechanics is of great importance in today's modern society, industries and life. Its teaching methods and features are being studied in depth in modern methodologies. The main branches of mechanics consist of classical mechanics, statics, dynamics, kinematics and various other parts. The vital importance of the knowledge obtained from these branches is very high.

Kirish. Mexanika bo‘limi o‘quvchilarga ham nazariy, ham amaliy jihatlari bo‘yicha tasavvur va ko‘nikmalar beradi. Bu ko‘nikmalar keyinchalik ko‘plab kasb va sohalarda juda katta ahamiyatga ega bo‘ladi. Mexanika darslarida o‘quvchilar dunyo tuzilishini hamda tabiatda sodir bo‘layotgan jarayon va hodisalarni ilmiy tushunishga o‘rganadilar. Qisqacha aytganda, mexanika asoslarini o‘rgangan har bir shaxs tabiat qonuniyatlarini anglash, murakkab masalalarni hal qilish va muammolarga ilmiy yondasha olish qobiliyatlariga ega bo‘ladi. Mexanika bo‘limini o‘qitishning o‘ziga xos jihatlari, avvalo, real hayot hodisalariga asoslanishi, modellashtirish, tajriba va kuzatishlarni asosiy o‘rinlarda bo‘lishi bilan bog‘liq. O‘quvchilar uchun har xil laboratoriya ishlari, tajribalar, ko‘rgazmalar tashkil etish natijasida ularning qiziqishlari oshadi va olgan bilimlarni amaliyotda mustahkamlash uchun imkoniyat paydo bo‘ladi. Harakat, tezlik, tezlanish, kuch, og‘irlik va muvozanat kabi asosiy tushunchalarni o‘zlashtirish jarayonida zamonaviy fan-texnika yutuqlaridan foydalanilishi alohida o‘rin tutadi. Mexanika bo‘limini o‘qitishda muhim jihat shundaki, bu bo‘lim fundamental fizik tushunchalarning shakllanishiga asos bo‘ladi. O‘qitish jarayonida o‘quvchi fizik hodisalarni matematik ifodalash va ularni talqin qilish ko‘nikmasiga ega bo‘ladi. Bu esa, nafaqat mexanikada, balki boshqa ilmiy sohalarda, kundalik hayotda duch keladigan ko‘pgina jarayonlarni tushunish va hal etish uchun ham yordam beradi [1].

Adabiyotlar tahlili va tadqiqot metodikasi. Kasbiy sohalarda mexanika bo‘limining o‘rni juda katta. Masalan, qurilish sohasida statika, kuchlar muvozanati, konstruktiviyalarning mustahkamligi va ohangdoshligi muhim rol o‘ynaydi. Muhandis va texniklar uchun mexanika asoslari – ishlab chiqarish jarayonlarini samarali tashkillashtirish, zamonaviy texnikalarni to‘g‘ri ekspluatatsiya qilish, yangi mashina va mexanizmlarni loyihalash va ularni amaliyotga joriy qilishda juda ham zarurdir. Avtomobil va aviatsiya sohaslarida ham mexanika bilimlari hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Mexanika bilimlari shifokorlar uchun ham foydalidir. Ortopediya, travmatologiya va sport vrachligi sohaslarida suyaklar va mushaklarning harakatini o‘rganishda, inson tanasining muvozanat va harakat mexanizmlarini tahlil qilishda bevosita mexanika qonunlari qo‘llaniladi. Sportchilar uchun esa jihozlar va atletik harakatlarni mukammal o‘zlashtirishda mexanikaning aqliy va jismoniy tomonlarini o‘rganish asosiy hisoblanadi [2].

Qishloq xo‘jaligi sohasida ham mexanik bilimlarning o‘rni beqiyos. Zamonaviy traktor, kombayn va turli mexanizmlarning ishlash prinsiplarini o‘rganish, ularni samarali boshqarish va to‘g‘ri xizmat ko‘rsatishda mexanika qonunlarini bilmasdan iloji yo‘q. Bu nafaqat mashina va mexanizmlarning samarali ishlashi, balki ishlab chiqarish jarayonining xavfsiz va barakali bo‘lishi uchun ham juda ham muhimdir. Mexanika bilimlari, albatta, energetika sohasida ham katta ahamiyat kasb etadi. Elektr stansiyalari,

gidroenergetika qurilmalari, issiqlik almashinuv qurilmalari va boshqa ko'plab muhandislik tizimlarining loyihalashida, ulardan to'liq va samarali foydalanishda mexanika asoslari zarurdir. Uyda, kundalik hayotda ham mexanika bilimlari insonlarga yordam beradi. Masalan, o'z qozonxonasini samarali tashkil etish, energiyani tejash usullarini topish, oddiy uy anjomlarini to'g'ri ishlatishda mexanika bilimlaridan foydalaniladi. Bundan tashqari, mexanika bilimlari zamonaviy fan va texnologiyada, k osmik texnika, raketa qurilishi, robototexnika va sun'iy intellekt sohalari ham yetakchi o'rin tutadi. Insoniyat taraqqiyoti uchun yangi o'tirish yo'nalishlarini ochish va ilg'or texnologiyalarni hayotga tatbiq etishda, eng avvalo, mexanika qonunlari va bilimlariga e'tibor qaratiladi. Shu sababli o'quvchilarga yuklatiladigan mexanika bilimlari nafaqat ularni zamonaviy kasblarga yo'naltiradi, balki kreativ, erkin fikrlovchilar, fan-texnika yangiliklariga ochiq mutaxassislar bo'lib yetishishiga imkon yaratadi [3].

Muhokama va natijalar. Mexanika bo'limini o'qitishda qo'llanilishi mumkin bo'lgan ilg'or texnologik vositalar, interaktiv metod va uslublar, virtual laboratoriyalar, simulyatsiya va har xil ilmiy dasturlar zamonaviy o'qitishning muhim bo'g'ini bo'lib xizmat qiladi. Bu usullar o'quvchilarda fan va texnikaga yuqori qiziqish uyg'otadi, ularni faollikka chorlaydi va samarali bilim o'zlashtirishga yordam beradi. Darslarni qiziqarli, jonli va o'quvchilar uchun foydali o'tkazish uchun tajriba va amaliy ishlarni organik tarzda bog'lash juda asqotadi.

Mexanika bo'yicha o'quvchilarning mustaqil ishlarini rag'batlantirish, ularni ilmiy-ijodiy faollikka jalb qilish, kichik loyihalar va tadqiqot ishlarini tashkil etish, olgan bilimlarni kasbiy sohalarga tatbiq qilishga yo'naltirilgan mashg'ulotlar dars samaradorligini oshiradi. O'quvchilarga nafaqat nazariy bilim, balki amaliy ko'nikmalar olish uchun ham keng sharoitlar yaratish lozim. Harakatlar, kuch va energiya, og'irlik markazi, muvozanat, ish va quvvat, impuls va boshqa mexanik tushunchalar bolalar hayotining har bir bosqichida qo'l keladigan tushunchalardir. Bugungi jamiyat rivojida sanoat, transport, axborot texnologiyalari va service sohasida ham mexanika bilimlarining o'rni beqiyos. Zamonaviy hayotda avtomobil, velosiped, poyezd, lift va boshqa texnik vositalardan foydalanishda mexanika asoslarini bilish xavfsizlik va unumdorlik uchun ham ahamiyatlidir. Maishiy hayotda oddiy qaychi, pichoq, arradan foydalanish, yuk ko'tarish va harakatga keltirishda mexanikaning asosiy qonuniyatlari amalda namoyon bo'ladi. Ta'lim muassasalarida mexanika bo'limini o'qitishda o'qituvchining zamonaviy texnologiyalardan foydalanishi, axborot-kommunikatsiya imkoniyatlarini darsda muvaffaqiyatli tatbiq etishi, turli kasblardagi real vazifalarni muhokama qilish orqali o'quvchilarning kasbga yo'naltirilishi, dars samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada, mexanika bo'limi kasb tanlash, shaxsiy hayotga fizikaning bevosita foydaliligini anglash, muhandislik, texnika va zamonaviy texnologiyalar bo'yicha professional yo'nalishlarni tanlashga kuchli asos bo'lib xizmat qiladi [3].

Mexanika bo'limi fizikaning eng asosiy va amaliyotga yaqin qismlaridan biri hisoblanadi. Uni o'qitishda

zamonaviy metodlarni, kundalik hayotdan va ishlab chiqarishdan misollarni keng qo'llash muhim sanaladi. Har bir mavzu real tajriba, hayotiy vaziyat yoki kasbiy masala bilan chambarchas bog'lanishi kerak. Dars jarayonida mexanika qonunlarini faqat nazariy muhokama qilish emas, balki ularni laboratoriya ishlari, amaliy mashg'ulotlar va mustaqil kuzatishlar orqali mustahkamlash muhim ahamiyatga ega. Bu o'z navbatida o'quvchilarda mantiqiy va badiiy fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish va muammoni yechishda zamonaviy yondashuvlarni shakllantirishga yordam beradi. Mexanika fanini o'qitish zamonaviy texnologiyalarni – animatsiyalar, interaktiv modellar, raqamli resurslar va vizual vositalarga tayangan holda tashkil etilsa, o'quvchilarda bilimga qiziqish va motivatsiya kuchayadi. Buning natijasida ular nazariy bilimlarni kundalik hayotda va kelajak kasbiy faoliyatlarida qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladi [4].

Mexanika o'rganishda harakatning sabablari, jismlarning harakatini boshqarish, energiya va ish tushunchalarining mohiyati mukammal yoritiladi. Bu bo'lim ko'plab kasblar uchun zarur amaliy asos bo'lib, muhandis, qurilishchi, avtomexanik, energetik, shifokor, sport murabbiyi, zamonaviy texnika va texnologiyalarga oid soha vakillarining bilim va malakasini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Mexanika bo'limini tushunish o'quvchilarga turli muammolarni aniq va tahliliy hal qilish, mos ravishda yechim topish, texnika va qurollanma bilan ishlashda xavfsiz va samarali yo'l tutish imkonini beradi. Kundalik hayotda ham mexanika qonuniyatlarini chuqur anglagan shaxs istalgan sohaning turli bosqichlarida samarador va innovatsion yondashuvni qo'llay oladi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, mexanika bo'limi o'qitilishida amaliy mashg'ulotga, tahlil va sintezga, interaktiv yondashuvga e'tibor kuchaysa, o'quvchilar bilimni hayotda tatbiq qilish va turli kasblarda muvaffaqiyatli faoliyat yuritish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa barcha ishtirokchilarning, xususan, o'quvchilar, o'qituvchilar va kelajak kasb egalari-ning hayotida mexanika fanining ahamiyatini yanada oshiradi. Fanning fundamentalligi va universal amaliy ahamiyati tufayli, uning o'rni nafaqat fan va texnikada, balki kundalik hayotda ham muhim bo'lib qoladi [5].

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, mexanika bo'limini o'qitish o'quvchilarda fundamental ilmiy bilim, mustahkam amaliy ko'nikmalar va kasbiy malakalar shakllanishida asosiy ahamiyatga ega. Mexanika sohasining turli sohalardagi o'rni, kasb va hayotdagi ahamiyati, kundalik jarayonlar va zamonaviy texnikaning yuritilishi bilan chambarchas bog'liqdir. O'qitishda zamonaviy yondashuv, amaliy mashg'ulot va innovatsion usullardan foydalanish o'quvchilarni zamon talablariga mos mutaxassis sifatida shakllantirishga yordam beradi. Shunday qilib, mexanika bo'limida olingan bilimlar hayotiy faoliyatimizga, kasbiy salohiyatimizga, zamonaviy fan-texnika yutuqlarini egallashga, ilm-fan rivojiga munosib hissa qo'shishimizga zamin yaratadi. O'quvchilarda mustahkam tayyorgarlik, mustaqil fikrlash va yaqinda zamonaviy hayotda muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun mexanika qonuniyatlarini chuqur bilish va ularni kundalik hayotga tatbiq eta olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar

1. Karimov A.A. Fizika va mexanika asoslari. – Toshkent: «O'zbekiston», 2021.
2. Raximov S.T. Fizika darsining nazariy va amaliy asoslari. – Toshkent: «Fan va texnologiya», 2018.
3. G'ulomov I.I. Mexanika va uni o'qitish metodikasi. – Toshkent: «O'qituvchi», 2019.
4. To'raqulov G'. Zamonaviy o'qitish texnologiyalari. – Toshkent: «Ilm ziyo», 2020.
5. Ubaydullayev L.A. Mexanika fanining kasblarda ahamiyati. – Samarqand: «Barkamol avlod», 2022.

**TASK-BASED LANGUAGE TEACHING IN DEVELOPING COMMUNICATIVE
COMPETENCE OF ESP LEARNERS**

Kurbaniyazova Sarbinaz Ametovna – *senior teacher*

sarbikurbaniyazova@gmail.com

Nukus State Pedagogical Institute named after Ajiniyaz

**ESP O‘RGANUVCHILARINING KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA
TOPSHIRIQLARGA ASOSLANGAN TIL O‘QITISH METODIKASI**

Kurbaniyazova Sarbinaz Ametovna – *katta o‘qituvchi*

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

**ОБУЧЕНИЕ ЯЗЫКУ НА ОСНОВЕ ЗАДАНИЙ ДЛЯ РАЗВИТИЯ
КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ ОБУЧАЮЩИХСЯ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ
ДЛЯ СПЕЦИАЛЬНЫХ ЦЕЛЕЙ (ESP)**

Курбаниязова Сарбиназ Аметовна – *старший преподаватель*

Нукусский государственный педагогический институт имени Ажинияза

Tayanch so‘zlar: vazifaga asoslangan o‘qitish (TBLT), ESP, kommunikativ kompetensiya, oliy ta’lim, tarix talabalari, til ko‘nikmalari.

Rezyume. Ushbu tadqiqot vazifaga asoslangan til o‘qitish (TBLT) usulining ESP talabalari, xususan, B1–B2 darajadagi tarix talabalari orasida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishdagi samaradorligini o‘rganadi. Natijalar TBLT talabalarning nutq ravonligi, muloqot qobiliyati va akademik kontekstda tilni qo‘llashini yaxshilaganini ko‘rsatdi. TBLT ESP ta’limida samarali usul hisoblanadi.

Ключевые слова: обучение на основе заданий (TBLT), ESP, коммуникативная компетенция, высшее образование, студенты-историки, языковые навыки.

Резюме. Статья посвящена изучению эффективности обучения на основе заданий (TBLT) в развитии коммуникативной компетенции у студентов ESP, в частности у студентов-историков уровня B1–B2. Результаты показали, что TBLT улучшает беглость речи, коммуникативные навыки и использование языка в академическом контексте. Полученные данные подтверждают эффективность TBLT в обучении ESP.

Key words: Task-Based Language Teaching (TBLT), ESP, communicative competence, higher education, History students, language skills

Summary. The paper explores the effectiveness of Task-Based Language Teaching (TBLT) in developing communicative competence among ESP learners, particularly History students at the B1–B2 level. The findings show that TBLT improves students’ fluency, interaction, and ability to use language in academic contexts. The results suggest that TBLT is an effective approach for enhancing both language skills and subject-related communication in ESP instruction.

Introduction. Task-Based Language Teaching (TBLT), also referred to as Task-Based Instruction (TBI), emphasizes the use of authentic language through the completion of meaningful tasks in the target language. Such tasks reflect real-world contexts and enable learners to develop language skills through practical application. TBLT places particular emphasis on communicative competence by encouraging active language production and interaction. By engaging learners in relevant and purposeful activities, this approach fosters fluency, accuracy, and pragmatic competence. TBLT facilitates both cognitive and interactive dimensions of language learning, allowing learners to think and use language simultaneously [4]. Rather than attempting to teach language incrementally and in isolation, TBLT posits that language acquisition is most effective when learners are exposed to meaningful contexts that stimulate their natural learning capacities [1]. Furthermore, TBLT offers significant cognitive benefits. It enhances learners’ problem-solving abilities, as tasks require critical and creative thinking. The approach also promotes higher-order thinking skills, including analysis, synthesis, and evaluation. In addition, TBLT fosters metacognitive awareness by encouraging learners to reflect on their language use and learning strategies, thereby supporting greater learner autonomy and self-directed learning.

Literature Review. Many researchers have studied the effect of TBLT on language learning. Ellis argues that task-based approaches enhance communicative competence by encouraging purposeful and active language use [1]. According to Ellis, language proficiency develops not only through the acquisition of grammatical knowledge but also through the ability to apply it in authentic communicative contexts [1]. Skehan found that TBLT promotes fluency and complexity in spoken language, as learners are required to produce language spontaneously during task performance [3]. Similarly, Willis demonstrated that task-based instruction enhances learners’ problem-solving skills, critical thinking, and motivation [5]. Willis identifies several key purposes of TBLT, including [5]:

- ✓ building learners’ confidence in using available language resources;
- ✓ providing opportunities for spontaneous interaction;
- ✓ facilitating awareness of alternative linguistic expressions;
- ✓ encouraging turn-taking and negotiation of meaning;
- ✓ promoting purposeful and cooperative language use;
- ✓ engaging learners in complete communicative exchanges;
- ✓ developing communication strategies;
- ✓ strengthening learners’ confidence in achieving communicative goals.

In ESP contexts, communicative competence extends beyond general language use to include discipline-specific discourse. For History students, this involves describing historical events, interpreting primary sources, constructing arguments, and participating in academic discussions. However, traditional ESP instruction often prioritizes reading and translation, with limited emphasis on interactive communication. Recent studies indicate that the integration of subject-specific tasks – such as debates, document analysis, and role-playing – can significantly enhance both language proficiency and content understanding. Nevertheless, empirical research focusing specifically on intermediate-level History students remains limited. The paper addresses this gap by integrating TBLT with historical thinking skills (e.g., causation, comparison, and interpretation), thereby proposing a dual-focus model that develops both communicative competence and disciplinary cognition.

Methodology and empirical analysis. The current research employed a quasi-experimental research design with pre-test and post-test measures to evaluate the effectiveness of TBLT compared to traditional instructional methods. The study involved two groups: an experimental group receiving task-based instruction and a control group receiving conventional instruction. The participants were sixty undergraduate History students with English proficiency levels ranging from B1 to B2, according to the Common European Framework of Reference for Languages (CEFR). The students were randomly assigned to either the experimental group (n = 30) or the control group (n = 30). Both groups were comparable in terms of initial proficiency, academic background, and prior exposure to English. The intervention lasted twelve weeks, with three 80-minute sessions per week. The experimental group engaged in task-based activities tailored to History, including role-playing historical figures, structured debates, primary source analysis, collaborative timeline reconstruction, and problem-solving tasks. Instruction followed the standard TBLT sequence: pre-task, task cycle, and language focus.

In contrast, the control group received traditional instruction focused on grammar explanation, vocabulary memorization, reading comprehension, and translation. Interaction in this group was predominantly teacher-centered, with limited opportunities for spontaneous communication. Data were collected using multiple instruments:

- ✓ pre-test and post-test speaking assessments measuring fluency, accuracy, coherence, and interaction;
- ✓ an ESP-specific performance task evaluating historical discourse skills;

- ✓ a structured questionnaire assessing learners' motivation, confidence, and perceptions;
- ✓ classroom observations using a standardized checklist.

Quantitative data were analyzed using paired-sample t-tests (within-group comparison) and independent-sample t-tests (between-group comparison), while qualitative data from observations supported the interpretation of results.

Results. The findings indicate that the experimental group demonstrated significantly greater improvement in communicative competence compared to the control group. Students exposed to TBLT showed higher levels of engagement, participation, and interaction throughout the instructional period. They actively contributed to discussions, collaborated effectively, and demonstrated increased ability to construct coherent historical arguments using appropriate discourse markers. Moreover, their speech became more organized, fluent, and contextually appropriate, reflecting improvements in both linguistic and cognitive domains. In contrast, students in the control group relied primarily on memorized structures and exhibited limited ability to engage in spontaneous communication. Although some gains in grammatical accuracy were observed, these students struggled to apply their knowledge in real-time communicative situations. Questionnaire results further supported these findings. Approximately 87% of students in the experimental group reported increased confidence in speaking English, while 82% indicated that the tasks were relevant to their academic field. In contrast, the control group reported lower levels of motivation and engagement, with many students noting insufficient opportunities for meaningful communication. Overall, the results provide strong empirical evidence supporting the effectiveness of TBLT in enhancing communicative competence among ESP learners in the field of History.

Conclusion. The present study demonstrates that Task-Based Language Teaching is a highly effective approach for developing communicative competence among intermediate-level ESP learners specializing in History. The findings suggest that TBLT not only improves general language proficiency but also enhances learners' ability to communicate effectively within their academic discipline. Importantly, the work contributes to the field by demonstrating that integrating task-based methodology with discipline-specific content promotes both linguistic development and higher-order cognitive skills. This dual-focus approach can serve as a valuable model for ESP instruction in higher education.

References

1. Ellis R. *Task-Based Language Learning and Teaching*. – Oxford: Oxford University Press, 2003.
2. Richards J., Rodgers, T. *Approaches and Methods in Language Teaching*, (2nd ed.). – Cambridge. Cambridge University Press, vol. 56, 2001. – P. 146-148.
3. Skehan P. *Second Language Acquisition Research and Task-based Instruction*, vol. 13, 1996.
4. Smith B., González-Lloret M. Technology-mediated task-based language teaching: A research agenda. // *Language Teaching*, 54(4), 2021. – P. 518-534.
5. Willis J. *A framework for task-based learning*. – Essex, UK: Longman. 1996.

**BOSHLANG'ICH SINIF JISMONIY TARBIIYA DARSLARIDA UMUMRIVOJLANTIRUVCHI
MASHQLARDAN FOYDALANISH METODIKASI**

Maksetova Nurjamal Kuatovna – *stajyor o'qituvchi*

nurjamalmaksetova@gmail.com

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

**МЕТОДИКА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ОБЩЕРАЗВИВАЮЩИХ УПРАЖНЕНИЙ
НА УРОКАХ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ**

Максетова Нуржамал Куатовна – *стажёр преподаватель*

Нукусский государственный педагогический институт имени Ажинияза

**THE METHODOLOGY OF USING GENERAL DEVELOPMENTAL EXERCISES
IN PRIMARY SCHOOLS PHYSICAL EDUCATION LESSONS**

Maksetova Nurjamal Kuatovna – *trainee teacher*

Nukus State Pedagogical Institute named after Ajiniyaz

Tayanch so'zlar: umumrivojlantiruvchi mashqlar, jismoniy tarbiya, darsdan tashqari mashg'ulotlar, metodika, harakat faoliyati, jismoniy tayyorgarlik

Rezyume. Maqolada boshlang'ich sinf jismoniy tarbiya darslarida umumrivojlantiruvchi mashqlardan foydalanish metodikasi tahlil qilingan. Tadqiqotda umumrivojlantiruvchi mashqlarning o'quvchilarning jismoniy tayyorgarligini oshirish, sog'lom turmush tarzini shakllantirish va harakat faoliyatini rivojlantirishdagi ahamiyati ko'rsatilgan. Darslik va darsdan tashqari mashg'ulotlarda ushbu mashqlardan samarali foydalanish yo'nalishlari ishlab chiqilgan.

Ключевые слова: общеразвивающие упражнения, физическая культура, внеурочные занятия, методика, двигательная активность, физическая подготовленность

Резюме. В статье проанализирована методика использования общеразвивающих упражнений на уроках физического воспитания в начальных классах. В исследовании показано значение общеразвивающих упражнений в повышении физической подготовленности учащихся, формировании здорового образа жизни и развитии двигательной деятельности. Разработаны направления эффективного использования данных упражнений в урочных занятиях.

Key words: general developmental exercises, physical education, extracurricular activities, methodology, motor activity, physical fitness

Summary. The article analyzes the methodology for using general developmental exercises in physical education lessons in primary grades. The study demonstrates the significance of general developmental exercises in improving students' physical fitness, forming a healthy lifestyle, and developing motor activity. Directions for the effective use of these exercises in lesson sessions have been developed.

Kirish. Boshlang'ich sinflarda jismoniy tarbiya darslaridan ko'zda tutilgan maqsad, asosan bolalarni o'z qaddi-qomatini to'g'ri tutishga odatlantirish, muhim harakatlarni, yurish, sakrash, yugurish to'g'ri bajarishga odatlantirish va predmetlar bilan mashq bajarishga o'rgatishdan iborat. Eng muhimi, bolalarga salomatligi haqida o'zi g'amxo'rlik qilishi zarur ekanligi to'g'risidagi fikrni singdirishdir. Chunki, inson salomatligi jismoniy barkamolligi, nafaqat uning shaxsiy ishi, balki bu davlat ahamiyatiga molik vazifa hamdir [1].

Jismoniy tarbiya jarayonining asosiy vazifasi jismoniy mashqlarga o'rgatish va hayotiy zarur bo'lgan harakatlar malaka va ko'nikmalarini shakllantirishdir.

Umumta'lim maktablarida jismoniy tarbiya mashg'ulotlari tashkil etiladi. Bu tadbirlarga quyidagi ishlar kiradi:

1. Ertalabki badan tarbiya mashg'ulotlari. Bu mashg'ulotlarning maqsadi o'quvchilar organizmini o'quv mashg'ulotlariga tayyorlash. Tartib intizomga o'rgatish.

2. Tanaffuslardagi harakatli o'yinlar va jismoniy tarbiya daqiqalari maqsadi o'quvchilarni nazariy mashg'ulotlarda aqliy charchashlarni bartaraf etish hamda kelgusi darslarga tayyorlash.

3. Kuni uzaytirilgan guruhlardagi sayrlar va ekskursiyalarda o'quvchilarni tabiat omillari yordamida chiniqtirish.

4. Umumiy jismoniy tayyorgarlik va Sport to'garaklaridagi mashg'ulotlarda o'quvchilarda jismoniy

tarbiyaga qiziqishlar orttirish bilan birga, jismoniy fazilatlarini va jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish, sport turlari bo'yicha mutaxassislikka erishish.

5. Sport musobaqalar va bayramlarda o'quvchilarning jismoniy tayyorgarligi hamda jismoniy rivojlanish darajasi nazorat qilib turiladi [1, 2].

Zamonaviy ta'lim tizimida jismoniy tarbiya fanining o'rnini tobora oshib bormoqda, chunki sog'lom avlodni tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Jismoniy tarbiya darslarining asosiy maqsadi o'quvchilarning jismoniy rivojlanishini ta'minlash, ularning harakat faoliyatini takomillastirish va sog'lom turmush tarziga bo'lgan qiziqishni shakllantirish hisoblanadi. Ushbu maqsadlarga erishishda umumrivojlantiruvchi mashqlar muhim ahamiyat kasb etadi, chunki ular muskullar tizimini mustahkamlash, muskul kuchini oshirish, chidamlilik va moslashuvchanlikni rivojlantirishga qaratilgan [3]. Umumrivojlantiruvchi mashqlar tananing barcha tizimlariga kompleks ta'sir ko'rsatib, o'quvchilarning umumiy jismoniy tayyorgarligini yaxshilaydi va maxsus sport ko'nikmalarini egallashga zamin yaratadi.

Hozirgi kunda boshlang'ich sinflarda jismoniy tarbiya darslarida umumrivojlantiruvchi mashqlardan foydalanish metodikasi turli xil yondashuvlarni talab qiladi, chunki o'quvchilarning yosh xususiyatlari, jismoniy tayyorgarlik darajasi va sog'liq holati turlicha bo'ladi [4]. Darslik mashg'ulotlarda umumrivojlantiruvchi mashqlar asosan

tayyorgarlik qismi va asosiy qismning bir bo‘lagi sifatida qo‘llaniladi, darsdan tashqari mashg‘ulotlarda esa ular mustaqil mashq-treninglar tarzida amalga oshirilishi mumkin [5]. Ushbu maqolaning dolzarbligi shundan iboratki, u umumrivojlantiruvchi mashqlarning nazariy asoslari va amaliy qo‘llanilishini kompleks tarzda o‘rganish, shuningdek, dars va darsdan tashqari mashg‘ulotlarda ulardan samarali foydalanish metodikasini ishlab chiqish zaruratidan kelib chiqadi.

Metodologiya va adabiyotlar tahlili. Tadqiqotda nazariy tahlil metodidan foydalanilgan bo‘lib, jismoniy tarbiya, sport metodikasi va pedagogika sohasidagi ilmiy adabiyotlar, o‘quv dasturlari hamda metodik qo‘llanmalar tahlil qilingan. Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, umumrivojlantiruvchi mashqlar jismoniy tarbiyaning asosiy vositalaridan biri sifatida uzoq vaqtdan beri tadqiqotchilar e‘tiborida bo‘lib kelgan [1, 2]. Umumrivojlantiruvchi mashqlar deganda tananing turli muskullar guruhlarini ishga soluvchi, koordinatsiya va muvozanatni yaxshilovchi, shuningdek, kardiovaskulyar va nafas olish tizimlarini mustahkamlovchi jismoniy mashqlar tushuniladi [3]. Bu mashqlar sport turlariga xos bo‘lmagan, ammo umumiy jismoniy tayyorgarlikni shakllantiruvchi xarakterga ega.

Xorijiy tadqiqotchilar umumrivojlantiruvchi mashqlarni “general physical preparation exercises” yoki “basic motor exercises” deb ataydilar va ularning ahamiyatini maktab yoshidagi bolalarning jismoniy rivojlanishida alohida ta‘kidlaydilar [7]. Rus maktabining jismoniy tarbiya metodisti L.P.Matveev umumrivojlantiruvchi mashqlarni sport-pedagogik jarayonning ajralmas qismi sifatida ko‘rib chiqadi va ularni maxsus-tayyorlov mashqlaridan farqlash zaruratini uqtiradi [2]. O‘zbek olimlar ham umumrivojlantiruvchi mashqlarning milliy o‘yinlar va an‘anaviy jismoniy mashqlar bilan uyg‘unlashtirilishi kerakligini ta‘kidlaydilar [5].

Adabiyotlar tahlili asosida umumrivojlantiruvchi mashqlarni quyidagi turlarga ajratish mumkin: kuch-quvvat mashqlari (turish, osilib turish, tortish, itarish), cho‘zuvchilik mashqlari (egilish, burilish, cho‘zilish), muvozanat va koordinatsiya mashqlari (bir oyoqda turish, chiziqda yurish), chidamlilik mashqlari (yugurish, sakrash, o‘yin elementlari) [3]. Har bir mashq turi o‘quvchilarning yosh guruhiga qarab tanlanadi va dozalastiriladi. Yoshroq sinf o‘quvchilari uchun o‘yin shaklidagi mashqlar, kattaroq yoshdagilar uchun esa ancha murakkab va kuchli intensivlikdagi mashqlar tavsiya etiladi [6].

Metodologik jihatdan boshlang‘ich sinflarda umumrivojlantiruvchi mashqlardan foydalanishda bir necha tamoyillar e‘tiborga olinishi lozim: ketma-ketlik tamoyili (sodda mashqlardan murakkablarga o‘tish), sistematiklik tamoyili (muntazam mashg‘ulotlar o‘tkazish), individual yondashuv tamoyili (har bir o‘quvchining imkoniyatlarini hisobga olish), progressivlik tamoyili (yuklamani bosqichma-bosqich oshirish) [2, 5]. Darslik mashg‘ulotlarda umumrivojlantiruvchi mashqlar asosan isitish (tayyorgarlik) qismida qo‘llanib, asosiy qismda esa maxsus ko‘nikmalarni egallashga xizmat qiluvchi mashqlar bilan kombinatsiyalanadi [1]. Darsdan tashqari mashg‘ulotlarda esa bu mashqlar asosiy mazmuni tashkil etishi mumkin, masalan, ertalabki jismoniy mashqlar, sport to‘garaklari, sog‘lomlashtirish mashg‘ulotlarida.

Natijalar va muhokama. Adabiyotlar tahlili natijalariga ko‘ra, umumrivojlantiruvchi mashqlardan jismoniy

tarbiya darslarida samarali foydalanish uchun quyidagi metodologik yondashuvlar tavsiya etiladi. Birinchidan, darsning tuzilmasiga qarab mashqlarni taqsimlash muhim ahamiyat kasb etadi: tayyorgarlik qismida (10-15 daqiqa) harakatlanish apparatini faollashtirishga qaratilgan yengil intensivlikdagi mashqlar, asosiy qismda (25-30 daqiqa) maxsus ko‘nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiluvchi kombinatsiyalangan mashqlar, yakuniy qismda (5-7 daqiqa) organizmni tinchlantirishga yo‘naltirilgan cho‘zuvchilik mashqlari bajarilishi maqsadga muvofiq [1,2]. Bu tizim o‘quvchilarning organizmiga optimal fiziologik ta‘sir ko‘rsatib, haddan tashqari charchoqning oldini oladi.

Ikkinchidan, umumrivojlantiruvchi mashqlarni tanlashda o‘quvchilarning yosh xususiyatlari va jismoniy rivojlanish darajasini hisobga olish zarur. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun o‘yin elementli mashqlar (hayvonlar harakati taqlidi, estafeta o‘yinlari), o‘rta sinf o‘quvchilari uchun murakkab koordinatsion mashqlar (gimnastika elementlari, akrobatik harakatlar), katta sinf o‘quvchilari uchun esa kuch-quvvat va chidamlilikni talab qiladigan mashqlar (og‘irlik bilan ishlash, intervalli yugurish) tavsiya etiladi [5,6]. Bunday differentsiatsiya o‘quvchilarning qiziqishini oshiradi va jismoniy rivojlanishni samarali ta‘minlaydi.

Uchinchidan, darsdan tashqari mashg‘ulotlarda umumrivojlantiruvchi mashqlarning roli yanada kengayadi, chunki bu erda o‘quvchilar o‘z xohishi va qiziqishiga qarab mashq turlarini tanlash imkoniyatiga ega bo‘ladilar [7, 6]. Sport to‘garaklari, fitnes klublari, ertalabki mashqlar va sog‘lomlashtirish dasturlari o‘quvchilarga turli xil umumrivojlantiruvchi mashqlarni sistemali ravishda bajarish imkonini beradi. Darsdan tashqari mashg‘ulotlarda individuallashtirish imkoniyati ko‘proq bo‘lib, har bir ishtirokchining ehtiyojiga mos mashqlar kompleksi tuzilishi mumkin. Bu esa o‘quvchilarning jismoniy faolligini oshiradi va ularni mustaqil shug‘ullanishga o‘rgatadi.

To‘rtinchidan, boshlang‘ich sinflarda umumrivojlantiruvchi mashqlar orqali o‘quvchilarda sog‘lom turmush tarziga oid ko‘nikmalar shakllantiriladi. Muntazam jismoniy mashqlar bajarish odati nafaqat jismoniy, balki ruhiy sog‘liqni ham mustahkamlaydi, stressga qarshilik ko‘rsatish qobiliyatini oshiradi va umuman hayot sifatini yaxshilaydi. Shu sababli umumrivojlantiruvchi mashqlarni nafaqat texnik ko‘nikma sifatida, balki hayotiy zarurat va sog‘lom yashash madaniyati sifatida o‘rgatish muhim. Beshinchidan, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish ham umumrivojlantiruvchi mashqlarning samaradorligini oshiradi [7]. Video materiallar, mobil ilovalar, fitness trekerlar o‘quvchilarga mashqlarni to‘g‘ri bajarishni o‘rganish va o‘z natijalarini kuzatish imkonini beradi. Bu esa motivatsiyani oshiradi va mashg‘ulotlarni yanada qiziqarli qiladi.

Boshlang‘ich sinflarda umumrivojlantiruvchi mashqlardan samarali foydalanish jarayonida o‘qituvchining kasbiy mahorati va pedagogik kompetentsiyasi hal qiluvchi ahamiyatga ega. O‘qituvchi nafaqat mashqlarni texnik jihatdan to‘g‘ri namoyish etishi, balki har bir mashqning maqsadi va tanaga ta‘sirini o‘quvchilarga tushuntira olishi, ularning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda yuklamani to‘g‘ri dozlash qobiliyatiga ega bo‘lishi zarur. Mashg‘ulot jarayonida o‘qituvchi o‘quvchilarning holati va charchoq darajasini doimiy kuzatib borishi, zarur hollarda

mashqlar intensivligini yoki hajmini o'zgartirishi, xavfsizlik qoidalariga rioya etilishini ta'minlashi kerak. Bundan tashqari, o'qituvchi o'quvchilarda jismoniy mashqlarga nisbatan ijobiy munosabat va motivatsiyani shakllantirish uchun mashqlarni qiziqarli va turli xil shaklda tashkil etishi, muvaffaqiyatlarini e'tirof etishi va rag'batlantirishi muhim. Pedagogik mahorat mashqlarni monotonlikdan qutqarish, o'yin elementlarini kiritish, jamoaviy va individual mashqlarni maqsadga muvofiq kombinatsiyalash orqali namoyon bo'ladi. O'qituvchining shaxsiy namunasi, jismoniy madaniyatga bo'lgan munosabati va kasbiy tayyorgarligi o'quvchilarda sog'lom turmush tarziga intilish va jismoniy faollikni oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich sinflarda umumrivojlantiruvchi mashqlar jismoniy tarbiya tizimida muhim o'rin tutadi va ulardan samarali foydalanish o'quvchilarning jismoniy rivojlanishini kompleks ta'minlaydi. Darslik va darsdan tashqari

mashg'ulotlarda umumrivojlantiruvchi mashqlarni qo'llash metodikasi yosh xususiyatlari, jismoniy tayyorgarlik darajasi va individual ehtiyojlarga asoslanishi kerak. Mashqlarni ketma-ketlik, sistematiklik, progressivlik va individuallashtirish tamoyillari asosida tashkil etish eng yuqori natijalarni beradi. Darslik mashg'ulotlarda umumrivojlantiruvchi mashqlar asosan tayyorgarlik va yordamchi xarakterga ega bo'lsa, darsdan tashqari faoliyatda ular asosiy mazmuni tashkil etishi va o'quvchilarda mustaqil shug'ullanish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qilishi mumkin. Kelajakda umumrivojlantiruvchi mashqlar metodikasini takomillashtirish, milliy sport o'yinlari va an'anaviy mashqlar bilan boyitish, zamonaviy texnologiyalardan kengroq foydalanish istiqbolga ega yo'nalishlar hisoblanadi. Boshlang'ich sinflarda umumrivojlantiruvchi mashqlarning to'g'ri va tizimli qo'llanilishi nafaqat o'quvchilarning jismoniy sog'ligini mustahkamlaydi, balki ularning umumiy rivojlanishiga, ijtimoiy faolligiga va hayot sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Adabiyotlar

1. Ачилов А.М., Акрамов Ж.А., Гончарова О.В. Болаларнинг жисмоний сифатларини тарбиялаш. – Тошкент: «Ўзбекистон», 2004.
2. Курамшин Ю.Ф. Теория и методика физической культуры: Учебник. – Москва: «Советский спорт», 2019.
3. Назаров Р.И. Мактаб жисмоний тарбия дарсларида ўқувчиларнинг ҳаракат фаоллигини ривожлантириш. – Тошкент: «Фан», 2020.
4. Bailey R., Armour K., Kirk D. et al. The educational benefits claimed for physical education and school sport: An academic review. // Research Papers in Education. 2019. Vol. 24(1). – P. 1-27.
5. Эргашев Ф.Б. Жисмоний тарбия ва спорт педагогикаси. – Тошкент: ТДПУ, 2021.
6. Лях В.И. Физическая культура. Методические рекомендации. 10-11 классы. – Москва: «Просвещение», 2020.
7. Тошматова Н.А. Дарсдан ташқари жисмоний тарбия машғулотларининг ўқувчилар саломатлигига таъсири. – Тошкент: «Ўзбекистон», 2020.

**FANLARARO INTEGRATSIYA ASOSIDA BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA
KREATIV FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI**

Paluaniyazova Sapura Kayratdinovna – *stajyor o'qituvchi*

sapurapaluaniyazova1@gmail.com

Hasanova Dilmura Sardor qizi – *student*

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

**МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ КРЕАТИВНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ
НА ОСНОВЕ МЕЖПРЕДМЕТНОЙ ИНТЕГРАЦИИ**

Палуаниязова Сапура Кайратдиновна – *стажёр преподаватель*

Хасанова Дилнур Сардоровна – *студент*

Нукусский государственный педагогический институт имени Ажсинияза

**METHODOLOGY OF DEVELOPING CREATIVE ACTIVITY IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS BASED
ON INTERDISCIPLINARY INTEGRATION**

Paluaniyazova Sapura Kayratdinovna – *trainee teacher*

Hasanova Dilmura Sardor qizi – *student*

Nukus State Pedagogical Institute named after Ajiniyaz

Tayanch so'zlar: boshlangan sinflar, kreativ faoliyat, fanlararo integratsiya, o'qitish metodikasi, innovatsion texnologiyalar, ijodiy tafakkur, boshlang'ich sinf o'quvchilari, kreativlik, loyiha, o'yin texnologiyalari, refleksiya.

Rezyume. Maqolada boshlang'ich ta'lim tizimining jamiyat rivojidadagi ahamiyati, o'quvchilarda mustaqil fikrlash, ijtimoiy faollik va ijodiy tafakkurni shakllantirish masalalari tahlil qilinadi. Shuningdek, boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ faoliyatni rivojlantirish, ularning bilishga bo'lgan qiziqishini oshirish hamda shaxsiy salohiyatini ro'yobga chiqarishning pedagogik jihatlari yoritiladi.

Ключевые слова: раннее детство, творческая деятельность, междисциплинарная интеграция, методика преподавания, инновационные технологии, творческое мышление, учащиеся начальной школы, креативность, проект, игровые технологии, рефлексия.

Резюме. В статье анализируется значение системы начального образования в развитии общества, а также вопросы формирования у учащихся самостоятельного мышления, социальной активности и творческого мышления. Кроме того, раскрываются педагогические аспекты развития креативной деятельности у младших школьников, повышения их познавательного интереса и реализации их личностного потенциала.

Key words: early childhood, creative activity, interdisciplinary integration, teaching methodology, innovative technologies, creative thinking, primary school students, creativity, project, game technologies, reflection.

Summary. The article analyzes the importance of the primary education system in the development of society, as well as the issues of forming independent thinking, social activity, and creative thinking in students. It also highlights the pedagogical aspects of developing creative activity in primary school pupils, increasing their cognitive interest, and realizing their personal potential.

Kirish. Fanlararo integratsiya g'oyasi hozirgi paytda dunyo ta'lim tizimidagi ilg'or pedagogik yondashuvlardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Bu yondashuv bolalarning bir nechta fan doirasida bilimlarini mustahkamlash, ularni turli fanlar bilim va ko'nikmalari bilan uyg'unlashtirish orqali o'quv jarayonini sifatli tashkil etish imkonini beradi. Boshlang'ich sinflarda fanlararo integratsiya o'quvchilarning nafaqat bilimlarini boyitadi, balki ularning nutq madaniyatini, tanqidiy va ijodiy fikrlashini ham rivojlantiradi, mustaqil, har tomonlama yetuk shaxs bo'lib yetishishiga zamin yaratadi. Fanlararo integratsiya asosida kreativ faoliyatni rivojlantirish bir necha muhim pedagogik shart-sharoitlarga tayanadi. Birinchi sharti – o'qituvchi darsda bir vaqtning o'zida bir nechta fanlar elementlarini kirita olishi, ularni konseptual jihatdan bog'lay bilishi. Har bir mavzu va topshiriqda bola atrof-muhit hodisalari, ona tili, matematika, tasviriy san'at, texnologiya kabi fanlar orasidagi bog'liqlikni amalda anglay olishi lozim. Bunday yondashuv bola ongida turli predmetlar haqida bilimlar yagona mazmunga ega bo'lishiga, ularni kundalik hayotda qo'llab ko'rishga, olgan bilimlarini yangi vaziyatlarga transfer qilish ko'nikmasi shakllanishiga yordam beradi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Kreativ faoliyat so'z bilan, ma'lumotlar bilan, material bilan tajriba o'tkazish jarayonida namoyon bo'ladi. U yangi g'oya, yangi yondashuv yoki mahsulot yaratishga intilishdir. Boshlang'ich sinf o'quvchisining kreativligi o'z so'zi va harakati bilan biror yangilik qilishga, mustaqil fikr bayon etishga, odatdagidan farqli yechimlarni izlashga, fantaziya-

sini ishga solib, masalani har xil nuqtai nazardan tahlil qilishga yo'naltiriladi. Dars jarayonida integratsiyalashgan yondashuv yaratish uchun mavzularda interaktiv o'yinlar, ijodiy mashqlar, rasm chizish, voqeani hikoya qilib berish, she'r tuzish kabi faoliyatlarni birlashtirish mumkin. Bolalarga mavzuni o'zaro bog'liq ravishda yetkazishda asosiy e'tibor ular tomonidan bilimlarning amaliy hayotdagi ahamiyatini anglashga qaratiladi. Masalan, matematik topshiriqlarni hayvonlar, tabiat hodisalari bilan bog'liq holda yechish, fizikaviy jarayonlarni rasm chizish yoki hikoya yozish orqali tushuntirish, ona tili materiallarini atrof-muhitni o'rganish jarayonida qo'llash bolalarda bilimlarning qanchalik muhimligini bevosita his qilishga yordam beradi. Integratsiyalashgan topshiriq bolalarni mustaqil mulohaza yuritish, har bir muammoni o'z nuqtai nazari bilan hal qilishga undaydi [1].

Kreativ faoliyatni rivojlantirishda o'yin elementlari muhim ahamiyatga ega. O'yin – bolada ijodiylikni uyg'otadigan eng tabiiy muhitdir. O'yin orqali bolaning idrok etish jarayonlari faol harakatga keladi, u faol fikrlay boshlaydi, o'z imkoniyatini sinab ko'radi va o'z-o'zini ifoda etadi. Dars jarayonida "Rolli o'yinlar", "Fantaziya mashqlari", "Ijodiy laboratoriyalar" tashkil etish, obrazlar yaratish va ular asosida ertak, voqeani ijod etish ham bolaning kreativ mashg'ulotlar orqali rivojlanishini ta'minlaydi [2].

Muhokama va natijalar. Fanlararo integratsiyalashgan ta'lim dasturlari o'quvchilarning ijodiy va amaliy faoliyatiga asoslangan topshiriqlar orqali boyitiladi. Har bir dars,

har bir mashg'ulotda hayotiy muammolar, atrof-muhit fenomenlari, kundalik hayotdagi oddiy narsalardan qanday qilib yangilik yaratish mumkinligini o'rganishga e'tibor beriladi. Masalan, tasviriy san'at va tabiatshunoslik fanlarini birlashtirib, daraxt hayoti, tabiat qudrati, hayvonot olamining bo'yoqlardagi ifodasi, ranglar orqali tabiatni ochib berish, matn yoki she'r orqali voqea yaratish – bularning barchasi bolada estetik his-tuyg'uni, tafakkurni, dunyoqarashni kengaytiradi. Kreativ faoliyatni rivojlantirish uchun o'qituvchi guruhli va individual ish usullaridan samarali foydalanadi. Guruhiy topshiriqlarda bolalar o'z hayolida paydo bo'lgan g'oyalarni o'rtoqlashadilar, birligida loyihalar tuzadilar, muammoni jamoa bo'lib hal qilish usullarini izlaydilar. Ularning bir-biridan tajriba olishi, hamkorlikda yangi yondashuvlarni sinab ko'rishi ham kreativ tafakkurning rivojlanishiga asos bo'ladi. Individual topshiriqlar esa har bir bolaning o'z salohiyatini namoyon qilishiga imkon yaratadi. Masalan, har bir bola mustaqil ertak tuzadi, yangi she'r yozadi yoki betakror rasm chizadi [3].

Kreativ faoliyatni fanlararo integratsiya asosida rivojlantirish metodikasida loyiha qilish usuli ham keng qo'llaniladi. Loyiha ishlari o'quvchini mustaqil mavzuni izlash, axborot 105ramati, uni saralash, asoslash, yoritish va yaratish faoliyatiga olib kiradi. Loyiha topshirig'i ijodkorlik va integral tafakkurni rivojlantirishda juda samaralidir. Masalan, "Mening orzu bog'im", "Sayyoramiz zaminida hayot", "Atrof-muhit muhofazasi" kabi loyihalarda bolalar tabiat va inson, ekologiya masalalari, ijtimoiy muammolar va ularni hal qilish yo'llari ustida o'ylashadi, yangi g'oyalar olamiga sho'ng'ib, ijodiy ishlanmalar tayyorlaydi. O'quvchilar ijodiy faoliyatining samaradorligini oshirish uchun darsdan tashqari mashg'ulotlar, to'garaklar, mahorat darslari tashkil etish ham maqsadga muvofiqdir. Ularda bolalar o'zini erkin va mustaqil ifoda eta oladigan muhit mavjud bo'ladi. Har xil tanlovlar, ko'rgazmalar, ijodiy bellashuvlar, teatrlar – bularning barchasi bolaning tasavvurini kengaytiradi, salohiyatini namoyon qilishiga imkon beradi [4].

Yangi pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish kreativlikni rivojlantirishda muhim omilga aylanmoqda. Zamonaviy raqamli vositalardan foydalanish, elektron darslik, multimedia resurslar asosida topshiriqlar bajarish, vizual va audio materiallardan ijodiy foydalanish ijobiy natija beradi. Bolalar ochiq manbalardan informatsiya izlashni, tasviriy dasturlarda ishlashni, video hikoyalar tuzishni, online viktorinalarda qatnashishni o'rganadilar. Yangi texnologik vositalar eski yondashuvlardan farqli ravishda bolalarga yangilik yaratish imkoniyatini kengaytiradi. Ta'lim muhitida o'quvchilarning kreativ faoliyatini rivojlantirishda asosiy metodologik yondashuv shundaki, o'qituvchi har bir bolaning qiziqishi, iqtidorini inobatga olgan holda, individual rivojlanish hamda jamoaviy hamkorlik uchun sharoit hozirlashi zarur bo'ladi. O'qituvchi bolaning har bir muvaffaqiyatini ijobiy baholaydi, uni ilhomlantiradi, xatolarini to'g'ri yo'l bilan tuzatadi va jonli mulohaza yuritish uchun qulay iqlim yaratadi. Har qanday topshiriqda bolaga tanlov, erkinlik, mustaqil fikrlash imkoniyatlari beriladi.

Adabiyotlar

1. Hasanboyeva N.N. Boshlang'ich ta'limda innovatsion metodlar. – Toshkent: «Fan va texnologiya», 2021.
2. Shodmonova S.S. Boshlang'ich ta'limda kreativ pedagogika asoslari. – Toshkent: «Yangi asr avlodi», 2018.
3. Abdullaeva D.M. STEAM-ta'lim: nazariya va amaliyot yo'llari. Monografiya. – Toshkent: «Innovatsiya», 2023.
4. Valiyev S.J. Ilk ta'lim bosqichida kreativ tafakkurni rivojlantirish yo'llari. – Toshkent: «Buloq», 2019.
5. Umarova G.G. Fanlararo integratsiya va ijodiy faoliyatning zamonaviy asoslari. – Toshkent: «UzFA», 2022.
6. Norqulova S.B., Abduvahobova M.M. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma. – Toshkent: «Ilm Ziyov», 2015.
7. Xodjayeva M.X., Abdujalilova Z.R. Boshlang'ich sinflarda o'qitish metodikasi, o'quv qo'llanma. – Toshkent: «O'qituvchi», 2020.

Kreativ faoliyatda refleksiya, ya'ni bolalarning o'z ishlari ustida o'ylashi, natijani tahlil qilishi va o'z o'zini baholashga o'rgatish ham juda muhim. Refleksiya orqali bola nimani yaxshi bajargani, nimasi ustida ishlashi lozimginini tushunadi. Bu bosqichda bolaning tanqidiy tafakkuri, o'z qusurlarini to'g'irlashga intilishi, o'z-o'zi ustida ishlash motivatsiyasi rivojlanadi. Darsda ilg'or pedagogik yondashuvlardan biri bu – "konseptual xarita", "mashg'ulot diagrammasi", "fikrlar buluti" usullari orqali yangi masalalarni yechishda o'quvchi o'z bilimini tizimli tarzda namoyon qila oladi. Ushbu metodik yondashuv bolani ilmiy izlanishga, mustaqil fikrlashga, ijodkorlik asoslarini o'rganishga undaydi. Dars yakunida yangi masala, topshiriq yoki muammoning turli yechimlari bo'yicha mushohada yuritish, muhokama qilish o'quvchini faol bilim olish muhitiga olib kiradi. Har bir bola o'z g'oyasini erkin ifoda etish, savollar berish va faol ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'lib, natijada, uning tafakkuri, tasavvuri, ijodiy salohiyati yanada kamol topadi. Integratsiyalashgan o'quv faoliyatida ijtimoiy hamkorlik unsurini rivojlantirish ham dolzarbdur. Bu bolaning o'zaro ishonch va hamkorlik muhitida ishlashini, qarama-qarshi fikrlarni murosaga keltirishni, shuningdek, jamoadagi umumiy javobgarlik, rahbarlik, yetakchilik, hurmat va do'stlik sifatlarining shakllanishini ta'minlaydi. Ijodiy loyiha va jamoaviy topshiriqlar o'quvchilarda hamkorlik madaniyati, yetakchilik fazilatlarini rivojlantiradi [5].

Innovatsion loyihalar, gidlar, o'yinli treninglar, kvest mashg'ulotlar, tadqiqot ishlari, STEAM yondashuvlar, kreativ master-klass va dramatik mashg'ulotlar kabi zamonaviy yondashuvlar bola tafakkurining kengayishini, mustaqil o'qish va bilim olish motivatsiyasining kuchayishini ta'minlaydi. Har bir integratsiyalashgan mashg'ulot o'quvchiga o'zgacha hayotiy voqelikni, yangicha ilmiy ko'nikma va ko'rinishlarni ochib beradi. Bolaning o'z tajribasini o'rganishi, sinfda va hayotta o'zini sinovdan o'tkazishi, natijasini ko'rishi ongli ijodkor va innovator shaxs kamolotini har tomonlama yakunlaydi.

Xulosa. Fanlararo integratsiya asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ faoliyatni rivojlantirish zamonaviy ta'limning muhim vazifalaridan biridir. Fanlararo integratsiya orqali o'quvchilar bilimlarni faqat o'rganmaydi, balki turli fanlar, voqealar va jarayonlar bog'liqligini anglaydi, mustaqil izlanishga, muammolarni yechishga va yangilik yaratishga o'rganadi. Bolaning tafakkuri, tasavvuri, ijodiy harakat va faoliyati rivojlanib, yangi axborotlarni kombinatsiya qila olish, o'z g'oyasini ochiq ifoda etish, zamonaviy sharoitga moslashish, jamiyatda munosib o'rin egallashga tayyor bo'lib yetishadi. O'qituvchining bilim va malakasi, o'quv muhitining kreativligiga beriladigan e'tibor, zamonaviy vositalardan foydalanish samarasi natijasida har bir bola o'z salohiyatini to'liq ochib bera oladi. Kreativ faoliyatni rivojlantirishda doimiy innovatsion izlanish, yangi metod va usullarni joriy qilish, bola qiziqishi va intilishiga ko'mak berish orqali boshlang'ich ta'lim va jamiyat taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shish mumkin.

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИКИ ОБУЧЕНИЯ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ СТУДЕНТОВ
НАПРАВЛЕНИЯ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА ОСНОВЕ ПОДХОДА CLIL**

(на примере каракалпакских групп)

Сейтназарова Шахноза Айназаровна – преподаватель

SeytnazarovaSh@gmail.com

Инновационно технологический университет

**АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ ЙЎНАЛИШИ ТАЛАБАЛАРИГА ИНГЛИЗ ТИЛИНИ ЎҚИТИШ
МЕТОДИКАСИНИ CLIL ЁНДОШУВИ АСОСИДА ТАКОМИЛЛАШТИРИШ**

(қорақалпоқ гуруҳлари мисолида)

Сейтназарова Шахноза Айназаровна – ўқитувчи

Инновацион технологиялар университети

**IMPROVING THE METHODOLOGY OF TEACHING ENGLISH TO STUDENTS OF INFORMATION
TECHNOLOGY BASED ON THE CLIL approach (on the example of Karakalpak groups)**

Seytnazarova Shakhnoza Aynazarovna – Lecturer

University of Innovative Technologies

Таянч сўзлар: CLIL, инглиз тилини ўқитиш, ахборот технологиялари, касбий йўналтирилган таълим, қорақалпоқ гуруҳлари, интеграциялашган таълим, ўқитиш методикаси.

Резюме. Мақолада ахборот технологиялари йўналиши талабаларига инглиз тилини ўқитиш методикасини CLIL (Content and Language Integrated Learning) ёндошуви асосида такомиллаштириш хусусиятлари кўриб чиқилади. Ушбу ёндошув фан мазмуни ва хорижий тилни интеграция қилишни назарда тутаяди, бу эса талабаларнинг касбий ҳамда тил компетенцияларини бир вақтнинг ўзида ривожлантириш имконини беради.

Ключевые слова: CLIL, обучение английскому языку, информационные технологии, профессионально-ориентированное обучение, каракалпакские группы, интегрированное обучение, методика преподавания.

Резюме. В статье рассматриваются особенности совершенствования методики обучения английскому языку студентов направления информационных технологий на основе подхода CLIL (Content and Language Integrated Learning). Данный подход предполагает интеграцию предметного содержания и иностранного языка, что позволяет одновременно развивать профессиональные и языковые компетенции студентов.

Key words: CLIL, English language learning, information technology, career-oriented learning, Karakalpak groups, integrated learning, teaching methodology.

Summary. The article examines the features of improving the methodology for teaching English to information technology students based on the CLIL (Content and Language Integrated Learning) approach. This approach involves integrating subject content and foreign language, which allows for the simultaneous development of students' professional and linguistic competencies.

Введение. В современном мире английский язык является основным средством международной коммуникации, особенно в сфере информационных технологий. Большинство научных публикаций, программного обеспечения, документации и образовательных ресурсов создаётся именно на английском языке. В связи с этим владение английским языком становится важным условием профессиональной подготовки будущих специалистов в области информационных технологий. Традиционные методы преподавания иностранного языка в вузах часто ориентированы на изучение грамматики и общелитературной лексики, что не всегда соответствует профессиональным потребностям студентов технических специальностей.

Анализ литературы. В рассмотренных источниках CLIL-подход (Content and Language Integrated Learning) представлен как эффективная методика обучения английскому языку студентов неязыковых специальностей. О.К.Ильина [1] и А.Л.Морозова [2] подчеркивают его значимость в профессионально-ориентированном обучении, отмечая повышение мотивации и развитие языковых навыков через интеграцию с профильными дисциплинами. Н.Е.Собсынова [2] акцентирует внимание на преодолении языкового барьера у студентов

нефилологических направлений, тогда как А.С.Крюкова и Е.А.Салтыкова [4] рассматривают сочетание CLIL с коммуникативным подходом как средство формирования коммуникативной компетенции. Теоретическую основу составляют работы Д.Марша [5] и Д.Койла [6], в которых CLIL рассматривается через модель 4С (Content, Communication, Cognition, Culture). В целом, анализ показывает, что CLIL способствует комплексному развитию профессиональных и языковых навыков студентов и повышает эффективность образовательного процесса.

Результаты. В результате у студентов возникает проблема применения английского языка в профессиональной сфере. Одним из эффективных способов решения данной проблемы является использование интегрированного подхода CLIL (Content and Language Integrated Learning). Подход CLIL предполагает одновременное изучение учебного предмета и иностранного языка, когда язык выступает не только объектом изучения, но и инструментом получения знаний. Данный метод был предложен Дэвидом Маршем и получил широкое распространение в европейских образовательных системах. Суть подхода заключается в том, что студенты изучают предметное содержание через иностранный язык, что

способствует развитию как языковых, так и профессиональных компетенций [1]. Одной из теоретических основ CLIL является модель «4C», включающая четыре взаимосвязанных компонента: содержание (Content), коммуникация (Communication), мышление (Cognition) и культура (Culture). Данная модель позволяет организовать обучение таким образом, чтобы студенты одновременно усваивали предметные знания и развивали навыки общения на иностранном языке. Особую актуальность данная методика приобретает при обучении студентов IT-направления, поскольку многие профессиональные термины и концепции изначально существуют на английском языке. Применение CLIL позволяет интегрировать изучение профессиональной терминологии, программирования и современных цифровых технологий с развитием языковых навыков.

В условиях Каракалпакстана использование CLIL имеет дополнительные преимущества, поскольку студенты каракалпакских групп обучаются в многоязычной среде (каракалпакский, узбекский, русский и английский языки). Это требует разработки специальных методических подходов, которые учитывают языковую специфику и образовательные потребности студентов. Целью данной работы является исследование возможностей совершенствования методики обучения английскому языку студентов направления информационных технологий на основе CLIL-подхода на примере каракалпакских групп. Подход CLIL представляет собой одну из современных педагогических технологий, направленных на интеграцию предметного содержания и иностранного языка. Основная идея данного подхода заключается в том, что иностранный язык используется как средство изучения профессиональных дисциплин, а не только как отдельный учебный предмет. Это позволяет создать более естественную языковую среду и повысить эффективность обучения. Одним из ключевых принципов CLIL является принцип двойной направленности обучения. Он предполагает одновременное развитие предметных знаний и языковых навыков студентов.

В процессе обучения преподаватель уделяет внимание не только объяснению профессиональных концепций, но и формированию коммуникативной компетенции студентов [2]. В результате студенты осваивают профессиональную лексику и учатся использовать её в реальных коммуникативных ситуациях. В обучении студентов направления информационных технологий CLIL может применяться в различных формах. Например, преподаватель может использовать тексты и видеоматериалы, посвящённые современным IT-технологиям. Студенты анализируют содержание материала, выполняют задания и обсуждают его на английском языке. Такой подход способствует развитию навыков чтения, аудирования и говорения.

Рассмотрим пример практического задания. Студентам предлагается текст на английском языке о языках программирования. После чтения текста они выполняют следующие задания:

Определить основные характеристики языков программирования Python, Java и C++.

Найти в тексте профессиональные термины (algorithm, database, software, debugging).

Обсудить в группах преимущества каждого языка программирования.

В результате выполнения такого задания студенты не только изучают новую лексику, но и закрепляют знания по своей специальности [3]. Другим эффективным методом является проектная работа. Например, студентам предлагается создать презентацию на тему «Artificial Intelligence in Modern IT». В ходе выполнения проекта студенты ищут информацию на английском языке, анализируют её и представляют результаты в виде презентации.

Пример структуры такого проекта:

Introduction to Artificial Intelligence

Main applications of AI in IT

Advantages and challenges of AI technologies

Future development of AI

Подобные задания развивают исследовательские навыки студентов, а также формируют способность использовать английский язык в профессиональной деятельности. В каракалпакских группах особое значение имеет использование визуальных и цифровых средств обучения. Это связано с тем, что многие студенты испытывают трудности при работе с академическими текстами на английском языке. Использование инфографики, видеуроков и интерактивных платформ помогает облегчить процесс восприятия информации. Например, при изучении темы «Computer Networks» преподаватель может использовать схему компьютерной сети и объяснять её элементы на английском языке. Студенты должны назвать основные компоненты сети (router, server, client, network protocol) и объяснить их функции. Кроме того, эффективным является использование онлайн-платформ и цифровых инструментов, которые позволяют студентам выполнять задания в интерактивной форме. Использование таких технологий способствует повышению мотивации студентов и делает процесс обучения более динамичным.

Исследования показывают, что применение CLIL-технологий способствует развитию как языковых, так и профессиональных компетенций студентов [4]. Кроме того, данный подход повышает мотивацию студентов к изучению иностранного языка и формирует навыки самостоятельной работы с информацией. Таким образом, внедрение CLIL-подхода в обучение студентов IT-направления является эффективным способом совершенствования методики преподавания английского языка. В условиях глобализации и развития цифровых технологий владение английским языком становится необходимым условием профессиональной подготовки специалистов в области информационных технологий. Традиционные методы обучения иностранному языку не всегда обеспечивают достаточный уровень профессиональной языковой подготовки студентов технических специальностей. Одним из наиболее эффективных способов решения данной проблемы является использование подхода CLIL, который предполагает интеграцию изучения иностранного языка и предметного содержания. Применение данного подхода позволяет формировать у

студентов как языковые, так и профессиональные компетенции. В ходе исследования было установлено, что CLIL способствует развитию коммуникативных навыков студентов, расширению профессиональной лексики и формированию навыков использования английского языка в профессиональной сфере [5]. Особую роль в реализации данного подхода играют такие методы обучения, как проектная деятельность, работа с профессиональными текстами, использование мультимедийных ресурсов и цифровых технологий. На примере каракалпакских групп было выявлено, что внедрение CLIL-подхода требует учёта особенностей многоязычной образовательной среды.

Заключение. Студенты каракалпакских групп часто используют несколько языков в процессе обучения, что может создавать определённые трудности при изучении английского языка. В связи с этим преподавателю необходимо применять дополнительные методические средства, такие как визуальные материалы, интерактивные задания и поэтапное объяснение

профессиональной терминологии. Также важным фактором успешного внедрения CLIL является подготовка преподавателей и разработка специализированных учебных материалов, ориентированных на профессиональные потребности студентов. Учебные задания должны быть связаны с будущей профессиональной деятельностью студентов и включать реальные задачи из области информационных технологий. В целом можно сделать вывод, что использование CLIL-подхода является перспективным направлением совершенствования методики обучения английскому языку студентов IT-направления. Данный подход позволяет повысить эффективность образовательного процесса, развить профессиональные компетенции студентов и подготовить их к работе в международной профессиональной среде. Таким образом, дальнейшее развитие методики CLIL и её внедрение в систему высшего образования может способствовать повышению качества подготовки специалистов в области информационных технологий.

Литература

1. Ильина О.К. Технология CLIL в обучении английскому языку журналистики. // Вестник Тамбовского университета, 2024.
2. Морозова А.Л. Применение CLIL-подхода в обучении ESP. // Вестник Тамбовского университета.
3. Есбосынова Н. Использование CLIL-технологий в обучении английскому языку нефилологическим студентам. Методологические подходы. // Лингвоспектр, 2024, Т. 3, № 1. – С. 81-85.
4. Крюкова А.С., Салтыкова Е.А. Применение коммуникативного подхода на основе CLIL технологии в обучении английскому языку. // Вестник Российского университета дружбы народов. Серия: Информатизация образования. 2017, Т. 14, № 4. – С. 484-492.
5. Марш Д. Интегрированное обучение по содержанию и языку (CLIL). – Кембридж: Кембриджский университет, 2010.
6. Койл Д., Худ П., Марш Д. CLIL: предметно-языковое интегрированное обучение. – Кембридж: Кембриджский университет, 2010.

УДК: 37.02:57:004.8

**ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИДА БИОЛОГИЯ ФАНИНИ ЎҚИТИШ МЕТОДИКАСИНИ
СУНЪИЙ ИНТЕЛЛЕКТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ АСОСИДА ТАКОМИЛЛАШТИРИШ**

Турекеева Альфия Жиенбековна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори, доцент
alfiaturekeeva4@gmail.com

Ажиниёз номидаги Нукус давлат педагогика институти

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИКИ ПРЕПОДАВАНИЯ БИОЛОГИИ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ
ЗАВЕДЕНИЯХ НА ОСНОВЕ ТЕХНОЛОГИЙ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА**

Турекеева Альфия Жиенбековна – доктор философии по педагогическим наукам, доцент
Нукусский государственный педагогический институт имени Ажинияза

**IMPROVEMENT OF THE METHODOLOGY OF TEACHING BIOLOGY IN HIGHER EDUCATIONAL
INSTITUTIONS BASED ON ARTIFICIAL INTELLIGENCE TECHNOLOGIES**

Turekeeva Alfiya Zhienbekovna – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor
Nukus State Pedagogical Institute named after Ajiniyaz

Таянч сўзлар: сунъий интеллект, биология таълими, олий таълим, адаптив ўқитиш, рақамли педагогика, виртуал лаборатория, интеллектуал баҳолаш, ўқув аналитикаси.

Резюме. Мақолада олий таълим муассасаларида биология фанини ўқитиш жараёни сунъий интеллект технологиялари асосида такомиллаштиришнинг назарий, дидактик ва амалий жиҳатлари кенг ёритилган. Рақамли интеллектуал воситалар ёрдамида таълимни индивидуаллаштириш, адаптив ўқитиш мухитини шакллантириш, виртуал лаборатория машғулотларини ташкил этиш, билимни автоматик таҳлил қилиш ва педагогик қарор қабул қилишни қўллаб-қувватлаш имкониятлари таҳлил қилинган. Биология таълими учун сунъий интеллект интеграцияланган босқичли методик модель таклиф этилган ҳамда тажриба-синов ишлари ва статистик таҳлил натижалари асосида унинг самарадорлиги асосланган.

Ключевые слова: искусственный интеллект, биологическое образование, высшее образование, адаптивное обучение, цифровая педагогика, виртуальная лаборатория, интеллектуальное оценивание, учебная аналитика.

Резюме. В статье широко освещены теоретические, дидактические и практические аспекты совершенствования процесса преподавания биологии в высших учебных заведениях на основе технологий искусственного интеллекта. Проанализированы возможности индивидуализации образования с помощью цифровых интеллектуальных средств, формирования адаптивной среды обучения, организации виртуальных лабораторных занятий, автоматического анализа знаний и поддержки принятия педагогических решений. Предложена поэтапная методическая модель, интегрированная с искусственным интеллектом для обучения биологии, и на основе результатов экспериментальной работы и статистического анализа обоснована ее эффективность.

Key words: artificial intelligence, biological education, higher education, adaptive learning, digital pedagogy, virtual laboratory, intellectual assessment, educational analytics.

Summary. This article extensively covers the theoretical, didactic, and practical aspects of improving the process of teaching biology in higher educational institutions based on artificial intelligence technologies. The possibilities of individualizing education using digital intellectual tools, forming an adaptive learning environment, organizing virtual laboratory classes, automatic knowledge analysis, and supporting pedagogical decision-making were analyzed. A step-by-step methodological model of integrated artificial intelligence for biology education is proposed, and its effectiveness is substantiated based on the results of experimental work and statistical analysis.

Кириш. Ҳозирги кунда таълим тизимида рақамли технологиялар жадал суръатлар билан ривожланиб бормоқда. Айниқса, сунъий интеллект (СИ) имкониятларидан фойдаланиш фанларни ўқитиш сифатини янги босқичга олиб чиқмоқда. Биология фани табиий жараёнлар, мураккаб тизимлар ва экспериментларга асосланган бўлиб, уни ўқитишда замонавий технологияларни жорий этиш муҳим ҳисобланади.

Рақамли иктисодиёт ва билимлар жамияти шаклланаётган шароитда олий таълим тизими олдида турган асосий вазифалардан бири – ўқитиш сифатини ошириш ва инновацион педагогик технологияларни амалиётга кенг жорий этишдан иборат [1]. Айниқса, табиий фанлар, жумладан биологияни ўқитишда назарий билимни амалий тушуниш билан уйғунлаштириш, мураккаб жараёнларни визуал ва динамик шаклда тушунтириш муҳим аҳамият касб этади [2].

Сунъий интеллект технологиялари моделлаштириш, адаптив бошқариш ва интеллектуал таҳлил имконият-

лари орқали ўқитиш методикасини сифат жиҳатдан янгилайди [1]. Бу эса биология таълимида назарий билим ва амалий тушуниш ўртасидаги боғланишни кучайтиради.

Биология фанининг мазмуни тирик тизимларнинг кўп даражали ташкил топиши, функционал боғлиқликлар ва ўзгарувчан жараёнлар билан характерланади. Шу сабабли уни ўқитишда фақат матнли ёки оғзаки баён усули билан чекланиб қолиш таълим самарадорлигини чеклаб қўяди. Замонавий сунъий интеллект технологиялари эса моделлаштириш, адаптив бошқариш ва интеллектуал таҳлил имкониятлари орқали биология таълими методикасини сифат жиҳатдан янги босқичга олиб чиқиш имконини беради [1].

Адабиётлар таҳлили. Сўнгги ўн йилликда таълим соҳасида сунъий интеллектдан фойдаланиш бўйича тадқиқотлар сони кескин ошди. Халқаро илмий адабиётларда “AI in Education” йўналиши мустақил тадқиқот соҳаси сифатида шаклланиб келимоқда [1]. Унда адаптив ўқитиш

тизимлари, интеллектуал тугорлар, автоматик баҳолаш ва ўқув аналитикаси воситалари таълим самарадорлигини оширувчи омил сифатида кўрсатилган [2].

Қатор тадқиқотчилар интеллектуал ўқитиш тизимлари талабаларнинг индивидуал ўқув траекториясини шакллантиришда самарали эканини таъкидлайди [3]. Виртуал лаборатория муҳитлари табиий фанларда амалий кўникмаларни хавфсиз ва қайта такрорланувчи форматда шакллантириш имконини бериши илмий жиҳатдан асосланган [4]. Рақамли педагогика концепцияларида таълимни маълумотларга асосланган ҳолда бошқариш ва қарор қабул қилиш устувор йўналиш сифатида қаралади [5].

Методология. Сунъий интеллект – инсон ақлий фаолиятини таклид қилувчи компьютер тизимлари мажмуасидир. Таълим соҳасида СИ қуйидаги имкониятларни яратади:

- ўқувчиларнинг билим даражасини автоматик таҳлил қилиш;
- индивидуал таълим траекториясини шакллантириш;
- интерактив ва визуал ўқув материалларини яратиш;
- баҳолаш жараёнини автоматлаштириш.

Тадқиқот жараёнида илмий-методик адабиётлар таҳлили, педагогик моделлаштириш, тажриба-синов, таққослаш ва математик-статистик таҳлил усуллари қўлланилди [3]. Методик конструкция компетенциявий ёндашув ва адаптив таълим тамойилларига асосланди [6].

Олий таълим муассасаларида биология фанини ўқитишда сунъий интеллект технологияларини қўллаш комплекс методик ёндашувни талаб қилади. Бу жараён алоҳида рақамли воситани қўллаш билан чекланмайди, балки ўқитиш мақсади, мазмуни, методи ва баҳолаш тизимини қайта кўриб чиқишни назарда тутати [2].

Сунъий интеллект асосидаги ўқитиш муҳити талабанинг фаол ўқув субъекти сифатида иштирокини кучайтиради. Интеллектуал тизимлар талабанинг жавоблари, ўқиш суръати ва қийинчилик нуқталарини аниқлаб, мос ўқув контентини таклиф қилади [6]. Бу айниқса биология фанининг генетика, молекуляр биология, биохимия каби мураккаб бўлимларини ўзлаштиришда муҳим аҳамиятга эга.

Биология таълимида визуал моделлаштириш алоҳида ўрин тутати. Сунъий интеллект билан бойитилган симуляция муҳитлари орқали хужайра бўлиниши, оксил синтези, фермент реакциялари ва экотизим динамикасини интерактив шаклда кузатиш мумкин [4]. Бу талабада сабаб-натيجا боғланишларини чуқур тушунишни таъминлайди.

Адаптив ўқитиш механизми биология таълимида дифференциал ёндашувни амалга ошириш имконини беради. Интеллектуал платформа кучли талабаларга мураккаб таҳлилий топшириқлар, қийналаётган талабаларга эса босқичма-босқич тушунтириш ва қўшимча машқлар таклиф этади [6]. Натيجاда ўқитишнинг индивидуал траекторияси шаклланади.

Интеллектуал баҳолаш тизимлари анъанавий тестдан фарқли равишда жавоб мантигини таҳлил қилади. Биологик масалаларни ечишда қайси босқичда хатога йўл қўйилганини аниқлаб, адресли қайта алоқа

беради [3]. Бу коррекцион ўқитишни самарали ташкил этишга хизмат қилади.

Ўқитувчининг роли ва рақамли компетенция. Сунъий интеллект муҳитида ўқитувчининг роли ахборот етказувчидан методик дизайнер ва ўқув жараёни аналитигига айланади [5]. У рақамли ресурсларни танлайди, дидактик мақсадга мослаштиради ва натижаларни таҳлил қилади. Шу боис ўқитувчининг рақамли ва методик компетенциясини ривожлантириш муҳим шарт ҳисобланади.

Тадқиқот натижалари. Тадқиқот ишлари олий таълим муассасасининг биология йўналиши 2-курс талабалари иштирокида тажриба-синов форматда ташкил этилди. Тадқиқотда жами 60 нафар талаба қатнашди ва улар тенг сонли икки гуруҳга тақсимланди: 30 нафардан – тажриба гуруҳи ва назорат гуруҳи. Гуруҳларни шакллантиришда талабаларнинг бошланғич билим даражаси ва ўқув кўрсаткичлари ўзаро яқин бўлиши инобатга олинди.

Тажриба гуруҳида биология фанини ўқитиш жараёни сунъий интеллект технологиялари интеграция қилинган методик модель асосида ташкил этилди. Унда адаптив ўқитиш платформаси, виртуал лаборатория симуляциялари, интеллектуал тестлаш тизими ва автоматик қайта алоқа инструментлари қўлланилди. Назорат гуруҳида эса анъанавий тушунтириш-мустаҳкамлаш-назорат схемасига асосланган ўқитиш методикаси сақланди [2].

Тадқиқотда ўқув натижаларини баҳолаш қуйидаги мезонлар асосида амалга оширилди: назарий билимнинг тўлиқлиги, амалий топшириқларни бажариш сифати, таҳлилий фикрлаш кўникмаси ва мустақил иш фаоллиги даражаси [3]. Ҳар бир мезон бўйича кўрсаткичлар балл-рейтинги ва даражавий шкала асосида баҳоланди.

Яқин назорат натижалари таҳлили шуни кўрсатдики, тажриба гуруҳида юқори ўзлаштириш даражасига эга талабалар улуши 42% ни ташкил этди, назорат гуруҳида эса ушбу кўрсаткич 24% даражасида қайд этилди. Паст ўзлаштириш даражаси тажриба гуруҳида 10% гача қисқаргани кузатилди, назорат гуруҳида эса бу кўрсаткич юқори рақамли сақланиб қолди. Ўрта даражадаги натижалар икки гуруҳда ҳам мавжуд бўлса-да, тажриба гуруҳида юқори натижалар томон силжиш тенденцияси кузатилди (1-жадвал).

Тажриба ва назорат гуруҳлари ўртача балл кўрсаткичлари мос равишда 84 ва 69 ни ташкил этди. Бу фарқнинг тасодифий эҳтимолини текшириш мақсадида математик-статистик таҳлил ўтказилди.

Натижалар ишончилигини баҳолашда икки мустақил танлама учун Стьюдентнинг t-критерийси қўлланилди [3]. Ҳисоблашда тажриба гуруҳи учун стандарт оғиш 8.5, назорат гуруҳи учун 9.2 деб қабул қилинди. Ҳисобланган t қиймати 6.48 ни ташкил этди. Эркинлик даражаси $df = 58$ бўлган ҳолда критик қийматдан сезиларли даражада юқори натижа олинди ($p < 0.05$).

Олинган статистик натижалар тажриба ва назорат гуруҳлари ўртасидаги фарқ ишончли эканини кўрсатади. Бу эса сунъий интеллект технологиялари асосида ташкил этилган ўқитиш методикаси биология фанини ўзлаштириш самарадорлигини оширишда юқори дидактик натижа беришини тасдиқлайди.

Муҳокама. Олинган натижалар сунъий интеллект интеграция қилинган методиканинг дидактик самарадорлигини кўрсатди [1]. Айниқса, адаптив топшириқлар ва виртуал лаборатория талабаларнинг фаол иштирокини таъминлади [4]. Ўқув аналитикаси асосида коррек-цион ишларни ташкил этиш имкони пайдо бўлди [6].

Сунъий интеллектга асосланган ўқитиш методикаси анъанавий усулларни тўлдириб, ўқувчиларда:

- мустақил фикрлаш;
- таҳлил қилиш;
- муаммоли вазиятларни ҳал этиш каби кўникмаларни ривожлантиради. Шунингдек, ўқитувчи учун дарс режалаштириш ва назорат ишлари енгиллашади.

Хулоса. Сунъий интеллект технологияларини биология таълимига тизимли жорий этиш ўқитиш самарадорлигини оширади, мустақил фикрлаш ва тадқиқотчилик кўникмаларини ривожлантиради [2]. Методик интеграция босқичма-босқич ва илмий асосда амалга оширилиши зарур.

Хулоса қилиб айтганда, сунъий интеллект технологияларини биология таълимига жорий этиш ўқитиш методикасини такомиллаштиришда муҳим омил ҳисобланади. Бу технологиялар таълим сифатини ошириш, ўқувчиларнинг фанга қизиқишини кучайтириш ва замонавий таълим талабларига мос кадрларни тайёрлашга хизмат қилади.

Адабиётлар

1. Holmes W., Bialik M., Fadel C. Artificial Intelligence in Education: Promises and Implications for Teaching and Learning. – Boston: Center for Curriculum Redesign, 2021.
2. Luckin R. AI and the Future of Learning: How Intelligent Technologies Are Transforming Education. – London: UCL Institute of Education Press, 2020.
3. Woolf B. P. Building Intelligent Tutoring Systems: Student-Centered Strategies for Revolutionizing E-Learning. – San Francisco: Morgan Kaufmann, 2022.
4. de Jong T., Linn M., Zacharia Z. Virtual Laboratories in Science and Engineering Education. // Educational Research Review, 2021, Vol. 34, Article 100392.
5. Полат Е.С. Цифровая педагогика и современные образовательные технологии. – Москва: «Академия», 2020.
6. Adaptive Learning Research Review. Recent Trends in Adaptive Learning Systems. // Journal of Educational Technology, 2023, Vol. 18(3). – P. 45-62.
7. Russell S., Norvig P. Artificial Intelligence: A Modern Approach. 4th ed. – New York: «Pearson Education», 2021.
8. UNESCO. Artificial Intelligence in Education: Guidance for Policy-Makers. – Paris: «UNESCO Publishing», 2022.

PSIXOLOGIYA ILIMLARI

IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTABLARDA O'QUVCHILARNING TA'LIM MUHITIGA MOSLASHUV JARAYONIDA GENDER TENGLIK MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI

G'ulomov Nozimjon Kozimjon o'g'li – doktorant

gulomovnozimo1@gmail.com

Andijon davlat pedagogika instituti

ФАКТОРЫ РАЗВИТИЯ КУЛЬТУРЫ ГЕНДЕРНОГО РАВЕНСТВА В ПРОЦЕССЕ АДАПТАЦИИ УЧАЩИХСЯ К ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЕ В СПЕЦИАЛИЗИРОВАННЫХ ШКОЛАХ

Гуломов Нозимжон Козимжонович – докторант

Андижанский государственный педагогический институт

FACTORS IN DEVELOPING A CULTURE OF GENDER EQUALITY IN THE PROCESS OF STUDENTS' ADAPTATION TO THE EDUCATIONAL ENVIRONMENT IN SPECIALIZED SCHOOLS

Gulomov Nozimjon Kozimjonovich – doctoral student

Andijan State Pedagogical Institute

Tayanch so'zlar: ixtisoslashtirilgan maktab, moslashuv, gender tenglik, ta'lim muhiti, stereotiplar, ijtimoiy-psixologik omillar, o'quvchi, trening.

Rezyume. Ixtisoslashtirilgan maktablarda o'quvchilarning ta'lim muhitiga ijtimoiy-psixologik moslashuvi jarayonida gender tenglik madaniyatini shakllantirishning ahamiyati tahlil qilingan. Ta'lim muassasasida mavjud bo'lgan gender stereotiplari o'quvchilarning moslashuv darajasiga qanday ta'sir ko'rsatishi ilmiy-amaliy asosda yoritilgan. Maktab muhitining genderni nisbatan neytralligi, o'qituvchi va ota-onalarning qarashlari, shuningdek trening va tashabbuslarning roli tadqiqot obyekti sifatida o'rganilgan. Xorijiy va mahalliy tajribalar tahlili orqali ta'lim muhitida tenglikni qaror toptirishga doir aniq tavsiyalar ishlab chiqilgan. Maqola genderni oid stereotiplardan holi, adolatli va psixologik jihatdan sog'lom muhit shakllantirish zaruriyatini asoslaydi.

Ключевые слова: специализированная школа, адаптация, гендерное равенство, образовательная среда, стереотипы, социально-психологические факторы, учащийся, тренинг.

Резюме. Проанализирована значимость формирования культуры гендерного равенства в процессе социально-психологической адаптации учащихся к образовательной среде специализированных школ. На научно-практической основе раскрыто, как существующие в образовательном учреждении гендерные стереотипы влияют на уровень адаптации учащихся. В качестве объекта исследования рассмотрены гендерная нейтральность школьной среды, взгляды учителей и родителей, а также роль тренингов и инициатив. На основе анализа зарубежного и отечественного опыта разработаны конкретные рекомендации по утверждению равенства в образовательной среде. В статье обосновывается необходимость формирования справедливой и психологически здоровой среды, свободной от гендерных стереотипов.

Key words: specialized school, adaptation, gender equality, educational environment, stereotypes, socio-psychological factors, student, training.

Summary. This article analyzes the importance of fostering a culture of gender equality in the process of students' socio-psychological adaptation to the educational environment of specialized schools. It provides a scientific and practical account of how gender stereotypes present in educational institutions affect students' level of adaptation. The study examines the gender neutrality of the school environment, the views of teachers and parents, as well as the role of trainings and initiatives as research objects. Based on an analysis of international and local experiences, specific recommendations are developed to promote equality in the educational environment. The article substantiates the need to create a fair and psychologically healthy environment free from gender stereotypes.

Kirish. Zamonaviy ta'lim tizimida shaxsning ijtimoiy-psixologik moslashuvi muhim pedagogik va psixologik muammo sifatida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, ixtisoslashtirilgan maktablarda o'quvchilarning ta'lim muhitiga moslashuvi masalasi yanada teran yondashuvni talab qiladi. Bu turdagi muassasalarda ta'lim mazmunining murakkabligi, yuqori talablar, tanlab olingan o'quvchilar jamoasi, raqobat muhitining kuchliligi moslashuv jarayonini murakkablashtiradi. O'quvchi yangi muhitga, yangi o'qituvchilar va sinfdoshlar bilan aloqalarga ruhiy va ijtimoiy jihatdan ko'nikishi zarur bo'ladi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, bu jarayonni yengillashtirish va sog'lomlashtirish uchun ijtimoiy madaniy yondashuvlar, xususan, gender tenglik madaniyatini shakllantirish dolzarb masalalardan biri sifatida ko'riladi.

Asosiy qism. Ijtimoiy-psixologik moslashuv tushunchasi keng qamrovli bo'lib, u bolaning maktabdagi o'rnini topishi, o'zini anglash, o'zini boshqarish, ijtimoiy rollarga moslashish, mulqotga kirishish, o'quv faoliyatiga ijobiy munosabat bildirish kabilarni o'z ichiga oladi. V.M.Sokolov bu jarayonni "shaxsning tashqi ijtimoiy sharoitlarga ongli tarzda psixik moslashuvi" sifatida izohlaydi [1]. Shu bilan birga, bolalarning moslashuviga ta'sir qiluvchi omillar qatorida jinsga oid ijtimoiy stereotiplar, genderni asoslangan kutilmalar, teng imkoniyatlar mavjud yoki mavjud emasligi muhim o'rin tutadi.

Gender tenglik madaniyati – bu faqat ayol va erkaklar o'rtasida teng huquq ta'minlanishi emas, balki insonlarni jinsiga qarab baholamaslik, ularning shaxsiy fazilatlarini va

imkoniyatlariga qarab yondashishni o'z ichiga olgan madaniy ijtimoiy qadriyatdir. UNESCO (2020) ta'kidlaganidek, gender tenglikni ilgari suruvchi ta'lim muassasalari o'quvchilarning o'zini qadrlash, ishtirokchilik, moslashuvchanlik va psixologik salomatligini oshirishda muhim rol o'ynaydi [2]. Agar maktab muhiti gender tenglikka asoslangan bo'lsa, u holda bolalar o'z fikrini erkin bildiradi, o'z shaxsiy xususiyatlarini to'liq namoyon eta oladi, stereotiplardan holi ijtimoiy muhitda ulg'ayadi.

Bugungi kundagi ixtisoslashtirilgan maktablarda kuzatilayotgan ba'zi muammolar shuni ko'rsatadiki, hali-hanuzgacha qiz bolalar faolligi cheklangan, o'g'il bolalar esa ijtimoiy-emosional ifodalarini yashirishga majbur bo'layotgan holatlar uchramoqda. Bu esa o'z-o'zini anglash, jamoadagi o'rni va shaxsiy psixologik salomatlikka salbiy ta'sir etadi. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida ta'lim oluvchilarning teng huquqliligi ta'minlangan bo'lsa-da [3], amaliyotda bu boradagi yondashuvlar tizimli tarzda joriy etilishi zarur. Shu boisdan ham, ta'lim muhitiga moslashuv jarayonida gender tenglik madaniyatini rivojlantirishni o'rganish – ijtimoiy adolat, psixologik salomatlik va har tomonlama barqaror rivojlanishni ta'minlovchi vosita sifatida qaralmoqda. Shaxsiy kuzatishimga ko'ra, o'quvchilar bilan olib borilgan suhbatlar va amaliy tajriba shuni ko'rsatadiki, genderni asoslangan stereotiplarning kamayishi bilan bolalarning ijtimoiy faolligi va o'z fikrini erkin ifoda etish holatlari ko'paygan. Bu esa yana bir bor tasdiqlaydiki, ijtimoiy-psixologik moslashuvni kuchaytirish yo'lida gender tenglik madaniyatini shakllantirish strategik ahamiyatga ega.

Ijtimoiy-psixologik moslashuv tushunchasining nazariy asoslari shundaki. Shaxsning yangi muhitga moslashuvi – bu psixologik va ijtimoiy jihatdan murakkab jarayon bo'lib, o'quvchilarning ta'lim muhitida o'zini erkin, xavfsiz, faol his qilishi uchun asos yaratadi. Ixtisoslashtirilgan maktablar esa o'zining yuqori talablari, akademik yuklamalarining murakkabligi va qat'iy ichki tartiblari bilan o'quvchilardan nafaqat bilim, balki moslashuvchanlik, ijtimoiy faollik va emosional barqarorlikni talab qiladi. V.M.Sokolovning fikricha, moslashuv bu – "insonning tashqi sharoitlarga ongli psixik javobi orqali o'z hayotiy holatini muvozanatda ushlab turishidir" [4]. Moslashuv jarayoni o'z ichiga bir nechta bosqichlarni oladi: birinchi bosqichda o'quvchi tashqi muhitni idrok qiladi, ikkinchi bosqichda unga mos ravishda xatti-harakat strategiyasini tanlaydi, va nihoyat, uchinchi bosqichda ichki psixik barqarorlikni tiklaydi. Shu bosqichlarning samarali kechishi ko'p jihatdan maktab ichki iqlimiga va jamoadagi munosabatlarga bog'liq bo'ladi.

Ixtisoslashtirilgan maktablar – bu iste'dodli, yuqori salohiyatli o'quvchilar tanlab olinadigan, murakkab va chuqurlashtirilgan dasturlar asosida ta'lim beriladigan muassasalaridir. Bunday maktablarda raqobatbardosh muhit hukm suradi, bu esa o'quvchilarning psixologik bosim ostida qolishiga olib kelishi mumkin. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ixtisoslashtirilgan maktablarda tahsil olayotgan o'quvchilarda ko'proq tashvish (anksiozlik), o'z-o'ziga shubha va kommunikativ qiyinchiliklar kuzatiladi [5]. Ayniqsa, yangi kelgan o'quvchilar sinf jamoasiga kirishishda, o'qituvchi va sinfdoshlar bilan munosabat o'rnatishda muayyan qiyinchiliklarga duch keladilar. Shu

o'rinda ijtimoiy qo'llab-quvvatlov va madaniy jihatdan tenglikka asoslangan maktab muhiti ularning moslashuvini osonlashtirishi mumkin. Ijtimoiy sinf iqlimi, o'zaro hurmatga asoslangan munosabatlar, teng imkoniyatlar bilan ta'minlovchi maktab madaniyati bolaning o'zini qabul qiladigan subyekt sifatida his etishiga olib keladi. Bu esa ularning faolligini, o'quv motivatsiyasini va jamoaga integratsiyalashuvini kuchaytiradi.

Moslashuv jarayonida gender tenglik madaniyatining o'rni alohida e'tiborga loyiq. Afsuski, hozirgacha ayrim maktablarda jinsga asoslangan stereotipik yondashuvlar mavjud bo'lib, ular o'quvchilar faoliyatida, o'z-o'zini baholashida va jamoadagi rolini anglashida sezilarli darajada ta'sir ko'rsatmoqda. "Qiz bola jim bo'lishi kerak", "o'g'il bola rahbar bo'lishi kerak" kabi noto'g'ri ijtimoiy qarashlar, hatto ong osti darajasida, o'quvchilarning o'zini tutishida seziladi. Bu holat esa ularning psixologik moslashuvini buzishi, ijtimoiy qoniqmaslik hissini kuchaytirishi mumkin.

Connell o'zining gender sotsiologiyasiga oid izlanishlarida shunday xulosa qiladi: "Maktabdagi ijtimoiy muhitda gender tenglik tamoyillarining yo'qligi – bu faqat diskriminatsiya emas, balki shaxsiy salohiyatni to'liq namoyon qilish imkoniyatining cheklanishidir" [6]. Shu jihatdan, gender tenglik madaniyatini ta'lim muhitiga integratsiyalash – bu bolalarning o'zini anglashiga, o'z fikrini erkin ifoda etishiga va jamoadagi o'rni mustahkamlashiga xizmat qiluvchi omilga aylanadi. Gender tenglik prinsiplariga amal qilinadigan maktablarda bolalar ko'proq ishonchli, ochiq va faol bo'lishadi. O'quvchilar o'zlarini nafaqat "qiz" yoki "o'g'il bola" deb emas, balki shaxs sifatida his qilishadi. Bu holat ularning moslashuvini soddalashtiradi, stressni kamaytiradi, psixologik barqarorlikni ta'minlaydi. Shu boisdan, gender madaniyatining shakllanishi – bu shunchaki ijtimoiy talab emas, balki psixologik himoya vositasi sifatida ham talqin qilinishi kerak.

Maktabdagi muhit o'quvchi shaxsining shakllanishida, o'zini anglashida va ijtimoiy-psixologik moslashuvida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ayniqsa, ixtisoslashtirilgan maktablar muhitida bolalar jinsiga qarab emas, balki individual salohiyatiga qarab baholanishi zarur. Genderni nisbatan neytral muhit – bu faqat rasmiy tenglik emas, balki noverbal ishoralar, o'qituvchi nutqi, darsliklardagi matnlar va o'quvchilarga bo'lgan kutilmalar orqali ifodalanadigan madaniy yondashuvdir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'qituvchilar va psixologlar tomonidan genderni asoslangan ro'yxat, rollar va stereotiplar joriy etilmasligi o'quvchilar orasidagi ishonch va hamjihatlikni oshiradi [7]. Gender tenglik tamoyillariga amal qilinayotgan muhitda o'quvchilar o'zini erkin tutadi, o'z qiziqishlarini yashirmaydi, sinfdagi ijtimoiy rol tanlashda do'stlarining yoki o'qituvchining qaramasdan o'zini namoyon eta oladi. Bu esa moslashuvni yengillashtiradi, psixologik stress darajasini pasaytiradi. Maktabda qabul qilingan gender madaniyati bolalar ongida jamiyatning kichik modeli sifatida shakllanadi. Agar bu model adolatli va tenglikka asoslangan bo'lsa, o'quvchi kelajakda ham ijtimoiy faollikni o'zida saqlab qoladi.

Xulosa. Ixtisoslashtirilgan maktablarda o'quvchilarning ta'lim muhitiga ijtimoiy-psixologik moslashuvi murakkab, ko'p omilli va o'zaro bog'liq jarayon bo'lib, unda gender tenglik madaniyatining shakllanganlik darajasi muhim o'rin

tutadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, maktab muhitida mavjud bo'lgan genderga oid stereotipik qarashlar o'quvchilarning o'zini tutishida, sinfga qo'shilishida, o'z fikrini erkin ifoda etishida va psixologik barqarorligida sezilarli darajada to'siq bo'lishi mumkin. Maktabdagi gender neytral muhit, o'qituvchi va ota-onalarning qarashlari, shuningdek, amaliy trening va tashabbuslarning gender madaniyatini shakllantirishdagi o'rni tahlil qilindi. Xorijiy va milliy tajribalar asosida gender tenglik madaniyatini rivojlantirish orqali ijtimoiy-psixologik moslashuvni yengillashtirish mumkinligi ilmiy asoslandi.

Tizimli yondashuvlar orqali maktabdagi ijtimoiy muhit adolatli, teng huquqli va psixologik xavfsiz maydonga aylanishi mumkin. Shaxsiy kuzatishlar, ilmiy manbalar va empirik dalillar asosida xulosa qilish mumkinki, gender tenglik madaniyatini rivojlantirish nafaqat ijtimoiy adolat tamoyillarini mustahkamlash, balki har bir o'quvchining shaxsiy salohiyatini to'liq namoyon etishiga imkon beradigan muhim pedagogik vazifa sanaladi. Maktab ta'lim muhitining bu yo'nalishda takomillashuvi o'quvchilarning psixologik farovonligi va ijtimoiy faolligini oshiradi, bu esa jamiyatning barqaror rivojlanishiga bevosita hissa qo'shadi.

Adabiyotlar

1. Соколов В.М. Психология адаптации личности. – Москва: «Наука», 2019.
2. Yuldasheva N.X. Ixtisoslashtirilgan maktablarda psixologik moslashuv jarayonlari. – Toshkent: «Fan», 2021.
3. Connell R.W. Gender and Power: Society, the Person and Sexual Politics. – Stanford: Stanford University Press, 2009.
Ilmiy talqinga ko'ra, ijtimoiy faollik murakkab psixologik tuzilma bo'lib, u motivatsion, kognitiv, emotsional va xulq-atvor komponentlarining o'zaro bog'liqligi asosida shakllanadi. Qizlarning ijtimoiy faolligi, avvalo, ularning ichki motivatsiyasi, ijtimoiy ehtiyojlari, qadriyat yo'nalishlari va jamiyatga bo'lgan munosabatlari bilan belgilanadi. Shuningdek, emotsional barqarorlik, empatiya, mas'uliyat hissi va ijtimoiy faollikka tayyorlik darajasi ham muhim psixologik omillar sifatida namoyon bo'ladi.

Qizlarning ijtimoiy faolligi ko'pincha kommunikativ va ijtimoiy-emotsional sohalarida kuchliroq ifodalanadi. Ular jamoaviy faoliyatda ishtirok etish, yordam ko'rsatish, ijtimoiy loyihalarda qatnashish, ta'lim va madaniy faoliyatlarda faollik ko'rsatish kabi yo'nalishlarda nisbatan yuqori faollik namoyon etadilar. Bu holat ijtimoiylashuv jarayonida shakllanadigan gender rollari, tarbiya muhiti va ijtimoiy stereotiplar bilan ham bog'liqdir.

Psixologik nuqtayi nazardan qizlarning ijtimoiy faolligi ularning shaxsiy sifatleri bilan uzviy bog'liqdir. Bunda empatiya, mehribonlik, mas'uliyat, o'zini nazorat qilish, ijtimoiy moslashuvchanlik va hamkorlikka moyillik kabi sifatlar muhim rol o'ynaydi. Ushbu sifatlar qizlarning jamoaviy faoliyatda samarali ishtirok etishiga va ijtimoiy muhitga tez moslashishiga yordam beradi.

Ijtimoiy faollikni psixologik fenomen sifatida o'rganishda yana bir muhim jihat – bu shaxsning o'zini anglash darajasi va o'z-o'zini baholash tizimidir. Qizlar o'zlarini ijtimoiy faol subyekt sifatida qanchalik qabul qilsa, ularning jamiyatdagi ishtiroki shunchalik faol va barqaror bo'ladi. Shu bilan birga, ijtimoiy muhit, oilaviy tarbiya, ta'lim tizimi va tengdoshlar guruhi ham ularning faolligini shakllantiruvchi asosiy tashqi omillar hisoblanadi.

Zamonaviy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, qizlarning ijtimoiy faolligi faqat individual xususiyatlar bilan emas, balki ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar va gender tenglik darajasi bilan ham chambarchas bog'liqdir. Gender tengligi yuqori bo'lgan jamiyatlarda qizlarning tashabbuskorligi, liderlik salohiyati va ijtimoiy loyihalardagi ishtiroki sezilarli darajada ortadi.

Global ekologik va ijtimoiy muammolarning keskinlashuvi sharoitida milliy va xalqaro darajada muvofiqlashtirilgan yondashuv zarurati ortib bormoqda. Shu nuqtayi nazardan, 1987-yilda BMT huzuridagi Atrof-muhit va rivojlanish bo'yicha Xalqaro komissiya (Brundtland komissiyasi) tomonidan ishlab chiqilgan "barqaror rivojlanish" konsepsiyasi eng muhim strategik yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etiladi. Barqaror rivojlanish g'oyasi insoniyatning umumiy manfaatlarini tan olishga asoslanib, jamiyatda barcha insonlar hamjihatlikda yashashi mumkin bo'lgan muvozanatli tizimni shakllantirishga qaratilgan yondashuvni ifodalaydi. Mustaqillik yillarida O'zbekiston ushbu global konsepsiyaga qo'shilib, inson huquqlari va ijtimoiy himoyani rivojlantirishga qaratilgan bir qator institutlarni tashkil etdi. Jumladan, Inson huquqlari bo'yicha milliy markaz, Ombudsman instituti, qonunchilik monitoringi markazlari, jamoatchilik fikrini o'rganish markazlari hamda boshqa nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyat yuritmoqda.

Bugungi kunda respublikada o'nlab xotin-qizlar jamoat tashkilotlari faoliyat olib bormoqda. Mustaqillikdan so'ng xalqaro huquqiy hujjatlar va global ayollar harakati tajribalari keng jamoatchilik uchun ochiq bo'ldi. O'zbekiston Markaziy Osiyoda birinchilardan bo'lib BMTning "Ayollarga nisbatan kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risida"gi Konvensiyasiga qo'shildi hamda Pekin konferensiyasida belgilangan tamoyillarni qo'llab-quvvatladi. Bu jarayonlar jamiyatda xotin-qizlarning ijtimoiy faolligi ortib borayotganini ko'rsatadi. Zamonaviy jamiyat taraqqiyoti nuqtayi nazaridan ayollar ijtimoiy hayotning faol subyektiga aylanib bormoqda. Shu bilan birga, jamiyat rivojlanishi faqat bir yo'nalishda kechsa, tizimli nomutanosibliklar yuzaga kelishi mumkin. Shuning uchun barqarorlik, avlodlararo uzviylik va ijtimoiy muvozanatni ta'minlash muhim ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi.

Natijalar. Tadqiqotda "ijtimoiy faollik – jamiyat barqaror rivojlanishining omili" degan ilmiy g'oya asoslanadi. Ayniqsa, xotin-qizlar misolida ijtimoiy faollikning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni, uning salohiyati va imkoniyatlari tahlil qilinadi. Shu nuqtayi nazardan,

ayollarning ijtimoiy salohiyati jamiyat umumiy salohiyatini oshiruvchi muhim omil sifatida qaraladi. Shuningdek, ishda gender tengligi, bandlikdagi kamsitish, mehnat haqi va martaba o'sishidagi nomutanosibliklar, oilaviy majburiyatlar bilan bog'liq ijtimoiy rollar taqsimoti, demografik ko'rsatkichlar (tug'ilish, o'lim darajasi, ayollar salomatligi) kabi muammolar ham ilmiy tahlil qilinadi. Tadqiqotda statistik ma'lumotlar, sotsiologik kuzatuvlar hamda matematik modellashtirish usullaridan foydalanilgan.

Shu bilan birga, tadqiqotda mavjud ilmiy adabiyotlar ham keng tahlil qilinib, uch asosiy yo'nalish ajratilgan:

1. **Ijtimoiy faollik fenomeni** – O.A.Abdukahharov, N.N.Belyakova va boshqalar ishlarida ushbu tushunchaning nazariy asoslari yoritilgan.

2. **Barqaror rivojlanish konsepsiyasi** – M.Weber, N.Kon, K.Mannheim kabi olimlarning avlodlar uzviyligi va ijtimoiy rivojlanish haqidagi qarashlari o'rganilgan.

3. **Xotin-qizlar muammosi** – ayollarning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy faolligi, ularning jamiyatdagi o'rni va mehnat faoliyati turli olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

Ijtimoiy faollikning psixologik tavsifi ijtimoiy faollikning tuzilmasini aniqlash, uning mezonlarini belgilash, namoyon bo'lish darajalarini va rivojlanishiga ta'sir etuvchi psixologik omillarni o'rganish bilan bog'liqdir. Faollik darajasi, uning davomiyligi, barqarorligi va boshqa ko'rsatkichlari motivatsion, emotsional hamda boshqa komponentlarning o'zaro uyg'unligi va optimal birikmasiga bog'liq bo'ladi. Ijtimoiy faollik shaxsning subyektiv sifatleri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, u shaxsning atrof-muhitga bo'lgan munosabatlar tizimi orqali namoyon bo'ladi. U shaxsning o'zini o'zgartirishiga hamda jamiyat talab va ehtiyojlariga muvofiq ravishda tashqi muhitni o'zgartirishga yo'naltirilgan faoliyat sifatida yuzaga chiqadi.

Ijtimoiy faollikni integrativ tushuncha sifatida talqin qiluvchi yondashuvga ko'ra, u shaxsning boshqa odamlar bilan o'zaro faoliyat jarayonida namoyon bo'ladigan holatini ifodalovchi xususiyat sifatida qaraladi. Bu faoliyat ijtimoiy ahamiyatga ega maqsadlar bilan belgilanadi va shaxsning jamiyatdagi o'rni faollashtiradi [1:42]. Ijtimoiy faollik turli faoliyat turlarida shakllanib boradi. Shaxs ijtimoiy tajribani egallagan sari va kengroq muloqot doirasiga kirgan sari uning ijtimoiy faolligi ham ortib boradi. Faollikning ahamiyati uning mazmuni va yo'nalishi, jamiyatning obyektiv ehtiyojlariga qanchalik mos kelishi bilan belgilanadi.

Yoshlarning jamiyat va davlat hayotida mustaqil ishtirok etishga intilishi turli yo'nalishlarda namoyon bo'ladi. Bu esa ijtimoiy faollik shakllarining rang-barangligini keltirib chiqaradi: o'z ijtimoiy guruh hayotida ishtirok etish, volontyorlik va ko'ngillilik faoliyati, siyosiy hayotda qatnashish, fuqarolik pozitsiyasini ifodalash, inson huquqlarini himoya qilish, atrof-muhitni muhofaza qilish, ijtimoiy tashabbus va loyihalar yaratish, yoshlar tashkilotlarida ishtirok etish, yoshlar yetakchiligi, xayriya ishlari, o'zini o'zi boshqarish tizimlarida qatnashish hamda ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonlarida ishtirok etish va boshqalar. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, talabalar uchun eng ko'p tanlanadigan yo'nalishlar quyidagilardir: guruh va jamoa hayotida faol ishtirok etish, ijtimoiy ahamiyatga ega dasturlarda qatnashish, ijtimoiy jihatdan zaif guruhlariga ko'maklashish. Shuningdek, talabalar

orasida liderlikka intilish, ya'ni guruhni boshqarish yoki turli tadbirlarni tashkil etish istagi ham sezilarli darajada namoyon bo'ladi. Biroq tashabbuskorlik, ijtimoiy innovatsiyalarni ilgari surish, mentorlik va tajriba almashish kabi shakllar nisbatan kamroq uchraydi, bu esa yoshlarning o'z salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish imkoniyatlari cheklanganligini ko'rsatadi [2:199].

Jamiyat hayotining turli sohalariga ko'ra ijtimoiy faollikning quyidagi shakllari ajratiladi: siyosiy, fuqarolik, madaniy, ijodiy, mehnat, kommunikativ va biznes faollik. Yoshlar faolligi ko'proq madaniy-dam olish, ta'lim, kasbiy rivojlanish va ijtimoiy rivojlanish sohalarida namoyon bo'ladi. O'rtacha darajada esa badiiy-estetik, sport va siyosiy sohalarida faollik kuzatiladi. Eng past daraja esa iqtisodiy, ilmiy-tadqiqot, oilaviy va fuqarolik-huquqiy sohalarida qayd etilgan. Tadqiqotlar shuni ham ko'rsatadiki, yigitlar ko'proq kasbiy va sport faoliyatida, qizlar esa fuqarolik-huquqiy sohada faolroq ishtirok etadilar [2:201].

Yoshlarning ijtimoiy faollik darajasi bir qator psixologik ko'rsatkichlar orqali baholanadi: faoliyat erkinligi, ongli harakat, ijtimoiy mas'uliyat, ijodiy ishtirok, maqsadga yo'naltirilganlik, ijtimoiy foydalilik, tashabbuskorlik va motivatsiya.

Ijtimoiy faol shaxsning integral sifati sifatida tashabbuskorlik qaraladi. Tashabbuskorlik shaxsning mustaqil boshlang'ich harakatlarga qodirligi, tadbirkorligi va faoliyatga ehtiyojining shakllanganligi bilan bog'liqdir. Ijtimoiy yo'naltirilgan tashabbuskorlik esa insonlarni tushuna olish, ularga javob bera olish, hamdardlik qilish, befaraz yordam ko'rsatish va boshqalarning holatiga befarq bo'lmaslik kabi sifatlarni o'z ichiga oladi. Yoshlarning ijtimoiy o'zini anglash jarayoni ularning o'zini ijtimoiy faol shaxs sifatida tasavvur qilishlari bilan bog'liq. Yoshlar yetakchilari o'rtasida o'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, yigitlar ijtimoiy faollikni kuchli iroda, o'ziga ishonch, qat'iyatlilik, mas'uliyat, tashkilotchilik, ochiqlik, stressga chidamlilik, topqirlik, talabchanlik va ishonchlilik kabi sifatlarni bilan bog'lashgan. Qizlar esa ijtimoiy faollikni mas'uliyat, irodalilik, qat'iyat, mehribonlik, o'ziga ishonch, ochiqlik, ijrochilik, aniqlik, adolatparvarlik, qat'iylik va xarizmatiklik bilan bog'laydilar [4:65].

Muhokama. Demak, gender omili nafaqat talabalarning ijtimoiy faollik darajasiga, balki ularning ijtimoiy rollarni (tashabbuskor, tashkilotchi, koordinator, ijrochi yoki yordamchi) qabul qilishiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, bu omil yoshlarning o'zini lider sifatida tasavvur qilishiga ham ta'sir etadi.

Adabiyotlar

1. Bandura A. On the Functional Properties of Perceived Self-Efficacy Revisited. // Journal of Management, 38(1), 2012. – P. 9-44.
2. Eagly A. H., Carli L. L. The Female Leadership Advantage. // Journal of Social Issues, 69(3), 2013. – P. 476-486.
3. World Bank. Women, Business and the Law 2015: Getting to Equal. – Washington, DC: World Bank, 2015. – P. 1-210.
4. United Nations Development Programme. Human Development Report: Human Development for Everyone. – New York: UNDP, 2016. – P. 45-132.
5. OECD. The Pursuit of Gender Equality: An Uphill Battle. – Paris: OECD Publishing, 2017. – P. 23-180.
6. United Nations Women. Turning Promises into Action: Gender Equality in the 2030 Agenda. – New York: UN Women, 2018. – P. 10-95.
7. World Economic Forum. Global Gender Gap Report 2020. – Geneva: WEF, 2020. – P. 3-120.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 7-martdagi «Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida»gi PF-4235-son Farmoni.

Biroq shaxsning ijtimoiy faolligi faqatgina jins va yosh xususiyatlariga emas, balki ijtimoiy muhit xususiyatlariga ham bog'liqdir. Talabalik davri yoshlarning eng ijtimoiy faol qatlami bo'lib, u yashash, mehnat va turmush sharoitlarining o'ziga xosligi, ijtimoiy xulq-atvor va psixologik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Yosh davri shaxsiy o'zini anglash va dunyoqarashning shakllanishi, mas'uliyatli qarorlar qabul qilish hamda hayotiy o'zini belgilash bosqichidir. Talabalarda ijtimoiy faollikning rivojlanishi shaxsning subyekt sifatida shakllanishi bilan bog'liqdir. Yoshlik davri shaxsiy sifatlarning murakkab shakllanishi, axloqiy va estetik hislarning rivojlanishi, xarakter barqarorlashuvi hamda kattalar uchun xos ijtimoiy rollarni egallash bosqichi hisoblanadi. Subyektlik va ijtimoiy faollikning umumiy ko'rsatkichi sifatida talabalarning kelajakdagi kasbiy faoliyatga tayyorgarligi namoyon bo'ladi. Shaxs ijtimoiy faolligini rivojlantirishning samarali modeli sifatida ta'lim muassasasida tashqi (darsdan tashqari) faoliyat tizimini, jumladan, ijtimoiy animatsiyani tashkil etish hisoblanadi. Bunday yondashuvlar yoshlar uchun kreativ muhit yaratishga asoslanadi va ularga o'z tashabbuslarini amalga oshirish imkonini beradi. Aynan "o'z makoni"ning mavjudligi yoshlarning ijtimoiy faollikni kuchaytiruvchi muhim omil bo'lib, ularga ijodkor va yaratuvchi sifatida o'zini namoyon etish imkonini beradi [5:113]. Ijtimoiy faollikni rivojlantirishning yana bir muhim yo'li yoshlarni maqsadli ijtimoiy foydali faoliyatga jalb etishdir. Bunda ular o'z harakatlarining ijobiy natijasini bevosita ko'ra oladilar. Bu jarayon yoshlarni mavjud tashabbuslarga qo'shish va ijtimoiy qadriyatlarini amalga ko'rsatish orqali amalga oshiriladi.

Xulosa. Shuningdek, guruhviy muhokamalar, ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatga ega muammolarni birgalikda tahlil qilish ham ijtimoiy faollikni rivojlantirishga xizmat qiladi. Bunday tajriba talabalarda adekvat o'zini baholashni shakllantiradi, ijtimoiy rivojlanishga ehtiyojni kuchaytiradi hamda ijobiy emotsional muhitni yaratadi.

Umuman olganda, ijtimoiy faollikni rivojlantirish shaxsning maqsadlari, optimal shakl va metodlarni o'z ichiga olgan maxsus ijtimoiy vaziyatlar tizimini yaratish sifatida tushuniladi. Psixologik-pedagogik jarayonda ijtimoiy faollikni rivojlantirishning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat: birinchidan, ijtimoiy faollik shaxs munosabatlari tizimi sifatida shakllanadi va uning hayotiy pozitsiyasida namoyon bo'ladi; ikkinchidan, shaxsning innovatsion, motivatsion, intellektual va ma'naviy salohiyati uning guruh maqsad va me'yorlariga mos tashkil etilgan faoliyat orqali ifodalanadi.

УДК 159.9:378

**OLIV TA'LIM TALABALARI IJTIMOIV-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARIDA
KASBIY O'ZLIKNI ANGLASH MASALASI**

Yadgarova Ozoda Ibragimovna – *pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent*
yadgarovaozoda26@gmail.com
Samarqand davlat chet tillar instituti

**ПРОБЛЕМА ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО САМОСОЗНАНИЯ В СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ
ХАРАКТЕРИСТИКАХ СТУДЕНТОВ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ**

Ядгарова Озода Ибрагимовна – *доктор философии по педагогическим наукам, доцент*
Самаркандский государственный институт иностранных языков

**THE ISSUE OF PROFESSIONAL SELF-AWARENESS IN THE SOCIO-PSYCHOLOGICAL
CHARACTERISTICS OF HIGHER EDUCATION STUDENTS**

Yadgarova Ozoda Ibragimovna – *Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor*
Samarkand State Institute of Foreign Languages

Tayanch so'zlar: talabalik davri, ijtimoiy-psixologik xususiyat, kasbiy identiklik, kasbiy o'zlikni anglash, motivatsiya, filolog talabalar, IMRAD, muloqot psixologiyasi.

Rezyume. Maqolada oliy ta'lim muassasalari talabalarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari, xususan, bo'lajak chet tili mutaxassislarida kasbiy identiklik (o'zlikni anglash) shakllanishi masalalari tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida filolog talabalarining psixologik bilimlariga bo'lgan munosabati va kasbiy motivatsiyasidagi o'ziga xosliklar empirik ma'lumotlar asosida yoritilgan. Olingan natijalar asosida talabalarda professional "Men-konsepsiyasi"ni shakllantirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Ключевые слова: студенчество, социально-психологические особенности, профессиональная идентичность, самосознание, мотивация, студенты-филологи, ИМРАД, психология общения

Резюме. В статье анализируются социально-психологические особенности студентов высших учебных заведений, в частности вопросы формирования профессиональной идентичности будущих специалистов иностранных языков. В ходе исследования на основе эмпирических данных освещены особенности отношения студентов-филологов к психологическим знаниям и их профессиональная мотивация. На основе полученных результатов разработаны практические рекомендации по формированию профессиональной «Я-концепции» у студентов.

Key words: student years, socio-psychological characteristics, professional identity, self-awareness, motivation, philology students, IMRAD, psychology of communication.

Summary. The article analyzes the socio-psychological characteristics of higher education students, specifically the formation of professional identity among future foreign language specialists. The study highlights the attitudes of philology students toward psychological knowledge and their professional motivation based on empirical data. Practical recommendations for developing a professional "Self-concept" among students have been formulated based on the results.

Kirish. O'zbekiston Respublikasining zamonaviy taraqqiyot bosqichida yuqori malakali, nafaqat professional bilimga, balki barqaror psixologik portretga ega kadrlarni tayyorlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Oliy ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar negizida talaba shaxsini har tomonlama rivojlantirish va uning jamiyatda munosib o'rin egallashini ta'minlash maqsadi yotadi. Talabalarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o'rganish va ularning kasbiy shakllanishiga oid masalalar bugungi kun dolzarb masalasi ekanligi O'zbekiston Respublikasini huquqiy-normativ hujjatlarida ham aks etgan. Misol uchun, "Ta'lim to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonunida (2020-yil) ta'lim oluvchilarning bilim olishi bilan bir qatorda, ularning ma'naviy, intellektual va jismoniy rivojlanishi huquqiy kafolatlab qo'yilgan [1]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli Farmonida esa zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega, mustaqil fikrlaydigan kadrlarni tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish vazifasi belgilangan [2]. «2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF-60-sonli Farmonida belgilab quyilgan ta'lim sohasidagi ustuvor vazifalari talabalarda nafaqat fanlarni o'zlashtirish, balki

amaliy kompetensiyalar va psixologik barqarorlikni shakllantirishga yo'naltirilgan [3]. Bu kabi masalalar biz o'rtaga ko'targan mavzu benihoya dolzarb ekanligini ko'rsatadi.

Hozirgi vaqtda oliy ta'lim talabalarini ijtimoiy-psixologik xususiyatlarining shakllanishi murakkab globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida kechmoqda. Xususan, chet tillari va filologiya yo'nalishi talabalarida kasbiy o'zlikni anglash – kasbiy identiklik jarayoni o'ziga xos ziddiyatlarga ega. Bir tomondan, davlat tomonidan yaratilayotgan keng imkoniyatlar ya'ni akademik mustaqillik, xalqaro dasturlar, ikkinchi tomondan esa talabalarining o'z mutaxassisligi mohiyatini chuqur tushunmasligi kasbiy inqiroz omillarini keltirib chiqarmoqda. Shu nuqtai nazardan, talabalarining psixologik bilimlariga bo'lgan munosabati va ularning "professional Men" konsepsiyasi shakllanishi dissertatsiya ishimizni birinchi bobida nazariy-huquqiy jihatdan tahlil qilinadi. Talaba o'zini shunchaki "til o'rganuvchi" emas, balki jamiyatning ijtimoiy-psixologik talabalariga javob beruvchi "mutaxassis" sifatida his qilishi ta'lim sifatini oshirishning asosiy omilidir.

Adabiyotlar tahlili. Kasbiy o'zlikni anglash yoki kasbiy identiklik muammosi zamonaviy psixologiyaning fundamental yo'nalishlaridan biri bo'lib, uning nazariy ildizlari E.Eriksonning epigenetik konsepsiyasiga borib taqaladi [9]. E.Erikson o'smirlik va yoshlik davrining markaziy masalasi sifatida "Identiklik va rollarning

aralashib ketishi” (Identity vs. Role Confusion) inqirozini ko’rsatadi. Uning fikricha, talabalik davrida inson o’zining jamiyatdagi o’rni va professional kelajagini belgilab olishi lozim. Agar bu jarayon muvaffaqiyatli kechmasa, shaxsda “identiklik difuziyasi” ya’ni yo’nalishni yo’qotish yuzaga keladi. Ushbu nazariyani amaliy jihatdan boyitgan olim J.Marsiya kasbiy identiklikning shakllanish darajasini to’rtta asosiy statusga ajratadi: [10]

1. Aniqlanmagan (Difuz) identiklik: Talabada na kasbiy tanlov, na bu borada izlanish bor.

2. Moratoriy (Inqiroz holati): Talaba faol izlanishda, lekin hali aniq bir to’xtamga kelmagan.

3. Muddatidan oldin shakllangan identiklik: Kasb tanlash o’z xohishi bilan emas, balki tashqi bosim (masalan, ota-ona) ostida sodir bo’lgan.

4. Erishilgan identiklik: Talaba o’z kasbining mohiyatini anglagan va ongli ravishda tanlov qilgan.

Chet tillari institutida biz kuzatayotgan “psixologiyani inkor etish” holati aynan muddatidan oldin shakllangan yoki difuz identiklik statusiga xosdir, chunki talaba kasbning faqat tashqi qobig’ini (tilni) ko’radi, uning ichki psixologik instrumentlarini his qilmaydi.

O’zbekiston psixologiya maktabi namoyandalari ham talabalik davrining o’ziga xos ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini keng tadqiq etganlar. Akademik E.G’oziyev o’zining ko’p yillik tadqiqotlarida talabalik davrini shaxs kamolotining “mikrochigiti” va eng yuqori intellektual salohiyat davri deb ta’riflaydi [5]. Uning ta’kidlashicha, kasbiy shakllanish faqat bilimlarni o’zlashtirish emas, balki shaxsiy “Men”ning professional “Men” bilan integratsiyalashuvidir. Professor Sh.Baratov esa talabalikda ijtimoiy-psixologik adaptatsiyaning muhimligini ko’rsatib, oliy ta’limdagi psixologik xizmatning asosiy vazifasi talabaga o’zining professional imkoniyatlarini anglatishdan iborat ekanligini qayd etadi [4]. Olimning qarashlariga ko’ra, talabaning kasbiy identikligi uning ijtimoiy muhitga moslashuvi va psixologik savodxonligi bilan to’g’ridan-to’g’ri bog’liq.

Shuningdek, N.S.Pryajnikov kasbiy o’zlikni anglashni “shaxsiy hayot mazmunini topish” bilan tenglashtiradi. Biroq, til mutaxassisligi talabalari orasida psixologik bilimlarga nisbatan pragmatik va ba’zan skeptik munosabatning mavjudligi (ya’ni, psixologiyani “keraksiz nazariya” deb hisoblash) ushbu yo’nalishda kognitiv va motivatsion to’siqlar mavjudligidan dalolat beradi. Bu esa bizning tadqiqotimizda talabalarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini shunchaki tasvirlash emas, balki ularda psixologik kompetensiyani shakllantirish orqali kasbiy identiklikni korreksiya qilish zarurligini asoslaydi.

Muammo va tahlil. Oliy ta’lim tizimida tahsil olayotgan talabalar shaxsining ijtimoiy-psixologik portreti o’ziga xos murakkab tuzilishga ega. Ushbu davrda shaxsning kamoloti uning professional faoliyatga tayyorgarligi va ijtimoiy rollarni o’zlashtirishi bilan belgilanadi. Tadqiqotlarimiz natijasida zamonaviy talaba shaxsiga xos bo’lgan quyidagi ustuvor ijtimoiy-psixologik xususiyatlarni ajratib ko’rsatish mumkin:

1. *Refleksiyaning rivojlanishi va “Men-konsepsiyasi”ning transformatsiyasi.* Talabalik davrida o’z-o’zini anglash va tahlil qilish (refleksiya) jarayoni sifat jihatidan yangi bosqichga ko’tariladi [9]. Talaba nafaqat “Men kimmanda?”, balki “Nima uchun aynan shu kasbni tanladim?”, “Mening jamiyatdagi o’rnim qanday?” kabi ekzistensial va professional savollarga javob izlaydi. Biroq, bu jarayon ko’p hollarda ichki ziddiyatlar va “identiklik inqirozi” bilan kichadi [5].

2. *Ijtimoiy intilish va avtonomiya.* Talabalik – ijtimoiy maqomni tubdan o’zgartirish, ota-onaga qaralikdan qutilish va mustaqil qaror qabul qilish ko’nikmalarini shakllantirish davridir [4]. Bu intilish talabaning ijtimoiy moslashuvchanligini oshirsa-da, professional mas’uliyatni his qilishda qiyinchiliklar tug’dirishi mumkin.

Chet tillari yo’nalishi talabalari misolidagi muammo tahlili.

Chet tillar instituti va filologiya fakultetlari talabalari o’rtasida o’tkazilgan kuzatishlarimiz shuni ko’rsatadiki, ularda kasbiy identiklikning shakllanishi bir tomonlama xarakterga ega. Ushbu muammoni quyidagicha tahlil qilish mumkin:

- **Lingvistik reduksionizm** (Tilni texnik vosita deb ko’rish): Filolog talabalar orasida kasbiy identiklikni faqatgina til ko’nikmalari [4] (Reading, Writing, Listening, Speaking) va grammatik bilimlarning yig’indisi deb tushunish tendensiyasi kuchli. Ular tilni “shunchaki kodlar tizimi” sifatida qabul qilib, uning ortida turgan psixolinguistik va sotsiopsixologik qatlamlarni inobatga olmaydilar.

- **“Psixologik nigilizm” va psixodidaktik to’siqlar:** Talabalar o’zlarini “til mutaxassisi” deb hisoblaganlari holda, psixologiya fanini o’z kasblari uchun “begona” yoki “yordamchi” fan deb hisoblaydilar [7]. Vaholanki, til muloqot vositasi, muloqot esa sof psixologik jarayondir. Psixologik bilimga bepisand munosabat ularda “noto’liq kasbiy identiklik” (pseudoidentity) holatini keltirib chiqaradi [10]. Bu holatda talaba o’zining kelgusi pedagogik yoki tarjimonlik faoliyatida duch kelishi mumkin bo’lgan muloqot to’siqlari (language barrier, communication anxiety) va auditoriyani boshqarish muammolariga tayyor bo’lmaydi.

- **Kasbiy qadriyatlarining deformatsiyasi:** Tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki, aksariyat talabalar uchun chet tili – maqsad emas, balki boshqa (ko’pincha iqtisodiy) maqsadlarga erishish vositasidir [6]. Bu esa ularning professional identifikatsiyasini “mutaxassis”likdan “vositachi”lik darajasiga tushirib qo’yadi. Natijada, ular o’quvchilar yoki suhbatdoshlar psixologiyasini o’rganishni ortiqcha yuklama sifatida qabul qiladilar. Shunday qilib, filolog talabalarda kasbiy identiklikning shakllanmasligi ularning kelgusida kasbiy “emotsional yonish” (burnout) holatiga tezroq tushishlariga va o’z sohalaridan begonalashishlariga sabab bo’ladi.

Tadqiqot natijalari va ularning tahlili. Tadqiqot doirasida chet tillari yo’nalishida tahsil olayotgan talabalarining kasbiy identikligi va ularning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o’rganish maqsadida maxsus so’rovnomma va test sinovlari o’tkazildi. Olingan natijalar talabalarining o’z kasbiga bo’lgan munosabati va psixologik tayyorgarligi o’rtasida uzviy bog’liqlik borligini ko’rsatdi.

Quyidagi jadvalda talabalarining kasbiy motivatsiyasi va psixologik bilimlarga bo’lgan munosabatining qiyosiy tahlili keltirilgan:

1-jadval. Talabalarda kasbiy identiklik va psixologik kompetensiya ko’rsatkichlari (foiz hisobida)

O’rganilgan ko’rsatkichlar (Indikatorlar)	Ko’rsatkich (%)	Izoh (Psixologik tahlil)
Tashqi motivatsiya asosida kasb tanlash (Ota-ona xohishi, tilning modabopligi)	42 %	Bu guruhda "identiklik difuziyasi" kuzatiladi. Kasbga nisbatan mas’uliyat sust.

Psixologik bilimlarni inkor etish ("Til mutaxassisi uchun psixologiya shart emas")	55 %	Professional faoliyatni faqat texnik ko'nikma deb tushunish (reduksionizm).
Emotsional boshqa-ruvda qiynalish (Muloqotdagi hayajon, til to'sig'i)	68 %	Psixologik bilim yetishmasligi sababli yuzaga keladigan kommunikativ to'siqlar.
Kasbiy o'zlikni anglashning yuqori darajasi (Ichki motivatsiya va ongli tanlov)	32 %	O'zini kelajakda yetuk mutaxassis sifatida ko'ra oladigan talabalar.

Natijalarning qiyosiy tahlili. O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, talabalarning 42%i kasb tanlashda shaxsiy qiziqishlaridan ko'ra ijtimoiy bosim yoki modaga tayanganlar. Bu esa ularning ta'lim jarayonida faqat "diplom olish" strategiyasini tanlashiga sabab bo'lmoqda [11]. Eng dolzarb muammo – talabalar-ning 55%i psixologiya fanini o'z mutaxassisliklari uchun muhim emas deb hisoblashidir. Biroq, paradoksal ravishda, xuddi shu talabalar-ning aksariyati (68%) muloqot jarayonida o'z hissiyotlarini boshqarish, auditoriya oldidagi qo'rquv va "til to'sig'i" kabi sof psixologik muammolarga duch kelishmoqda. Bu holat talabalarda kasbiy tasavvurlar va real amaliyot o'rtasidagi nomuvofiqlikni ko'rsatadi.

Tadqiqotning eng muhim xulosalaridan biri shundaki, kasbiy o'zlikni anglash darajasi yuqori bo'lgan talabalar ya'ni o'zini professional o'qituvchi yoki tarjimon sifatida his qiluvchilar o'zlashtirish ko'rsatkichlari bo'yicha boshqalardan sezilarli darajada ajralib turadi. Statistik tahlillar shuni ko'rsatdiki, bunday talabalar chet tili materiallarini o'zlashtirishda boshqalarga qaraganda 25% tezroq va samaraliroq natija qayd etadilar. Bu esa kasbiy identiklikning shakllanishi kognitiv jarayonlarni jadallashtiruvchi asosiy katalizator ekanligidan dalolat beradi.

Xulosa va tavsiyalar. Oliy ta'lim muassasalari talabalarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini, xususan, bo'lajak filologlarning kasbiy identikligini o'rganish natijasida quyidagi umumiy xulosalarga kelindi:

1. Kasbiy identiklik – shaxs kamolotining integrativ ko'rsatkichi. Talabalik davrida kasbiy o'zlikni anglash shunchaki nazariy bilimlarni to'plash emas, balki shaxsning o'z sohasiga nisbatan barqaror hissiy-irodaviy munosabatining shakllanishidir. Tadqiqotimiz shuni ko'rsatdiki, talaba o'zini professional subyekt sifatida his

etmas ekan, unda o'quv motivatsiyasi pasayadi va olingan bilimlar amaliyot bilan bog'lanmaydi. Kasbiy identiklik talabalarining ijtimoiy-psixologik qiyofasini belgilovchi asosiy "o'zak" (core) hisoblanadi.

2. Psixologik kompetensiya va til o'rganish uzviyligi. Chet tili mutaxassisligi talabalarining orasida psixologiya fanini inkor etish tendensiyasi ularning professional samaradorligiga to'sqinlik qiluvchi asosiy omildir. Til – bu muloqot va ta'sir o'tkazish quroli bo'lib, uning samaradorligi bevosita inson psixologiyasi (emotsional intellekt, empatiya, refleksiv ko'nikmalar) bilan bog'liq. "Noto'liq identiklik" holatidagi talabalar tilning gramatik qoidalarini mukammal bilsalar-da, real ijtimoiy muloqotda va pedagogik faoliyatda psixologik to'siqlarga ya'ni komplekslarga uchrashi isbotlandi.

3. Kasbiy missiyani anglash – barqarorlik kafolati. Talaba tilni "nima uchun" o'rganayotganini ya'ni shaxsiy va ijtimoiy missiyasini anglaganidagina, unda kasbiy barqarorlik va tashqi salbiy ta'sirlarga (stress, sohadan ko'ngil qolishi) nisbatan psixologik immunitet shakllanadi.

Amaliy tavsiyalar. Tadqiqot natijalariga tayangan holda, oliy ta'lim tizimi va pedagogik faoliyatni takomillashtirish bo'yicha quyidagi tavsiyalar ilgari suriladi:

1. O'quv dasturlarini modifikatsiyalash. Filologiya yo'nalishi o'quv rejalarini tarkibiga "Muloqot psixologiyasi", "Kasbiy identiklik psixologiyasi" yoki "Pedagogik muloqot strategiyalari" kabi amaliy modullarni kiritish. Bu talabalarga til o'rganish jarayonini psixologik tahlil bilan uyg'unlashtirish imkonini beradi.

2. Ijtimoiy-psixologik treninglar tashkil etish. 1-2 kurs talabalarini uchun "Kasbga kirish" va "Professional Men-konsepsiyasini shakllantirish" mavzularida psixologik treninglar o'tkazish. Bu treninglar talabalardagi "tashqi motivatsiya"ni (ota-ona xohishi, moda) "ichki ongli motivatsiya"ga aylantirishga xizmat qiladi.

3. Mentorlik tizimini kuchaytirish. Talabalarda kasbiy identiklikni shakllantirishda "ustoz-shogird" an'anasidan foydalanib, sohaning yetuk namoyandalari bilan mahorat darslarini tashkil etish. Bu bo'lajak mutaxassislarda o'z kasbiga nisbatan "hissiy bog'liqlik" (attachment) va g'urur tuyg'usini uyg'otadi.

4. Individual psixologik monitoringni tashkil etish. OTM qoshidagi psixologik xizmatlar tomonidan talabalar-ning kasbiy identiklik darajasini muntazam diagnostika qilib borish va "identiklik inqirozi" holatidagi talabalar bilan korreksion ishlar olib borish.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi «Ta'lim to'g'risida»gi O'RQ-637-son Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi «O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PF-5847-sonli Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi «2022- 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF-60-sonli Farmoni.
4. Baratov Sh.R. Psixologik xizmat asoslari. – Toshkent: «Sharq», 2004.
5. G'oziyev E.G'. Talabalar psixologiyasi. – Toshkent: Universitet, 2011.
6. G'oziyev E.G'. Oliy maktab psixologiyasi. – Toshkent: «Noshir», 2010.
7. Зимняя И.А. Педагогическая психология: Учебник для вузов. – Москва: «Логос», 2004.
8. Леонтьев А.А. Психология общения. – Москва: «Смысл», 1997.
9. Эриксон Э. Идентичность: юность и кризис. – Москва: «Прогресс», 1996.
10. Marcia J.E. Ego identity: A handbook for psychosocial research. – New York: Springer Science & Business Media, 2012.
11. Muallif tadqiqotlari natijalari. Oliy ta'lim muassasalari talabalarini o'rtasida o'tkazilgan ijtimoiy-psixologik so'rovnomaga ma'lumotlari, 2025-2026 yy.

**MAZMUNI
PEDAGOGIKA ILIMLARI**

Pedagogika teoriyası hám tariyxı

Abatova M.K. Studentlerdiń sóylew sheberligin rawajlandırıwda interaktiv shınıǵıwlar hám noverbal kommunikaciyanıń roli	3
Abdieva S.P. Innovatsion yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarnı kasbiy faoliyatiga tayyorlashda texnologiyalardan foydalanish	5
Ajjeva M.B., Arislanbaeva N.N., Sultonov D.Q. Kimyo fanini o'qitishda sun'iy intellektdan foydalanishning pedagogik asoslari	8
Allamberganova M.X., Sultanova J.K. Og'ir nutq nuqsonli bolalar bilan korreksion pedagogik ishlarnı tashkil etish	11
Allanazarova F.K., Xojanazarova G.B. Ta'lim jarayonida noverbal vositalarnı integratsiyalashihg nazariy-metodologik asoslari	14
Arziev Sh.A. Bo'lajak o'qituvchilarda kreativ yondashuvlar asosida ma'naviy qadriyatlarnı shakllantirish	17
Bazarbayeva A.K. Bo'lajak tarbiyachilarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishda kasbiy kompetentligini shakllantirish	19
Begmanova G.E. Raqamli ta'lim muhitida kimyo o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish	22
Бекманова Ж.А. Роль эмпатии в формировании благоприятного психологического климата в дошкольной образовательной организации	25
Bekniyazov B.S. Maktab rahbarlarining taym menejment strategiyasi: operativ boshqaruvdan strategik rejalashtirish sari	28
Djamilova G.J. Bo'lajak o'qituvchilarning prognozlash kompetensiyasini egallash jarayonlarining pedagogik xususiyatlari	31
Ешимбетова Г.Т. Студент жасларда сиясий тәрбия көнликпесин раўажландырыў – педагогикалық зәрүрлик сыпатында	34
Jumaniyazov Q.T. Organization and conducting methods of physical education lessons in general education schools	37
Karamatdinova G.T. Qaraqalpaq tilin oqıtıw metodikası boyınsha izertlewler	40
Karlibaeva J.A., Otajonova G.A. Nutqida og'ir buzilishlari bo'lgan bolalarning ijtimoiy integratsiyalashuvining muammolari	43
Кокленова М.А., Давлетмуратов Б.К. Значение цифровых технологий в формировании компетентности в технологическом образовании	46
Kurbanbaeva D.M. Inklyuziv ta'lim sharoitida korreksion pedagogikaning ahamiyati	50
Mamutov P.J. Maktab o'quvchilarini harakat faoliyatlariga o'rgatishda video tahlil va raqamli biomexanika texnologiyalarini qo'llash	53
Mirzabekova G.X. Tabiiy fanlarda muammoli ta'lim texnologiyasi	56
Otepbergenov J.S. Informatika sabaqlarında jasalma intellekt texnologiyalarınan paydalanıw: imkaniyatlar, ámeliyat hám perspektivalar	59
Реймбаев А.М. Интеграциялашган жисмоний тарбия дарсларини лойихалашни алгоритмлаш	62
Саметова Ф.Т., Шакерова А.Ж. Проектирование цифровой платформы для использования креолизованных текстов в обучении русскому языку и литературе	65
Tajimuratov A.J. Logoritmika – maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishning samarali vositasi	68
Толегенова Г.Ж. Развитие академического письма у студентов педагогических направлений	71
Ubaydova V.E. Ta'lim klasterida o'quv-tarbiyaviy jarayon sifatini naqshbandiya ta'limoti asosida takomillashtirishning konseptual modeli	73
Utebaeva A.D. Qaraqalpaq xalıq pedagogikasında ekologiyalıq terminologiyanın lingvokulturologiyalıq táriypi	76
Utegenov M.B. Voleyboldı oqıtıw metodikasında zamanagów pedagogikalıq texnologiyalar	79
Чаброва Т.Л. Формирование духовно – эстетических качеств детей дошкольного возраста при обучении их навыкам рисования совместно с родителями	82

Tálim - tárbiya teoriyası hám metodikası

Abdiev B.T. Estetikalıq tárbiyanıń pedagogika hám filosofiyadaǵı áhmiyeti	86
Atabaeva B.J., Davlatbayeva X.N. Raqamli ta'lim muhitida matematika fanini o'qitishning nazariy-metodologik asoslari	89
Durisjanov M.J. Maktabda fizika fanini o'qitishda PheT virtual laboratoriyalaridan foydalanish samaradorligi	92
Embergenova M.A., Kalmurzaeva X.X. Mekteplerde qaraqalpaq ádebiyatın oqıtıwda milliy qádiriyatlardı sińdiriwdiń pedagogikalıq tiykarları	95
Kadirimbetova G.R. Mexanika bo'limini o'qitishning o'ziga xos jihatlari va turli kasblarda tutgan o'rni	97
Kurbaniyazova S.A. Task-based language teaching in developing communicative competence of esp learners	99
Maksetova N.K. Boshlang'ich sinf jismoniy tarbiya darslarida umumrivojlantiruvchi mashqlardan foydalanish metodikasi	101
Paluaniyazova S.K., Hasanova D.S. Fanlararo integratsiya asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ faoliyatni rivojlantirish metodikasi	104
Сейтназарова Ш.А. Совершенствование методики обучения английскому языку студентов направления информационных технологий на основе подхода cllil (на примере каракалпакских групп)	106
Турекеева А.Ж. Олий таълим муассасаларида биология фанини ўқитиш методикасини сунъий интеллект технологиялари асосида такомиллаштириш	109

PSIXOLOGIYA ILIMLARI

G'ulomov N.K. Ixtisoslashtirilgan maktablarda o'quvchilarning ta'lim muhitiga moslashuv jarayonida gender tenglik madaniyatini rivojlantirish omillari	112
Нурымбетова Э.Ж. Жизнестойкость как ресурс конструктивного поведения в конфликтных ситуациях у студентов-психологов	115
Рахмонова Г.Ж. Гендерный подход к исследованию профессиональной идентичности студентов	117
Saparov Sh.B. Psixologiyalıq izertlewlerde muǵdarlıq analiz xarakteristikası	120
Sodiqova G.O. Qizlarnı jamıyatdagi ijtimoiy faolligini psixologik fenomen sifatida tadqiq etishning ilmiy talqini	122
Yadgarova O.I. Oliy ta'lim talabalari ijtimoiy-psixologik xususiyatlarida kasbiy o'zlikni anglash masalasi	125

«Kerder-2026» III xalıqaralıq arxeologiyalıq ekspediciyası úlken nátiyjeleri



Ájiniyaz atındaǵı Nókis mámleketlik pedagogikalıq institutı tárepinen usı jıldıń 3-30-may kúnleri aralıǵında Nókis rayonı «Kerder» awıl puqaralar jıyını aymaǵındaǵı «Haywanqala» tariyxıy esteliginde «Kerder-2026» III xalıqaralıq arxeologiyalıq ekspediciyası shólkemlestirildi.

Xalıqaralıq arxeologiyalıq ekspediciyaǵa Rossiya Federaciyası Tatarstan Respublikası Ilimler akademiyası A.X.Xalikov atındaǵı Arxeologiya institutı, Lomonosov atındaǵı Moskva mámleketlik universiteti, Qazan federal universiteti ilimpazları, sonday-aq, instituttıń Tariyx fakulteti professor-oqıtıwshıları hám student-jasları qatnastı.

NMPIdiń eki studenti «Bolajaq alım» ilimiy ideyalar tańlawınıń jeńimpazı boldı



Paytaxtımız Nókis qalasında jaslardıń ilimiy hám innovaciyalıq baslamaların qollap-quwatlawğa baǵdarlangan «Bolajaq alım» ilimiy ideyalar tańlawınıń jeńimpazların saltanatlı sıylıqlaw máresimi bolıp ótti.

Quwanışlısı, jeńimpazlar arasında Ájiniyaz atındaǵı Nókis mámleketlik pedagogikalıq institutı Tábiyyiy pánler fakulteti biologiya tálim baǵdarınıń 2-kurs studentleri Shahzoda Abıllaeva («HydroSave» joybarı menen) hám Umida Sháribaeva («SmartThermoBox» joybarı menen) sıylıqlandı.

Dıqqat, jazılıw – 2026!

Húrmetli, jurnal oqıwshıları! Eger, Siz ilim, tálim-tárbiya hám oqıtıwdıń jańa zamanagóy usılları, jańalıqları menen óz waqtında jaqınnan tanıspaqsı, ózińizdiń usı tarawdağı jetiskenliklerińiz hám oy-pikirlerińiz benen ortaqlaspaqsı bolsańız, «Ilim hám jámiyet» jurnalına 2026-jıl ushın jazılıwǵa mirát etemiz.

Biziń jurnalımızda barlıq tarawlar boyınsha ilimiy, ilimiy-metodikalıq maqalalar járiyalanadı.

«Ilim hám jámiyet» jurnalı Ózbekstan Respublikası Ministirler kabineti janındaǵı Joqarı Attestaciya Komissiyası kollegiyasınıń qararı menen tómende kórsetilgen pánler boyınsha ilim doktori dárejesin alıw ushın maqalalar járiyalanıwı tiyis bolǵan ilimiy basılımlar dizimine kirgizilgen:

- 01.00.00 – fizika-matematika ilimleri;
- 02.00.00 – ximiya ilimleri;
- 03.00.00 – biologiya ilimleri;
- 05.00.00 – texnika ilimleri;
- 07.00.00 – tariyx ilimleri;
- 10.00.00 – filologiya ilimleri;
- 11.00.00 – geografiya ilimleri;
- 13.00.00 – pedagogika ilimleri;
- 19.00.00 – psixologiya ilimleri.

Jazılıw bahası - 420.000 (tórt júz jigirma mın) swm.

Redakciya mánzili: Nókis qalası, P.Seytov kóshesi, n/j.

Indeks: 230100, Telefon: +998612294086; +998933652520.

JURNALDÍN BASÍP SHÍGARÍLÍWÍNA

JUIWAPKER: Ájiniyaz atındaǵı NMPI haspaxanası.

«Ilim hám jámiyet» jurnalınıń esap beti:

BANK: MB BB XKKM Toshkent shahri

Esap beti: 2340 2000 3001 0000 1010

MFO: 00014; INN: 201 122 919

Ileke esap beti: 4001 1086 0354 0170 9410 0350 005

<p><i>Maqalalardıń mazmunına hám durılıǵına avtorlar juwapker, olardıń pikirleri redaksiyanıń pikirleri bolıp esaplanbaydı</i></p>	<p><i>Jurnalǵa jil dawamında jazılǵan avtorlardıń miynetleri birinshi gezekte járiyalanadı. Maqala kólemi 6 betten kem bolmaıwı, 8 betten aspaıwı kerek.</i></p>
<p><i>Jurnal 1992-jıldan shıǵa basladı ISSN 2010-720X Indeksi: Jeke puqaralar ushın — 2101. Mákemeler ushın — 2102.</i></p>	<p><i>Basıwǵa ruxsat etildi: 30.06.2026 Buyırtpa: №0368 Format: 60x84 1/8 Kólemi: 16 b/t. Jurnal jılına 8 márte shıǵadı. Reestr № 089632</i></p>